

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

MAXMUDOV N.M., HAKIMOV H.A.

MAKROIQTISODIY TAHLIL

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi
Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan 5230100-Iqtisodiyot(tarmoqlar va
sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT– 2019

Makroiqtisodiy tahlil. Maxmudov N.M., Hakimov H.A. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2019. – 146 bet.

O‘quv qo‘llanmada makroiqtisodiy tahlilda foydalaniladigan asosiy iqtisodiy tushunchalar va kategoriyalarni mohiyati, ular orasidan o‘zaro bog‘liqliklar, mavjud ijtimoiy – iqtisodiy holatlarni tahlil qilish usullari va ularni hisoblash uslubiyati yoritilgan.

O‘quv qo‘llanma iqtisodiy fanlar yutuqlariga va jahon amaliyotiga asoslangan bo‘lib makrodarajadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning tahlil qilish uslubiyati va undan kelib chiqqan usullari, ularni mazmuni va mohiyati, shakllash jarayonlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda, prognozlash, uning nazariy va amaliy yo‘nalishlari o‘z aksini topgan.

O‘quv qo‘llanma iqtisodiyot yo‘nalishlarining bakalavrlariga, magistrantlariga, professor-o‘qituvchilariga va iqtisodiy integratsiya sharoitida makroiqtisodiy tahlil bilan qiziqadiganlarga mo‘ljallangan.

KIRISH

Inflatsiya sur'atlarining jilovlanishi, davlat budjeti taqchilligini tan olingan me'yorlardan ham past darajada bo'lishini ta'minlanishi respublikamizda olib borilayotgan makroiqtisodiy siyosat samaradorligidan dalolat beribgina qolmasdan, iqtisodiyotimizga kiritiladigan investitsiyalar ko'lamining oshishi, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda aholi real daromadlarini o'stirishning muhim sharti hamdir.

Makroiqtisodiy barqarorlik va yalpi ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali aholining turmush farovonligi darajasini o'stirish davlat iqtisodiy siyosatida bosh maqsad bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy taraqqiyot jarayonlari iqtisodchi kadrlardan makroiqtisodiy nazariya va eng zamonaviy makroiqtisodiy konsepsiyalar bilan yaxshi tanish bo'lishni, makroiqtisodiy tahlil malakasiga, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etadi. Shu sababli ham makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi qonuniyatlarini, makroiqtisodiy muammolarni, makroiqtisodiy siyosat yuritgan holda ularni yechish yo'llarini turli modellar vositasida mantiqiy izchillikka amal qilgan holda tahlil qilish, o'rganish dolzarb vazifadir.

“Makroiqtisodiy tahlil” fani doirasidagi Sizni bilimlarga, tajribalarga va ko'nikmalarga ega bo'lishingizni ta'minlaydigan vositalardan biri mazkur o'quv qo'llanma hisoblanadi.

Ushbu o'quv qo'llanma - amaliy qo'llanma bo'lib, talabani oraliq va yakuniy nazaratlarga tayyorgarchilik ko'rishlarida ma'ruza, amaliy, seminar va tajriba mashg'ulotlarida va auditoriyadan tashqari vaqtida o'quv fanini o'zlashtirishda talabaga mustaqil ishlashga ko'maklashuvchi alohida didaktik xususiyatga ega apparat hisoblanadi.

1.1. “Makroiqtisodiy tahlil” fanining predmeti va ob’ekti

Hozirda jahon hamjamiyatida yuz berayotgan jarayonlar (globallashuv, o‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlarda bozor munosabatlarining rivojlanishi) milliy iqtisodiyotni tartibga solish sohasida muvofiqlashtirilgan qarorlarni qabul qilishning asosi sifatida makroiqtisodiy tahlil usullaridan faol foydalanishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan o‘quv dasturiga «Makroiqtisodiy tahlil» kursi kiritilgan.

Mazkur kurs tayanch iqtisodiy fanlarni o‘rganish jarayonida olingan bilimlar qanday qilib makroiqtisodiy tahlilning amaliy maqsadlarini amalga oshirish va u yoki bu mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni prognoz qilish uchun qo‘llanishi mumkinligini ifodalaydi.

Makroiqtisodiy tahlilning predmeti sifatida milliy iqtisodiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari, iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi universal bog‘liqliklarning o‘ziga xos shakllari, iqtisodiy siyosatning turli vositalaridan foydalanishda amal qiladigan sabab-oqibat mexanizmlari, shuningdek, ichki iqtisodiyot hamda tashqi dunyoning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’siri ishtirok etadi.

Ta’kidlash lozimki, huddi makroiqtisodiyot kabi, makrotahlil ham pozitiv va normativ tarkibiy qismlarni o‘zida mujassam etgan. Pozitiv tarkibiy qism «Nima sodir bo‘layapti?» degan savolga javob beradi va prognoz qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi (bunda muayyan faktlar, nisbatlar va raqamlardan foydalaniladi). Normativ tarkibiy qism «Qanaqa bo‘lishi kerak?» degan savolga javob beradi va iqtisodiy siyosat vositalarini ishlab chiqish orqali vaziyatni to‘g‘rilashga yordam beradi.

Ushbu ikkita tarkibiy qismning uyg‘unlashuvi siyosiy tizimdan qat’i nazar har qanday mamlakatning iqtisodiy ahvolini makroiqtisodiy tahlil qilishda namoyon bo‘ladi. Mamlakatlarning iqtisodiy siyosatidagi farqlar birinchi galda pozitiv va normativ tarkibiy qismlarning ulushi bilan belgilanadi. Davlat tomonidan tartibga solish tarafdorlarida normativ yondashuv yaqqol ifodalangan, liberallarda esa bilim orttirishga (pozitiv) yo‘naltirilganlik ustunlik qiladi, ular ko‘proq bozorning kuchiga ishonib, bozor erkinligini nazarda tutadi, davlat tomonidan ta’sir etishning bilvosita, tuzatish kirituvchi vositalaridan foydalanishni afzal ko‘radi:

- iqtisodiy vaziyatni monitoring qilish;

- iqtisodiyotda amal qiluvchi sababli-oqibatli mexanizmlarni tahlil qilish;
- moliyaviy oqimlarni tadqiq etish asosida iqtisodiyot sektorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'rganish;
- iqtisodiy siyosatni tadqiq etish va yangi iqtisodiy strategiya variantlarini ishlab chiqish (makroiqtisodiy tuzatishlar kiritish dasturlarini ishlab chiqish).

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotining tahlili uchun talab qilinadigan nazariy va amaliy masalalar to'g'risida bilimlar berish hisoblanadi. Ushbu fanning maqsadi esa mamlakat iqtisodiyotida daromad va boyliklar taqsimotiga, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar faoliyatiga ta'sir etuvchi budjet, soliq, pul-kredit siyosatlari, to'lov balansi va tashqi qarzni tahlil qilayotganda asosiy konsepsiyalar, soliq sohasi, davlat xarajatlari va kapital qarz siyosati bilan tanishtirishdan iborat.

Fanning mazmuni– makroiqtisodiy tahlilning paydo bo'lishi, rivojlanishi bosqichlari va xususiyatlari, uslubiyoti va usullari, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar axborot ob'ekti, makroiqtisodiy jarayonlarning iqtisodiy tahlili, budjet, soliq, pul, kredit siyosati, to'lov balansi, bandlik, ishsizlik va inflatsiya darajasidagi o'zgarishlar va ular rivojlanish qoidalarining takomillashuvining nazariy va amaliy asoslarini o'rgatadi.

Makroiqtisodiy tahlilning asosiy bo'limlari quyidagilar: makroiqtisodiy tahlilning uslubiy asoslari, makroiqtisodiy jarayonlarning iqtisodiy tahlilini o'rganish, uni yanada rivojlantirish, takomillashtirish, mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, erishilgan muvaffaqiyatlarni keng yoyish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarning sabablarini o'rganish hamda ularni imkoni boricha tugatishga yordam berishdan iborat. Shunday qilib, makroiqtisodiy tahlilning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- makroiqtisodiy tahlilning uslubiyoti va usullarini har tomonlama o'rganish;
- real sektorni batafsil o'rganish asosida sektorning faoliyatiga baho berish;
- to'lov balansiga ta'sir qilgan omillar va ularning sabablarini o'rganish;
- budjet-soliq sektorini makroiqtisodiy tahlil qilish va undagi o'zgarishlarni amaliyotga tadbiiq etishni o'rganish;

- pul-kredit sektorini iqtisodiy tahlil qilish va ilg‘or tajribalarga tayangan holda rivojlantirish va mustahkamlashga yordam beradigan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- bandlik, ishsizlik va inflatsiya darajasini iqtisodiy tahlil qilish, ularga ta’sir qilgan omillar va sabablarni o‘rganish.

“Makroiqtisodiy tahlil” fanining vazifasi milliy iqtisodiyot ko‘rsatkichlarini baholash va monitoring o‘tkazishda foydalanadigan usullar majmuini o‘rganishdir. Shu maqsadda unda mamlakatimizda ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning jami hajmini hisoblash, inflatsiya sur‘atlarini, ishsizlik darajasini, to‘lov balansi saldosi va valuta almashtiruv kursi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish usul va uslublari bayon etilgan.

1.2. Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarning shakllanishi va ularning turlari

Makroiqtisodiy tahlilning asosiy sohasi – mamlakatda ishlab chiqarishning umumiy hajmi, inflatsiya sur‘atlari, ishsizlik darajasi, to‘lov balansi saldosi, ayirboshlash kursi kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar. Makroiqtisodiy tahlilning maqsadi – umumiy ko‘rsatkichlar ma’lumotlarining o‘zgarishini izohlash va davlat organlariga hamda jamoat tashkilotlariga iqtisodiy vazifalarni hal etishda va iqtisodiy vaziyatdagi kutilmagan o‘zgarishlarga munosabat bildirishda yo‘l ko‘rsatishdan iborat. Quyida eng muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning asosiy turlarini, shuningdek, bozor va o‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlarda inflatsiya, bandlik, ishsizlik, real ish haqi darajasini o‘lchash va tahlil qilish usullarini ko‘rib chiqamiz. Ushbular esa ayni paytda axborot ob’ektlari hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot o‘zaro bog‘liq sektorlar va tarmoqlarning murakkab yig‘indisini o‘zida namoyon etadi. Uning eng muhim tavsiflari - tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste’mol qilish hajmi, inflatsiya va iqtisodiy o‘sish sur‘atlari, bandlik, ishsizlik va daromad darajalari. Ushbu makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, ularning o‘zgarishi haqidagi axborot milliy hisoblar tizimida to‘liq aks ettirilgan. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlil va prognoz uchun asosiy axborot ob’ekti hisoblanadi.

1.3. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar axborot ob’ekti sifatida

Milliy hisoblar tizimi (MHT) makroiqtisodiy ma’lumotlarga ishlov berish va ularni makroiqtisodiy tahlil maqsadlari uchun tizimlashtirilgan

ko‘rinishda taqdim etish imkonini beruvchi buxgalteriya hisobi sifatida ishlab chiqilgan. U milliy iqtisodiyot ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, baholash va monitoringini amalga oshirishda zarur bo‘lgan axborotning uzluksiz oqimini tashkil etish uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan bazani o‘zida namoyon etadi.

Milliy hisoblar tizimi – muayyan davrda real ishlab chiqarish hajmini va barcha asosiy sektorlar va ishlab chiqarish omillarining mamlakatning umumiy ishlab chiqarishiga qo‘shgan hissasini ko‘rsatuvchi turli faoliyat turlarini hisobga oluvchi statistika tizimi.

Ta’kidlash lozimki, MHTning makroiqtisodiy tahlil uchun o‘ta muhim ahamiyatga egaligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

1. MHT makroiqtisodiy tahlil uchun zarur baza hisoblanib, o‘zining ancha moslashuvchanligi va qulayligi bilan ajralib turadi. Rivojlanishning turli bosqichlarida turgan mamlakatlar uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi, hamda tahlil va prognoz uchun axborot bazasi hisoblanadi.

2. MHT nafaqat muayyan davrda, balki dinamikada ham (muayyan vaqt qatori mobaynida) eng muhim makroiqtisodiy o‘rtacha ko‘rsatkichlar (masalan, ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajasi) harakatini kuzatish imkonini beruvchi tizimni o‘zida namoyon etadi.

3. MHT – xalqaro taqqoslashlar uchun eng muhim axborot manbai hisoblanadi, chunki xalqaro tashkilotlarga milliy hisobvaraqlar bo‘yicha ma’lumotlarni, xalqaro standartlarga mos keluvchi ta’riflar va tasniflarni taqdim etishda foydalaniladi. Ushbu ma’lumotlar ko‘plab holatlarda, masalan, imtiyozli yordam olish huquqini belgilashda, XVFGa a’zo mamlakatlar kvotalarini hisoblab chiqishda, shuningdek, turli mamlakatlar milliy hisoblarini taqqoslashni amalga oshirish imkonini beradi.

MHTga muvofiq iqtisodiyot aktivlarga ega bo‘lib, majburiyatlarni qo‘lga kiritishga qodir bo‘lgan va boshqa iqtisodiy birliklar bilan iqtisodiy bitimlarni tuzuvchi iqtisodiy agentlarning institutsional birliklaridan tarkib topgan. MHT milliy iqtisodiyotni tashqi dunyodan rezidentlik mansublik tamoyili bo‘yicha ajratib turadi.

Milliy hisoblar tizimi bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlarda bir necha o‘nlab yildan buyon foydalanilmoqda. Ilgari markazlashgan rejalashtirish qo‘llanilgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning yakuniy hajmini o‘lchash uchun boshqa tizim – moddiy mahsulot tizimi (MMT) ishlab chiqilgan bo‘lib, uning doirasida ishlab

chiqarish umumiy hajmining ko'rsatkichi bo'lib moddiy ishlab chiqarishning sof mahsuloti (MICHSM) xizmat qilgan.

1.4. Makroiqtisodiy tahlilda axborot texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari

Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan sharoitda makroiqtisodiy tahlil va prognozlashda kompyuter texnologiyalardan keng foydalaniladi. Hozirgi kunda texnika rivojlanishi natijasida, ko'plab murakkab va ko'plab insonlar mehnatini qiluvchi jarayonlarni birgina dastur orqali amalga oshirish imkoni mavjud bo'lmoqda. Odatda, iqtisodiy tahlil va prognozlashda matematik amaliy paketlardan foydalanib, bular quyidagilar: MS Excel, Stata, EViews, Statistics va boshqalar.

Amaliyotda MS Excel, Stata va Eviews dasturiy paketlardan keng foydalaniladi. MS Excel oqali malumotlarni yig'ish, ularni qayta ishlash va statistik baholashda foydalaniladi. Ma'lumotlarni statistik baholash, tahlil qilish va ko'rsatgichlarni o'zaro bog'liqligini baholashda Stata dasturiy paketidan foydalaniladi. Bir qancha kuzatuv vaqt ma'lumotlari asosida iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik baholash va prognoz qilishda Eviews dasturiy paketdan foydalanish qulay bo'lib hisoblanadi. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun quyidagi bosqichlarni bajarish lozim:

- MS Excelda mavjud ma'lumotlarni yangi MS Excelga ko'chirib ushbu faylni "сохранить как" buyrug'i yordamida MS Excel 5. 0/95 shaklida saqlashimiz kerak;

- Kompyuterda o'rnatilgan Eviews dasturini ishga tushirib quyidagi jarayonni amalga oshirish kerak: "File" → "New" → "Workfile", so'ngra sizda ma'lumotlar yillik, yarim yillik, choraklik, oylik, haftalik haqidagi buyriqni tanlashiz kerak bo'ladi, keyin ma'lumotlarning boshlanish muddati va tugash muddati haqidagi ma'lumotni kiritasiz "enter" tugmasini bosgandan so'ng, yangi ish sahifasi ochiladi;

- Mavjud ma'lumotlarni Eviews dasturiga ko'chirish uchun quyidagi jarayonni amalga oshirish kerak: "File" → "Import" → "Read Text-Lotus-Excel" va Excel 5. 0/95 shaklida saqlangan faylni tanlab "открыть" burug'i beriladi. So'ngra har bir ko'rsatgich nomi yozilib "ok" buyrug'i beriladi (eslatib o'tamiz, Excelda saqlangan ma'lumotlarda vergul o'rniga nuqta ishlatiladi, ko'rsatgichlarning nomi lotin alifbosida yoziladi).

- Ko'rsatgichlarni o'zgarish tendensiyalari asosida holat qaysi funksiya qonuniyatiga tegishligi aniqlanib, funksiyaning parametrlari

quyidagi buyruqlar orqali topiladi: “Quick” → “Equition Estimation”. Olingan natijalar asosida jarayon prognozlashtiriladi.

Qisqacha xulosalar

Makroiqtisodiy tahlilning asosiy sohasi – mamlakatda ishlab chiqarishning umumiy hajmi, inflatsiya sur'atlari, ishsizlik darajasi, to'lov balansi saldosi, ayirboshlash kursi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. Makroiqtisodiy tahlilning maqsadi – umumiy ko'rsatkichlar ma'lumotlarining o'zgarishini izohlash va davlat organlariga hamda jamoat tashkilotlariga iqtisodiy vazifalarni hal etishda va iqtisodiy vaziyatdagi kutilmagan o'zgarishlarga munosabat bildirishda yo'l ko'rsatishdan iborat. Quyida eng muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning asosiy turlarini, shuningdek, bozor va o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda inflatsiya, bandlik, ishsizlik, real ish haqi darajasini o'lchash va tahlil qilish usullarini ko'rib chiqamiz. Ushbular esa ayni paytda axborot ob'ektlari hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida”gi 2019 yil 17 yanvardagi PF- 5635 sonli Farmonining asosiy mazmuni nimalardan iborat?
2. Makroiqtisodiy tahlilning predmeti nimadan iborat?
3. Makroiqtisodiy tahlilning pozitiv va normativ turlariga izoh bering.
4. Makroiqtisodiy tahlilda qanday axborot texnologiyalaridan foydalaniladi va ularning o'zaro farqlari nimalardan iborat?

2.1. Makroiqtisodiy tahlilning uslub va tamoyillari

Uslub (approach) – bu bir necha usul va tamoyillar yig‘indisi hisoblanib, ular orqali tadqiqot maqsadiga erishish yo‘llari belgilanadi. Iqtisodiyot nazariyasi rivojlanishining turli bosqichlarida tadqiqotning turli xil uslublaridan foydalanilgan (formal-logik, dialektik va boshq.) va hozirda ham ulardan zamonaviy tadqiqotlarda keng foydalanilmoqda.

Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda iqtisodiyot nazariyasi (jumladan mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot) uchun standart hisoblangan dialektika va mantiqning uslub va tamoyillari qo‘llaniladiki, bunday umumiy uslub va tamoyillarga: abstraktlashtirish (mavhumlashtirish), ya’ni iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tadqiq etish va tushuntirishda modellarni qo‘llash; deduksiya va induksiya usullari yoki ularni birgalikda qo‘llash, normativ va pozitiv tahlilni qo‘shib olib borish, umumlashtirish, «boshqa omillar o‘zgarmas bo‘lganda» tamoyillaridan foydalanish, iqtisodiy agentlarning ratsional harakatlari tahmini va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Modellashtirish yoki abstraktlashtirish makroiqtisodiy tahlilning asosiy uslubi hisoblanadi va shuning uchun barcha makroiqtisodiy jarayonlar modellar orqali o‘rganiladi.

Makroiqtisodiy tahlilning asosiy xususiyati shundan iboratki, uning eng muhim tamoyili umumlashtirish hisoblanadi. Iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi va uning qonuniyatlarini, iqtisodiyotni bir butun darajada o‘rganish faqatgina ***umumlashtirish*** yoki ***agregatlash*** (aggregation) tamoyili orqali amalga oshiriladi. Makroiqtisodiy tahlil agregatlashni talab etadi.



2.1. -rasm. Makroiqtisodiy tahlilning uslub va tamoyillari¹

Agregatlash – alohida elementlarni bir butun agregatga birlashtirishni ifodalaydi. Agregatlash doimo abstraktlashtirishga asoslanadi, ya'ni unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan jihatlarni chiqarib tashlab, ahamiyatga molik bo'lgan iqtisodiy jarayon va hodisalarning qonuniyatlarini ajratib ko'rsatish demakdir. Agregatlash: *makroiqtisodiy agentlar, makroiqtisodiy bozorlar, makroiqtisodiy bog'liqliklar, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish* imkonini beradi.

Iqtisodiy agentlarning nisbatan tipik harakatiga asoslangan agregatlash to'rtta *makroiqtisodiy agentlarni ajratib beradi*:


- uy xo'jaliklari;
- firmalar;
- davlat;
- chet el sektori.

Bozorlarni agregatlash (aggregation markets) har bir alohida bozorda amal qiluvchi qonuniyatlarni aniqlash, ya'ni: talab va taklif shakllanishi xususiyatlarini va har bir bozorda uning muvozanat shartlarini tadqiq etish; talab va taklif nisbatlari asosida muvozanat narx va muvozanat hajmni aniqlash; har bir bozorda muvozanat o'zgarishi oqibatlarini tahlil etish maqsadida amalga oshiriladi.

¹ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

Bozorlarni agregatlash to'rtta makroiqtisodiy bozorni ajratish imkonini beradi:

- tovar va xizmatlar bozori (real bozor);
- moliyaviy bozor (moliyaviy aktivlar bozori);
- iqtisodiy resurslar bozori;
- valuta bozori.



2.2. -rasm. Makroiqtisodiy agentlar va bozorlar²

Ekzogen va endogen o'zgaruvchan ko'rsatkichlar. Har qanday model (nazariya, tenglama, grafik) real borliqning sodda va abstrakt ko'rinishi hisoblanadi, chunki tadqiqot o'tkazishda barcha elementlarni bir vaqtning o'zida barchasini hisobga olish mushkul masala hisoblanadi. Shuning uchun har qanday makroiqtisodiy modelni absolyut deb hisoblash mumkin emas. Bunday makroiqtisodiy modellar barcha mamlakatlar uchun bir vaqtning o'zida bir xil to'g'ri javob berish imkonini bermaydi. Ammo bunday «umumiylashtirilgan» modellar orqali bandlik, ishlab chiqarish, inflatsiya, investitsiya, iste'mol, foiz stavkasi, valuta kursi kabi *ichki (endogen)* iqtisodiy ko'rsatkichlarni boshqarishning kompleks muqobil usullari aniqlanadi.

² T.Z.Teshabayev, Z.M.Otaqo'ziyeva, Makroiqtisodiyot. Ma'ruzalar matni. T.: TATU, 2015

Model tashqarisida belgilanuvchi *tashqi (ekzogen) o'zgaruvchan ko'rsatkichlar* qatoriga esa hukumatning fiskal (soliq-budjet) va Markaziy Bankning pul-kredit siyosati instrumentlarini – davlat xarajatlaridagi o'zgarishlar, soliqlar va pul massasi kabilarni kiritishimiz mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy muammolarni hal etishda modellarning turli xil usullar orqali yechimlar topa olish imkoniyatiga ega ekanligi *makroiqtisodiy siyosat*ning muqobilligi va egiluvchanligini ta'minlaydi. Makroiqtisodiy modellardan foydalanish fiskal (soliq - budjet), monetar (pul - kredit), valuta va tashqi savdo siyosat dastaklarini muvofiqlashtirishni optimallashtirish hamda hukumat va Markaziy Bankning iqtisodiyotni davriy tebranishini boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarini samarali olib borish imkoniyatini yaratib beradi.


Tovar va xizmatlar, daromad va xarajatlar aylanma harakat modeli, yalpi talab (AD) va yalpi taklif (AS) modeli, Keyns xochi, IS-LM, Fillips, Laffer egri chiziqlari, Solou modeli va shu kabi boshqa umumlashtirilgan makroiqtisodiy modellar makroiqtisodiy tahlilning umumiy vositalari hisoblanadi, ammo aytish joizki, ular milliylik xususiyatidan mustasnodir.

2.2. Milliy xo'jalik ishlab chiqarishining cheklanganligi. Muqobil xarajatlar

Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan resurslarning miqdori bilan ushbu jarayonda ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni xarakterlaydi, ya'ni *«xarajatlar-ishlab chiqarish»* muammosini o'zida mujassam etadi. Mavjud xarajatlardan olingan mahsulotlarning nisbatan ko'payganligi samaradorlikning ortishini bildirsa, uning kamayishi samaradorlikning pasayishini bildiradi.

Cheklangan resurslar sharoitida *Nima? Qancha? Qanday? va Kim uchun?* masalalarini yechish maqsadida iqtisodchilar turli modellardan foydalanganlar.

Shularning eng sodda ko'rinishi quyidagicha:



2.3-rasm. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i³

bunda,

OX – iste’mol buyumlarini ishlab chiqarish;

OY - ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish;

$ABCD$ – har ikki mahsulotni ishlab chiqarishning maksimal imkoniyat chegarasi;

F - mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlaridan etarli darajada foydalanilmaganlikni bildiradi;

E – cheklangan imkoniyatlardan tashqari imkoniyat sharoitida ishlab chiqarish (hozirda mavjud bo‘lgan resurslar hisobidan unga erishish mumkin emas).


Bu modeldan ko‘rish mumkinki, ma’lum davrda jamiyat faqatgina iste’mol buyumlarini ishlab chiqarishni lozim deb topsa, u holda barcha resurslar safarbar etilib iste’molga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqariladi, ammo bunday sharoitda endilikda ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishning imkoniyati mavjud bo‘lmay qoladi yoki aksincha (2.3 - rasmdagi A yoki D nuqta).

Modelni tahlil etishni davom ettirar ekanmiz, muqobil xarajatlar mavjudligini, ya’ni ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘idagi B yoki C nuqtalarda ulardan birini kamaytirish hisobiga ikkinchisini oshirish mumkinligi yaqqol ko‘rish mumkin.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i ichkarisida joylashgan har qanday nuqtada (masalan F nuqta) hozirda mavjud imkoniyatlar, ya’ni mavjud resurslar (yer, mehnat, kapital va tadbirkorlik faoliyati) dan

³ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

samarali yoki to'liq foydalanilmayotganlikni ko'rishimiz mumkin. Chunki bunday holatda har ikki mahsulotni mavjud bo'lgan imkoniyat darajasidan past darajada ishlab chiqarilgan hisoblanadi.



a) Ishlab chiqarish imkoniyatlarining bir tekisda kengaytirilishi

b) faqatgina bir mahsulotni (ishlab chiqarish vositalarini yoki iste'mol buyumlarini) ishlab chiqarishni oshirish

2.4- rasm. Ishlab chiqarish imkoniyatini kengaytirish yoki iqtisodiy o'sishga erishish⁴

bunda,

OX – iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish;

OU - ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish;

E – cheklangan imkoniyatlardan tashqari imkoniyat sharoitida ishlab chiqarish.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i tashqarisida joylashgan har qanday nuqta (masalan E nuqta)ga esa, ya'ni uni kengaytirishga hozirda mavjud bo'lgan resurslar hisobidan erishish mumkin emas. Bunday kengayishga erishish uchun qo'shimcha resurslar yoki investitsiyalar, yangi, zamonaviy texnologiyalar kiritish zarur va uning natijasida albatta iqtisodiy o'sish yuz beradi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, hozirda iste'molni birmuncha kamaytirish hisobiga ishlab chiqarish vositalarini oshirish ham kelgusi davrda iqtisodiy o'sishni ta'minlab berish imkoniyatini yaratadi (2.4-rasm).

2.3. Iqtisodiy tizimlar va ularning modellari

Hozir dunyoda iqtisodiy tizimlarning to'rt turi mavjud bo'lib, bularga odatda sof bozor, ma'muriy-buyruqbozlik, aralash va an'anaviy iqtisodiy tizimlar kiritiladi. Ular bilan batafsilroq tanishib o'tamiz.

⁴ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

2.1-jadval

Iqtisodiy tizim turlari va ularning belgilari⁵

№	Iqtisodiy tizim turlari	an'anaviy	ma'muriy-buyruqbozlik	sof bozor	aralash
	Belgilari				
1	Mulkchilik shakli	jamoat	davlat	xususiy	xususiy va davlat
2	Xo'jalik faoliyatini tashkil etish usuli	an'analarga asoslangan	reja asosida	bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida	bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida
3	Davlatning roli		boshqaruvchilik	deyarli mavjud emas	cheklangan
4	Misollar	Afrika qabilalari	Shimoliy Koreya, Kuba	Iqtisodiy jarayonlarga davlatning u yoki bu darajada aralashuvi deyarli barcha mamlakatlarda mavjud	AQSh, Rossiya, Yevropa, Yaponiya va boshqa davlatlar

An'anaviy iqtisodiy tizimda yashovchi kishilar uchun diniy va madaniy qadriyatlar iqtisodiy faoliyatga nisbatan birlamchi deb qaraladi. Bunday jamiyatga u yoki bu iqtisodiy tizim elementlari ma'lum bir darajada kirib kelar ekan, qaysiki iqtisodiy rivojlanish yo'lini o'zlari uchun ko'proq manfaatli deb bilmasinlar (sof bozor iqtisodiy tizimi yoxud ma'muriy - buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiy tizim), bu ularning tub ijtimoiy manfaatlariga zid kelmasligiga asoslangan holda yashaydilar.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda iqtisodiyot nazariyasi (jumladan mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot) uchun standart hisoblangan dialektika va mantiqning uslub va tamoyillari qo'llaniladiki, bunday umumiy uslub va tamoyillarga: abstraktlashtirish (mavhumlashtirish), ya'ni iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tadqiq etish va tushuntirishda modellarni qo'llash; deduksiya va induksiya usullari yoki ularni birgalikda qo'llash, normativ va pozitiv tahlilni qo'shib olib borish,

⁵ T.Z.Teshabayev, Z.M.Otaqoziyeva, Makroiqtisodiyot. Ma'ruzalar matni. T.: TATU, 2015

umumlashtirish, «boshqa omillar o'zgarmas bo'lganda» tamoyillaridan foydalanish, iqtisodiy agentlarning ratsional harakatlari tahmini va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Modellashtirish yoki abstraktlashtirish makroiqtisodiy tahlilning asosiy uslubi hisoblanadi va shuning uchun barcha makroiqtisodiy jarayonlar modellar orqali o'rganiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga budjet mo'ljallari to'g'risida"gi 2018 yil 26 dekabrda Qarorining asosiy mazmuni nimalardan iborat?
2. Makroiqtisodiyot sub'ektlari orasida davlatning roli qanday?
3. Agregat ko'rsatkichlar deganda nimani tushunasiz? Makroiqtisodiy tahlilda agregat ko'rsatkichlardan foydalanish zaruriyati nima uchun yuzaga keladi?
4. Makroiqtisodiy darajada ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ini tushuntiring.

3.1. Ekonometrik modellar to'g'risida tushuncha

Ekonometrika iqtisodiyot va matematika fanlari tomonidan erishilgan nazariy yutuqlarni amaliy faoliyatda qo'llash asosida shakllangan fandır.

Iqtisodiyotning talablariga mos ravishda matematik usullar rivojlangan bo'lsa, matematika kirib borgan soha o'z masala va muammolariga aniq va to'g'ri javob olgan hamda rivojlangan.

Ekonometrik modellar yordamida quyidagilarni amalga oshiriladi:

- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ularning o'zaro bog'lanishining miqdoriy tomonlarini o'rganish;

- biznes-rejalarni ilmiy asoslash va ularning bajarilishini ob'ektiv baholash;

- iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini miqdoriy baholash;

- xo'jalikning rivojlanish tendensiyalari va proporsiyalarini ochib berish, foydalanilmagan ichki imkoniyatlar va zahiralarni aniqlash;

- ilmiy asoslangan prognozlarni ishlab chiqish;

- milliy iqtisodiyotning tarmoqlari va sohalari asosiy ko'rsatkichlarining istiqboldagi holatini aniqlash va baholash;

- ilg'or tajribalardan foydalanish va optimal boshqarish qarorlarini qabul qilish.

Iqtisodiy jarayonlarini o'rganish alohida xo'jalik elementlari, faktlar, hodisa va holatlarni kuzatishdan boshlanadi va ular birgalikda xo'jalik jarayonini, xo'jalik faoliyati mazmunini u yoki bu boshqarish tizimida ifodalaydi.

3.2. Statistika ma'lumotlar asosida tuzilgan tenglamalar tizimi

Ekonometrik tenglamalar tizimi uch xilga bo'linadi:

a) tizimga bir-biri bilan bog'lanmagan tenglamalar kiradi. Har biri alohida yechilib, umumiy iqtisodiy-matematik modelning bir qismi bo'lib qoladi;

b) tizimga bir-biri bilan bog'langan statistik xususiyatga ega bo'lgan tenglamalar kiradi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulotga ishchilar soni va asosiy fondlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'z navbatida, ishchilar soni aholi soni bilan va asosiy fondlar miqdori kapital qo'yilmalar bilan

bog‘langan. Buning natijasida ekonometrik tenglamalar tizimi quyidagi ko‘rinishda yozilishi mumkin:

$$Y = f(\text{OPF}, \text{PPP})$$

$$\text{RRR} = f(L)$$

$$\text{OPF} = f(\text{KK}).$$

Bu erda Y - asosiy ko‘rsatkich,

RRR - ishchilar soni,

OPF - asosiy fondlar hajmi,

L - aholi soni,

KK - kapital qo‘yilmalar.

v) tizimga dinamik xususiyatga ega bo‘lgan tenglamalar kiradi. Bu tizimga kiradigan tenglamalar faqatgina har biri vaqt davrida bog‘lanish borligini aniqlamasdan, ilgari bo‘lgan omillararo bog‘lanish borligini ham tahlil qilish mumkin.

Masalan, bir jarayonni tahlil etish va uning asosiy ko‘rsatkichlarini prognoz davriga hisoblash uchun berilgan ma‘lumotlar asosida, ya‘ni yalpi mahsulot (VAL), ishchilar soni (RRR), asosiy fondlar (OPF), ish xaqi fondi (ZAR), kapital qo‘yilmalar (KV), har yili ishga kiritiladigan asosiy fondlar (OWF) kabi ko‘rsatkichlarni tenglamalar tizimi orqali yozib chiqamiz:

$$\text{VAL} = f(\text{OPF}, \text{PPP}) \quad (1)$$

$$\text{PPP} = f(\text{VAL}, \text{ZAR}) \quad (2)$$

$$\text{ZAR} = f(\text{VAL}, \text{KV}) \quad (3)$$

$$\text{OWF} = f(\text{KV}, \text{OPF}) \quad (4)$$

$$\text{OPF} = f(\text{OPF}(-1), \text{KV}) \quad (5)$$

$$\text{KV} = f(\text{FN}) \quad (6)$$

$$\text{FN} = f(\text{ND}) \quad (7)$$

YUqorida keltirilgan tenglamalar tizimi bir biri bilan bog‘lanib, ketma-ket hisoblanadi, ya‘ni (7) tenglama echilib, uning natijalari omil sifatida (6) tenglamada kapital quyilmalarni hisoblash uchun ishlatiladi. O‘z vaqtida (6) tenglamaning natijalari (5) tenglamani yechish uchun ishlatiladi.

3.3. Eng kichik kvadrat usuli

Mezon: haqiqiy miqdorlarning tekislangan miqdorlardan farqining kvadratlari yig‘indisi eng kam bo‘lishi zarur.

$$S = \sum \left(Y_t - \hat{Y}_t \right)^2 \rightarrow \min$$

Misol: chizikli funksiya bo‘yicha tekislanganda

$$\hat{Y} = a_0 + a_1 X$$

$$S = \sum (Y - a_0 - a_1 X)^2 \rightarrow \min$$

$$\begin{cases} \frac{\partial S}{\partial a_0} = \sum 2(Y - a_0 - a_1 X) \cdot (-1) = 0 \\ \frac{\partial S}{\partial a_1} = \sum 2(Y - a_0 - a_1 X) \cdot (-X) = 0 \end{cases}$$

Bundan,

$$\begin{cases} \sum y - n \cdot a_0 - a_1 \sum X = 0 \\ \sum y \cdot X - a_0 \sum X - a_1 \sum X^2 = 0 \end{cases}$$

$$\begin{cases} n \cdot a_0 + a_1 \sum X = \sum y \\ a_0 \sum X + a_1 \sum X^2 = \sum y \cdot X \end{cases}$$

3.4. Prognozlashning adekvatligi, ishonchliligi va sifati

Korrelyasion-regerSSION tahlil asosida olingan ekonometrik modellarning ishonchliligini har tomonlama tekshirish va baholash lozim.

Tuzilgan ekonometrik modellarning ahamiyatliligi, ishonchliligi va keyinchalik prognozlashda qo'llash mumkinligi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- ekonometrik modellar ahamiyatini approksimatsiya xatoligi va Fisher mezoni yordamida baholash;
- ekonometrik modellar sifatini ko'p omilli korrelyasiya koeffitsienti va determinatsiya koeffitsienti yordamida baholash;
- ekonometrik model parametrlari ishonchliligini Styudent mezoni bo'yicha baholash;
- Darbin-Uotson mezoni yordamida "Eng kichik kvadratlar usuli"ning bajarilish shartlarini tekshirish.
- Ekonometrik modellar sifati va ahamiyatini approksimatsiya xatoligi va Fisher mezoni yordamida baholash mumkin. Approksimatsiya xatoligini hisoblash formulasi:

$$\varepsilon = \frac{1}{n} \sum \left| \frac{y_i - \hat{y}}{y_i} \right| * 100\%$$

n - kuzatuvlar soni;

y - asosiy omilning haqiqiy qiymatlari

\hat{y} - asosiy omilning tekislangan qiymatlari

Approksimatsiya xatoligi 10% gacha qabul qilinadi.

Fisher mezoni yordamida to'liq modelning adekvatligini, ya'ni real iqtisodiy jarayonga mosligini tekshirish mumkin:

$$F_{xuc} = \frac{R^2(n-m-1)}{(1-R^2)m}$$

n - kuzatuvlar soni

m - modeldagi ta'sir etuvchi omillar soni

R - ko'p omilli korrelyasiya koeffitsienti.

Hisoblangan Fisher mezoni jadvaldagi qiymat bilan solishtiriladi. Jadvaldagi Fisher koeffitsientini topish uchun $k1$ kator va $k2$ ustunni aniqlash zarur,

$k1=n-m-1$ va $k2=m$. Agar $F_{xuc} > F_{жадав}$ bo'lsa, model ahamiyatli, ya'ni regressiya tenglamasi turi to'g'ri aniqlangan deb hisoblanadi.

Avtokorrelyasiya- bu keyingi darajalar bilan oldingilari o'rtasidagi yoki haqiqiy darajalari bilan tegishli tekislangan qiymatlari o'rtasidagi farqlar orasidagi korrelyasiyadir.

Avtokorrelyasiya mavjudligini tekshirishda Darbin – Uotson mezoni qo'llanadi:

$$DW = \frac{\sum_{i=1}^{n-1} (Y_i - Y_{i-1})^2}{\sum_{i=1}^{n-1} Y_i^2}$$

DW mezonning mumkin bo'lgan qiymatlari 0–4 oraliqda yotadi. Agar qator avtokorrelyasiya bo'lmasa, uning qiymatlari 2 atrofida tebranadi. Hisoblab topilgan haqiqiy qiymatlari jadvaldagi kritik qiymat bilan taqqoslanadi.

Agarda $DW_{haq} < DW_{past}$ bo'lsa, qator avtokorrelyasiyaga ega; $DW_{haq} > DW_{yuqori}$ bo'lsa u avtokorrelyasiyaga ega emas; Bu erda DW_{past} va DW_{yuqori} – mezonning quyi va yuqori chegaralari.

Ekonometrik model parametrlarining ishonchliligini Styudent mezoni bo'yicha baholash

a) korrelyasiya koeffitsientining ahamiyatligi tekshiriladi:

$$t_R = \frac{R\sqrt{n-k-1}}{1-R^2}$$

R - oddiy korrelyasiya koeffitsienti

n - kuzatuvlar soni

Agar $t_{xuc} > t_{\text{жадв}}$ bo'lsa, unda korrelyasiya koeffitsienti ahamiyatli deb hisoblanadi.

b) regressiya tenglamasining koeffitsientlari ishonchliligini baholaydi:

$$t_{xuc} = \frac{a_i}{S_{a_i}} \quad S_{a_i} = \frac{\sigma_y \sqrt{1-R^2}}{\sigma_x \sqrt{n}}$$

- regressiya tenglamasining koeffitsienti;

S_{a_i} - a_i koeffitsient uchun standart xatosi.

Agar $t_{xuc} > t_{\text{жадв}}$ bo'lsa unda regressiya tenglamasining koeffitsienti ishonchli deb hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

Ekonometrik modellar yordamida quyidagilarni amalga oshiriladi:

- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ularning o'zaro bog'lanishining miqdoriy tomonlarini o'rganish;
- biznes-rejalarni ilmiy asoslash va ularning bajarilishini ob'ektiv baholash;
- iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini miqdoriy baholash;
- xo'jalikning rivojlanish tendensiyalari va proporsiyalarini ochib berish, foydalanilmagan ichki imkoniyatlar va zahiralarni aniqlash;
- ilmiy asoslangan prognozlarni ishlab chiqish;
- milliy iqtisodiyotning tarmoqlari va sohalari asosiy ko'rsatkichlarining istiqboldagi holatini aniqlash va baholash;
- ilg'or tajribalardan foydalanish va optimal boshqarish qarorlarini qabul qilish.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalari amalga oshirilishi samaradorligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas’uliyatini oshirishga doir birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 28 yanvardagi Farmonining asosiy mazmuni nimalardan iborat?
2. Stata12 dasturidan makroiqtisodiy tahlilda foydalanishning afzalliklari.
3. Funktsional va statistik bog‘liqliklar deganda nimani tushunasiz?
4. Yalpi korrelatsion-regression tahlilni o‘tkazish bosqichlari nimalardan iborat?
5. Regression tahlil nimani aniqlashdan iborat?

4.1. Iqtisodiyotning real sektori tushunchasining mohiyati va uning makroiqtisodiy o'lchamlari

Milliy hisoblar tizimi ijtimoiy soha va iqtisodiyot, jamiyatdagi institutsional sektorlar va tarmoqlar uchun ham statistik ma'lumotlarni olish va tahlil qilish imkoniyatini nazarda tutadi. U jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarni miqdoriy o'lchash, qiyosiy va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish imkonlarini yaratadi.

Milliy hisoblar tizimi (MHT) mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va boyligi ko'rsatkichlarini makroiqtisodiy darajada umumlashtirish va tahlil qilish uchun konseptual va statistik asosni yaratadi. Asosiy hisoblar ishlab chiqarish, iste'mol, sarmoyaning jamg'arilishi, daromadlarning taqsimlanishi va ulardan foydalanishni aks ettiradi. Aktivlar va passivlar balansi milliy boylukning barcha tarkibiy qismlari – nomoliyaviy, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar, tabiiy resurslar va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish imkonini beradi.

1953 yilgi MHT xalqaro darajada tan olingan dastlabki standart edi. Keyinchalik u 1968 va 1993 yillarda yangilandi. Milliy hisoblar standarti u yoki bu darajada majburiy bo'lgan shartli qoidalarni o'zida mujassam etadi. Masalan, ishlab chiqarish chegarasi to'g'risidagi qoida undan uy xo'jaliklari tomonidan o'z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan xizmatlarning ko'rsatilishini istisno etadi; o'z navbatida, aktivlar chegarasi to'g'risidagi qoida ulardan uy xo'jaliklari tomonidan ushbu xizmatlarni ko'rsatish uchun foydalaniladigan tovarlarni, hatto ulardan ko'p yillar mobaynida foydalanish mumkin bo'lsa-da, chiqarib tashlaydi. Shuningdek, aktivlar chegarasi to'g'risidagi qoida ushbu aktivlardan innovatsiya, reklama, kadrlar tayyorlash xarajatlari kabi kelgusida ulardan foyda olish kutilayotgan xarajatlarni ham chiqarib tashlaydi.

Iqtisodiyot va jamiyatning rivojlanishi bilan ilgarigi shartli qoidalar mos kelmay qoladi, metodologiya va nazariy konsepsiyalar, foydalanuvchilar ehtiyojlarida o'zgarishlar yuz beradi va shuning uchun milliy hisoblar standartlari vaqti-vaqti bilan yangilanib turishi lozim. 1993 yilda MHT tubdan yangilanganidan keyin BMT Statistika qo'mitasi kichik, lekin tez-tez yangiliklar kiritishning maqsadga muvofiqligi

to'g'risida qaror qabul qildi, lekin bu qaror amalga oshirilmadi va shuning uchun boshqa yirik yangilashni amalga oshirish zarurati tug'ildi.

Ushbu zarurat so'nggi 20 yil mobaynida iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonlarida axborot va kommunikatsion texnologiyalar rolining oshishi bilan bog'liq katta o'zgarishlar yuz berganligi, nomoddiy aktivlar va xizmatlar rolining oshganligi, milliy iqtisodiy tizimlarning globallashtirilganligi va ijtimoiy islohotlar tufayli yuzaga keldi. Mazkur o'zgarishlar tasniflash qismida ham, statistik tekshiruvlar va makroiqtisodiy statistikaning shakllantirish uchun konseptual asos sifatida foydalaniladigan nazariy qoidalarda ham statistik ma'lumotlarni shakllantirish sohasidagi tuzatishlarni talab qiladi.

1993 yilgi MHTni yangilash jarayoni rasman 2009 yilning mart oyida nihoyasiga yetdi, o'shanda yangilangan versiya BMT Statistika qo'mitasi tomonidan ma'qullandi. Unga «2008 yilgi milliy hisoblar tizimi» nomini berish tavsiya etilgan.

O'zgarishlar MHTning deyarli barcha bo'limlarini qamrab oldi, lekin asosan ular nomoliyaviy aktivlar, moliyaviy xizmatlar va moliyaviy vositalar, to'lov balansi, davlat boshqaruvi sektori va davlat sektori bilan bog'liq bo'limlarda jamlangan. Boshqacha aytganda, aksariyat tavsiyalar iqtisodiyotning globallashtiruvchi, moliyaviy vositalardagi innovatsiyalar, boylik manbalariga hamda xususiy va davlat sektorining qarzigina bo'lgan qiziqishning oshishini tavsiflovchi iqtisodiy birliklarga va operatsiyalarga taalluqli. Tavsiyalar bir qismining amalga oshirilishi, ishlab chiqarish, iste'mol, jamg'arishning ayrim jihatlari aks ettirishdagi o'zgarishlar munosabati bilan tizimning yalpi ichki mahsulot (YaIM) va omonat kabi asosiy vositalarining o'zgarishiga olib keladi. Boshqa tavsiyalar asosiy ko'rsatkichlarga daxldor emas, lekin ta'riflar va tasniflarni rivojlantirib, ularga aniqliklar kiritgan.

Mamlakatni jahondagi o'rnini real sektorning rivojlanish darajasi va raqobatdoshligi belgilaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotni real sektoriga turlicha ta'rif beriladi va quyida ularning bir nechtasi keltirilgan.

1. Iqtisodiyotning real sektori (IRS) (inglizcha – Real sector of economy) – iqtisodiy va qonuniy belgilanmagan iqtisodiy atama hisoblanadi va ma'lum hududdagi faoliyati mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kichik, o'rta va yirik (industrial) korxonalarni birlashtiradigan iqtisodiyot sohasidir.

2. Iqtisodiyot real sektori – bu iqtisodiyotning yirik tarkibiy qismi bo'lib, u turli ishlab chiqarish sohaslarini o'xshash tavsiflar, iqtisodiy

maqsadlar, funksiyalari orqali birlashtiradi va nazariy hamda amaliy jihatdan iqtisodiyotni boshqa qismlaridan farq qiladi.

3. Iqtisodiyotning real sektori – bu iqtisodiyotni material-buyum mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, nomaterial boylikni yaratuvchi va xizmat ko‘rsatish sohasini o‘z ichiga oladigan soha. Real sektorga moliya-kredit, birja faoliyati kirmaydi⁶.

4. Iqtisodiyotni real sektori kapitalni spekulyativ harakati istisno qilgan holda iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurish va iqtisodiy o‘shirish jarayonlarini birlashtiradigan soha.

5. Iqtisodiyotni real sektori – bu iqtisodiyotni muhim sektori bo‘lib, to‘g‘ridan to‘g‘ri mahsulot ishlab chiqarish, daromad olish va budjet daromadlari tushumini ta‘minlaydi. Ishlab chiqarish, mahsulot ishlab chiqarish sohasi uning iqtisodiy atama sifatidagi sinonimlari hisoblanadi.

6. Iqtisodiyotni real sektori – kommersiyaga asoslangan seriyali va yirik miqdorda mahsulot va tovarlar ishlab chiqaruvchi, jumladan, bino va inshootlarni qurish, aloqa, telekommunikatsiya, transport xizmatini amalga oshiruvchi kichik, o‘rta va yirik korxonalar yig‘indisidir.

7. Iqtisodiyotning real sektori - iqtisodiyotning bevosita moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq sohasi bo‘lib, u o‘z ichiga sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini oladi⁷.

Iqtisodiyotda real sektorni samarali faoliyat yuritishida moliyaviy sektor muhim o‘rin egallaydi.

Moliyaviy sektor – bu qarz olish va uni qaytarish bilan bog‘liq bo‘lgan amaliyotni ijro qiladigan vositalar va institutlar to‘plamidir. Moliyaviy tizim mulk egaligini kapitaldan ajratish imkoniyatini beradi.

Moliyaviy sektorga banklar, sug‘urta kompaniyalari, fond birjalari, moliyaviy investitsion kompaniyalar, lombardlar va boshqa moliyaviy institutlar kiritiladi.

Real sektorda YaIM ni asosiy qismi yaratiladi.

Butun real sektor iqtisodiyotining umumiy holatini tavsiflovchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar – yalpi ichki mahsulot (YaIM), sof ichki mahsulot (SIM), milliy daromad (MD) kabilar hisoblanadi⁸.

⁶ Комов А. Анализ системы кредитования реального сектора экономики России в 1 полугодии 2004 г. Русское Экономическое Общество. 2004. №141. С. 7-8.

⁷ I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” va “Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirishdir” nomli ma‘ruzalarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. – 2010. 60-bet.

⁸ Real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlash. -R. Xasanov, X.Asatullayev, A. Suvonqulov, X.Xakimov.Toshkent“IQTISOD-MOLIYA” 2013. 17 B.

Bu ko'rsatkichlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi barcha xo'jaliklar iqtisodiy faoliyatining umumiy va pirovard natijalarini qamrab oladi.

Shu sababli, real sektordagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni milliy iqtisodiyot holatiga bog'liq ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Bular mamlakatning iqtisodiy resurs salohiyatini, yerosti va yerusti boyliklari zaxiralari hamda tabiiy resurslari hajmini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

2. Milliy iqtisodiyot faoliyat qilishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Bular bandlik, ishsizlik, inflatsiya, iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar darajasi, narxlar darajasi va uning o'zgarishi, savdo aylanmasi, to'lov balansi holati va boshqalar.

3. Milliy iqtisodiyot faoliyatining natijalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Ishlab chiqarishning yillik hajmi (YaIM va uning harakat shakllari).

4. Milliy iqtisodiyot natijalaridan foydalanish holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Bular YaIM da iste'mol va jamg'arma nisbati, ish haqi va boshqa omilli daromadlar darajasi, YaIM da investitsiyalar ulushi va boshqalar.

4. 2. Iqtisodiyotning real sektori tarkibiy tuzilishining mohiyati va tasnifi

Iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlari tarkibi mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishining asosini tashkil etadi. Iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlarida iqtisodiy vaziyatni aniq tasavvur qilish, uning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini hisobga olish muhim iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatga ega.

Real sektor iqtisodiyoti tarkibi – bu milliy iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar ko'rsatuvchi turli tarmoq va sohalar yig'indisidan iborat bo'lib, ular o'zaro aloqada va bog'liqlikda iqtisodiy faoliyatda bo'ladilar. Real sektor iqtisodiyoti ichki va tashqi bozorga ne'matlar ishlab chiqaruvchi, zamon va bozor talabidagi o'zgarishlarga nisbatan moslanuvchan iqtisodiy subyektlar faoliyati yig'indisidan iboratdir.

Iqtisodiyotni real sektoriga mahsulot ishlab chiqarish bilan, nomoddiy boylik yaratish va xizmat ko'rsatish sohaları ham kiritiladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab real sektor infratuzilmasida katta o'zgarishlar ro'y berdi.

Mamlakat milliy iqtisodiyoti moddiy ishlab chiqarish sohalari va bozor xizmat ko'rsatish sohalaridan tarkib topadi. Iqtisodiyotning real sektoriga quyidagi moddiy va nomoddiy boyliklar yaratish hamda xizmatlar ko'rsatish sohalari kiradi:

- sanoat;
- qishloq xo'jaligi;
- qurilish;
- transport va aloqa;
- boshqa xizmat ko'rsatish sohalari.

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri hisoblanadi va iqtisodiyotning barcha sohalariga sezilarli ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi – bu bir tomondan aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarining assortimenti bo'lsa, ikkinchi tomondan tashkilotlar va yakka ijrochilar majmuasi bo'lib, ular xizmat ko'rsatish faoliyati doirasida iste'molchilarga moddiy va ijtimoiy-madaniy xizmatlarni ko'rsatishadi.

Xizmatlar sohasi tarkibida yetakchi o'rinlarni transport xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, savdo xizmatlari, mehmonxona va turistik-ekskursiya xizmatlari egallaydi. Bulardan tashqari xizmat ko'rsatish sohasi tarkibiga kommunal xizmatlar, maishiy xizmatlar, avtomobillarni ta'mirlash xizmatlari, tibbiy xizmatlar va boshqa xizmatlar ham kiradi. Shuningdek xizmat ko'rsatish sohasi tarkibida bank, moliya va sug'urta xizmatlari ham salmoqli o'rin egallaydi, lekin ular iqtisodiyotning moliyaviy sektoriga taalluqlidir

4. 3. Real sektor tarkibiy tuzilishini takomillashtirish va unga ta'sir etuvchi omillar

Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish – bu milliy manfaatlarni ta'minlovchi, iqtisodiy o'sishga yo'l beruvchi va nihoyat, aholi farovonligini muttasil oshib borishini ta'minlovchi yangicha ishlab chiqarish tuzilmasini yaratishdir. Chunki tarkibiy tuzilishda chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning, istiqbolda O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishini va aholi farovonligini ta'minlashning, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishning eng asosiy shartlaridan biridir.

Tarkibiy o'zgartirishlar uzluksiz yuz beradi, ularni rag'batlantirish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishi bo'lib qoladi. Hozirgi davr yangi texnologiya asri sifatida yangi tarkibiy o'zgartirishlarni yuzaga keltiradi.

Shu bois tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash islohotlarni chuqurlashtirishning muhim jihati deb baholash zarur.

Iqtisodiyot real sektori tarkibini o'zgartirish butun milliy iqtisodiyotga xizmat qiladi va texnik taraqqiyotni ta'minlaydi. O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish davlatning ko'magida rivoj topadi. Chunki, bu tarmoqlarni yirik sarmoyalar hisobidagina rivojlantirish mumkin. Shuning uchun yirik tarmoqlarga investitsiyalarni davlat yo'naltiradi va shu boisdan tarmoqlar boshqalarga nisbatan jadal o'sib boradi. Muhim tomoni shundaki, iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy shartidir.

Iqtisodiyot real sektori tarkibini o'zgartirish boshqa sohalarning ham o'sishiga olib keladi. Masalan, neft mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi neft-gaz sohasining rivojlanishi bilan birgalikda, kimyo sanoati tarmoqlarining ham rivojlanishiga zamin yaratiladi. Bu nafaqat energiya manbalarini eksport qilish imkonini beradi, balki turli kimyoviy xomashyo moddalari va tayyor mahsulotlarni eksportga yo'naltirishga imkon yaratadi.

Iqtisodiyot real sektori tarkibini o'zgartirish mamlakat eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Tarmoqlar rivojida yangi davr boshlanadiki, bu soha korxonalari ham bozor mexanizmi asosida rivojlanadi, o'z-o'zini moliyalashtirish qoidasi amal qiladi, chunki iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'liga aytilgan tarmoqlar ham tortiladi.

Real sektordagi iqtisodiy vaziyatni baholash integrallashgan hisob-kitoblar asosida quyidagi 3 ta yo'nalishni qamrab oladi:

- 1)Rivojlanish istiqbollari;
- 2)Faoliyat samaradorligi;
- 3)Investitsion xatarlar.

Real sektor rivojiga ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, pul-kredit tizimi holati, soliq-budjet tizimi, davlatning investitsion siyosati, mamlakatning to'lov qobiliyati holati ta'sir qiladi.

Real sektor rivojini, natijada iqtisodiy o'sishni moddiy ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilashga yo'naltirilgan to'g'ridan to'g'ri kapital qo'yilmalar miqdori hamda innovatsiyalar ta'minlaydi.

Bundan tashqari, bozor iqtisodiyoti sharoitida real sektorga mamlakatning moliyaviy sektori holati ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, foiz stavkalari darajasi, fond birjalari, sug'urta tizimi va boshqalar.

4. 4. Milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Yalpi ichki mahsulot va uni hisoblashning usullari. Makroiqtisodiy tahlilda statistika va milliy hisobchilik tizimida qo'llaniladigan ko'pgina iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Milliy hisobchilik tizimi doirasida ba'zi bir asosiy statistik agregatlardan iqtisodiy faollikni makrodarajada o'rganish uchun keng qo'llaniladi.

Milliy ishlab chiqarish hajmini belgilab beradigan va mamlakat darajasida iqtisodiy faoliyat natijalarini baholaydigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich – bu yalpi ichki mahsulot (YaIM) dir. Uning dinamikasi milliy iqtisodiyot qanday darajada rivojlanayotganligini, ya'ni hukumat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatga doir chora-tadbirlar qanchalik samarali ekanligini baholash uchun ishlatiladi.

Yalpi ichki mahsulot (Gross Domestic Product - GDP) deganda, yil davomida iqtisodiyotda (mamlakat ichkarisida) ishlab chiqarilgan barcha pirovard tovar va xizmatlarning umumiy bozor qiymatiga aytiladi.

YaIMni hisoblashning usullari.

YaIM ni hisoblashda 3 xil usulni qo'llash mumkin:

- *xarajatlar usuli* (oxirgi ishlatilishi bo'yicha hisoblash usuli);
- *daromadlar usuli* (taqsimlash usuli);
- *qo'shilgan qiymat bo'yicha hisoblash usuli* (ishlab chiqarish usuli).

Yuqorida aytilganidek, yalpi mahsulotning MHTdagi asosiy ko'rsatkichlari bular:

- ✓ yalpi ichki mahsulot (**YaIM**);
- ✓ yalpi milliy daromad (**YaMD**);
- ✓ sof ichki mahsulot (**SIM**).

Yalpi daromadning MHTdagi asosiy ko'rsatkichlari esa:

- ✓ milliy daromad (**MD**);
- ✓ shaxsiy daromad (**ShD**);
- ✓ ixtiyordagi shaxsiy daromad (**IShD**).

4. 1-jadval

MHT da hisoblanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro nisbati⁹

Ko'rsatkichlar	Shartli belgilar	Miqdor
1	2	3
1. Yalpi ichki mahsulot - amortizatsiya	YaIM A	100 12
2. Sof ichki mahsulot - biznesdagi egri soliqlar	SIM t	88 5
3. Milliy daromad - ijtimoiy sug'urta to'lovlari; - korporatsiya daromadlariga soliqlar; - korporatsiyalarning taqsimlanmaydigan daromadlari; + transfert to'lovlari	MD IST KDS KTD TR	83 8 3 2 18
4. Shaxsiy daromad - individual soliqlar	ShD IS	88 10
5. Ixtiyordagi shaxsiy daromad	IShD	78

MHTning barcha asosiy ko'rsatkichlari yil davomida iqtisodiy faoliyatning natijalarini joriy yil narxlarida aks ettiradi va shuning uchun ular nominal ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ammo nominal ko'rsatkichlardan o'zaro mamlakatlar yoki bitta mamlakatning turli davrlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini qiyoslash uchun foydalanish mushkul, chunki ular narxlar darajasi ta'siri ostida bo'ladi. Bunday qiyoslashni faqatgina o'zgarmas (solishtirma yoki bazis) narxlarda hisoblangan real ko'rsatkichlar (ishlab chiqarishning real hajmi va daromadning real darajasi) orqali amalga oshirish mumkin bo'ladi. Shu sababli nominal va real (narx darajasi o'zgarishidan xolos bo'lgan) ko'rsatkichlarni alohida o'rganish va ularni tushunib olish muhim ahamiyatga ega.

Nominal YaIM – bu joriy narxlarda, ya'ni ushbu yil narxlarida hisoblangan ko'rsatkich bo'lib, u qiymat ko'rsatkichi hisoblanadi va shuning uchun narxlar darajasining o'zgarishi uning kattaligiga ta'sir ko'rsatadi.

Nominal YaIMga ikkita omil ta'sir ko'rsatadi:

- 1) ishlab chiqarish real hajmining o'zgarishi;
- 2) narxlar darajasining o'zgarishi.

⁹ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

Real YaIMni hisoblash uchun esa nominal YaIMni unga ta'sir etuvchi narxlar darajasidan «xolos etish» lozim bo'ladi.

Real YaIM – bu qiyosiy narxlarda, ya'ni o'zgarmas yoki bazis yil narxlarida hisoblangan yalpi ichki mahsulotdir. Bunda bazis yil qilib istalgan yilni olish mumkin, ya'ni tanlangan bazis yil joriy yildan oldin ham, undan keyin ham bo'lishi mumkin (masalan, 2000 yil uchun real YaIMni hisoblash uchun 2018 yil narxlari bazis yil qilib olinishi mumkin yoki aksincha. 2018 yil uchun 2000 yil narxlari bazis yil deb qabul qilinadi). Shunday qilib, real YaIM quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Real YaIM} = (\text{Nominal YaIM} / \text{YaIM deflatori}) \times 100\%$$

4. 5. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashning murakkabliklari. Milliy farovonlikni baholashning muammolari

MHTdagi ko'rsatkichlar yalpi mahsulot va yalpi daromadni faqatgina miqdor jihatdan hisoblab beruvchi ko'rsatkichlar hisoblanib, ular bir qator kamchiliklardan holi emas. Masalan, ular ilmiy-texnik taraqqiyot va iqtisodiy o'sishning salbiy jihatlarini hisobga olmaydilar, bundan tashqari YaIM va MD ko'rsatkichiga nisbatan kamroq darajada ortadigan *farovonlik, hayot sifati darajasini* aks ettirmaydi. Farovonlik darajasini aniqlashda odatda a) aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM (GDP per capita), ya'ni $YaIM / \text{mamlakatdagi aholi soni}$; yoki b) aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi MD (NI per capita), ya'ni $MD / \text{mamlakatdagi aholi soni}$ ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Mamlakatlarni o'zaro ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha qiyoslash uchun ularni nisbatan qat'iy valutada, ya'ni AQSh dollarida hisoblash amaliyotda keng tarqalgan.

Ammo ushbu yuqorida keltirib o'tilgan ko'rsatkichlar ham mukammal hisoblanmaydi va hayot sifati darajasini aniq belgilab bera olmaydi. *Ularning asosiy kamchiliklari:*

a) ular o'rtacha tenglashtirilgan (agarda bitta kishida ikkita avtomobil, ikkinchi bir kishida umuman avtomobil bo'lmasa, u holda har birida o'rtacha bittadan mavjud deb hisoblanadi);

b) ular farovonlik darajasining ko'pgina sifat jihatlarini hisobga olmaydi (bir xil kattalikdagi MDga ega ikki mamlakat turlicha: savodxonlik darajasi, umr kechirishining davomiyligiga ko'ra, salomatlik va o'lim darajasi, jinoyatchilik darajasi va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha farqlanishi mumkin);

v) ular dollarning turli mamlakatlar uchun turlicha sotib olish qobiliyatiga ega ekanligini rad etadi (1 dollarga AQShda va masalan, Hindistonda turli hajmdagi tovarlarni xarid qilish mumkin);

g) ular iqtisodiy o'sishning salbiy oqibatlarini hisobga olmaydi (atrof-muhit ifloslanish darajasi, shovqin, gazlar bilan ifloslanganlik darajasi va boshqalar).

Qisqacha xulosalar

Milliy hisoblar tizimi (MHT) mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va boyligi ko'rsatkichlarini makroiqtisodiy darajada umumlashtirish va tahlil qilish uchun konseptual va statistik asosni yaratadi. Asosiy hisoblar ishlab chiqarish, iste'mol, sarmoyaning jamg'arilishi, daromadlarning taqsimlanishi va ulardan foydalanishni aks ettiradi. Aktivlar va passivlar balansi milliy boylikning barcha tarkibiy qismlari – nomoliyaviy, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar, tabiiy resurslar va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish imkonini beradi.

1993 yilgi MHTni yangilash jarayoni rasman 2009 yilning mart oyida nihoyasiga yetdi, o'shanda yangilangan versiya BMT Statistika qo'mitasi tomonidan ma'qullandi. Unga «2008 yilgi milliy hisoblar tizimi» nomini berish tavsiya etilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 5 fevraldagi Qarorining asosiy mazmuni nimalardan iborat?
2. Qo'shilgan qiymat, yakuniy mahsulot, oraliq mahsulot ko'rsatkichlarini tavsiflab bering.
3. O'zbekiston Respublikasida YaIMning ishlab chiqarish strukturasi tahliliy sharh bering.
4. Baholar indekslarini va real YaIM ni hisoblash zaruratini asoslab bering?
5. AD-AS modelidagi makroiqtisodiy muvozanat holatini va uning shartlarini tushuntiring.

5-BOB.	MAKROIQTISODIY TAHLIL NATIJALARIDAN BOSHQARUV VA TASHKILY TUZILMADA FOYDALANISH YO‘LLARI
---------------	---

5.1. Samarali boshqarish muammolari

Iqtisodiy tizimni boshqarishdan maqsad o‘zgaruvchan sharoitda faoliyat ko‘rsatayotgan ob‘ektning oldiga qo‘yilgan maqsadiga erishishni ta‘minlashdan iboratdir. Bu o‘z navbatida ob‘ektning kerakli tuzilmasini yaratish va uning faoliyat ko‘rsatishini tashkil qilishdan iboratdir.

Iqtisodiy ob‘ektning tuzilmasini va uning qanday faoliyat ko‘rsatishini boshqaruv tizimi aniqlaydi.

Iqtisodiy ob‘ektni tashkil qilishda uning boshqaruv sohasi-boshqarilish ob‘ekti (BO), boshqariluvchi elementlarining to‘plami – boshqariluvchi tizim (BT) bo‘ladi. BO va BT o‘z faoliyatlarini birgalikda axborot bog‘liqliklari orqali amalga oshiradi.

Boshqarish jarayoni o‘zaro yaqin bog‘langan ikki bosqichdan iboratdir. Birinchisi boshqarish dasturini yaratish va ikkinchisi boshqarishni amalga oshirish.

Iqtisodiy ob‘ektning murakkab dinamik tizimi ierarxik ko‘rinishda bo‘ladi. Iqtisodiy tizimlarni boshqarishda ikki turdagi modellar mavjud:

a) boshqariladigan ob‘ekt modeli. Bu model mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash va iste‘mol qilishni ifodalaydi;

b) boshqaruv jarayoni modeli, bu axborotlar xarakati va ularni qayta ishlash asosida qarorlar qabul qilishdan iboratdir.

5.2. Modellashtirishning boshqarishda qo‘llanilishi

Iqtisodiy tahlil etishda iqtisodiy-matematik modellashtirishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1) korxonaning biznes-rejalari va normativlarini ilmiy-iqtisodiy asoslash;

2) biznes-rejalarni bajarilishini ob‘ektiv va har tomonlama o‘rganish va normativlarga rioya qilish;

3) mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan foydalanishni iqtisodiy samarasini aniqlash;

4) tijorat hisobi talablarini amalga oshirishni nazorat qilish;

5) ichki imkoniyatlarni axtarib topish va baholash bilan xo‘jalikni rivojlantirish tendensiyalari va nisbatlarini aniqlash;

6) ilg‘or tajribalarni umumlashtirish bilan boshqarish qarorlarini optimalligini tekshirish.

Yuqorida keltirilgan vazifalar xo‘jalik holatlarining ko‘pqirrali va ko‘pvariantli ekanligini ko‘zda tutgan holda o‘zgarishlari ham mumkinligini bildiradi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyotini tahlil etish modellari fanining oldida yangi vazifalarni belgilab berishlari mumkin, chunki iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar tez o‘tib, o‘zgarib boradi.

Iqtisodiy-matematik usullar va modellardan keng foydalanish iqtisodiy tahlil yo‘nalishlarini takomillashtiradi, turli jarayonlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar, ularning o‘zgarishlarini miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan ifodalashga va o‘zgarish tendensiyalarini aniqlashga imkoniyatlar yaratib iqtisodiy tahlilning samarasini oshiradi. Buning natijasida tahlil qilish muddati kamayishi bilan iqtisodiy, tijorat faoliyatiga ta‘sir qiluvchi omillarni to‘la qamrab olish va ulardan eng asosiylarini, ta‘siri sezilarlilarini ajratib, avvalgi taqribiy hisob-kitoblarni aniq hisoblar bilan almashtirish, ko‘p o‘lchamli masalalarni tuzish va yechish, qo‘lda amalga oshiriladigan murakkab hisob-kitoblarni kompyuterlarda amalga oshirishga imkon yaratadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni o‘rganish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash fanining muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonda ikki xil belgilar yoki ko‘rsatkichlar ishtirok etadi, biri bog‘liq bo‘lmagan o‘zgaruvchilar, ikkinchisi bog‘liq o‘zgaruvchilar hisoblanadi. Birinchi turdagi belgilar boshqalariga ta‘sir etadi, ularning o‘zgarishiga sababchi bo‘ladi, shuning uchun ular omil belgilar deb yuritiladi, ikkinchi toifadagilar esa natijaviy belgilar deyiladi. Masalan, iste‘molchining daromadi ortib borishi natijasida uning tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabi oshadi. Bu bog‘lanishda talabning ortishi natijaviy belgi, unga ta‘sir etuvchi omil, ya‘ni daromad esa omil belgidir.

Iqtisodiyotni matematik usullar va modellar yordamida tahlil qilishda ishlab chiqarish jarayonlari o‘zaro birgalikda bir-birlari bilan bog‘langan holda, bir-birlarini to‘ldirib o‘rganiladi. Bunda ularni bir-birlarini bog‘lab turuvchi har qanday omillar, sabablar, asoslar, hodisalar, jarayonlar o‘rganilib chiqiladi va baholanadi. Buning uchun ular chuqur, har tomonlama, asosiy va qo‘shimcha, ahamiyatga ega bo‘lgan va ahamiyatga ega bo‘lmagan, aniqlangan va aniqlanmaydigan guruhlariga ajratiladi.

Shundan keyin, eng avvalo ishlab chiqarish jarayonlariga ta‘sir

etuvchi, ahamiyatga ega bo'lgan, asosiy va aniqlovchi omillar ta'siri o'rganiladi. Iqtisodiy jarayonlarga barcha omillarning ta'sirini o'rganish juda ham murakkab masala bo'lib amalda har doimo ularni hisobga olish zarur emas.

Korxonaning biznes-rejasini bajarilishiga samarali ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni ta'sirini o'rganish bilan birga shu ta'sirlarni baholash iqtisodiy tahlil etishda matematik modellardan foydalanishni taqozo etadi.

Iqtisodiy-matematik modellashtirishda iste'molchi, ishlab chiqaruvchi korxonalar, birlashma, assotsiatsiyalar faoliyatlaridagi ishlab chiqarish jarayonlarini, ularning faoliyatlarini ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'siri ostida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va moliyaviy natijalarini iqtisodiy-matematik modellar tizimi orqali ifodalanadi.

Turli xildagi omillar ishlab chiqarish jarayonlariga muntazam ta'sir o'tkazib, ular turli iqtisodiy qonunlarni ifodalaydilar. Masalan, modellashtirish jarayonida baho omilining ta'siri o'rganiladi. Agar iqtisodiyotda, bozorda xomashyoni, materiallarni, yarim fabrikatlarni va tayyor mahsulotlarning bahosi o'zgarsa, buning ta'siri ostida sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqa korxonalarining barcha moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi.

Korxonalar faoliyatini tahlil qilishda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanish, korxonalar iqtisodiyotini o'rganishga tizimli yondoshishni, uning turli faoliyatlari o'rtasidagi mavjud barcha o'zaro bog'lanishlarni hisobga olishni talab qiladi. Bunday sharoitlarda tahlil qilishning o'zi kibernetika nuqtai nazardan tizimli yondashishni talab qiladi; iqtisodiy tahlil yordamida yechiladigan masala va iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy xarakteristikalarini ifodalovchi iqtisodiy-matematik modellar kompleksini yaratish; korxonaning faoliyati haqidagi iqtisodiy ma'lumotlar tizimini takomillashtirish; iqtisodiy tahlil qilish uchun maqsadli iqtisodiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va yetkazib berishni amalga oshiruvchi texnik vositalarni mavjud bo'lishi; iqtisodchi-amaliyotchilardan iqtisodiy-matematik modellashtirishda matematik-hisobchilardan, operator-dasturchilardan iborat maxsus analitik guruhlar tashkil qilish; iqtisodiy tahlil qilish maqsadida tuzilgan matematik masalalar iqtisodiy-matematik usullarning biri bilan yechish mumkin.

5.3. Modellashtirish ob'ektlarining tahliliga yondashuv asoslari. Ob'ektli va funksional yondashuv

Bunda asosan ob'ekt to'g'risida quyidagilarni aniqlashimiz va tasavvur qilishimiz zarur: boshqaruv ob'ektining elementlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va faoliyat ko'rsatish usullari, boshqariladigan va boshqarilmaydigan parametrlari, moddiy – material oqimda ob'ekt elementlarining o'zaro bog'liqliklari va bu bog'liqliklar xususiyatlari, faoliyat natijasida erishilgan natijalar strukturasi va dinamikasi asosida ob'ekt strukturasi va uning faoliyat dinamikasini aniqlab olish va modellashtirishga X – ob'ektning kirishi, R – qayta ishlash yoki boshqa energiyaga almashtirish, Y – ob'ekt chiqishi shartlari asosida yondashiladi.

$$\begin{array}{ccc} \longrightarrow & & \longrightarrow \\ X & \longrightarrow [R] & \longrightarrow Y \\ \longrightarrow & & \longrightarrow \end{array}$$

Agar ikkita ob'ektlar o'rtasida qandaydir o'xshashlik mavjud bo'lsa, bu ob'ektlarning birini original va ikkinchisini esa model sifatida qarashimiz mumkin. Original sifatida qabul qilingan iqtisodiy ob'ektning vektor ko'rinishidagi $x(t)$ kirishga va vektor ko'rinishidagi $y(t)$ chiqishiga ega bo'lgan o'zgartiruvchi deb qabul qilinsa, uning ustida aktiv eksperimentlar o'tkazib, kirishdagi o'zgarishlar chiqishda qanday natija berishini oldindan aytish mumkin.

Originalning biz o'rganmoqchi bo'lgan xususiyatlarining matematik modeli harflar, sonlar, matematik belgilar asosida tuzilgan formulalar, tenglamalar yordamida beriladi va ob'ektning matematik modeli deyiladi.

Iqtisodiy ob'ektning dinamik modeli strukturali funksional model hisoblanadi. Chunki unda ob'ektning tuzilishi va funksiyasi qayd etilgan bo'ladi. Iqtisodiy ob'ektning elementlari funksiyasi uni ma'lum bir holatga olib kelish emas, balki chiqishda kerakli natijalarni olishdan iboratdir. Shuning uchun ham har bir ob'ekt elementining funksiyasi x_i ($i = \overline{1, m}$) ni y_i ($i = \overline{1, n}$) ga aylantirishdan iboratdir.

$$y = \langle R \rangle x$$

Umuman olganda iqtisodiy ob'ektning kirishi va chiqishi vaqt bo'yicha uzluksiz va diskret funksiya bo'lib, ularning o'zaro bog'liqligi uzluksiz va diskret modellar orqali ifodalanadi.

5.4. Modellashtirish ob'ektlari turlari

Har qanday ob'ektni o'rganish tizimli yondashuvni talab qiladi, uning mohiyati ob'ektni butun, ya'ni ko'rib chiqilayotgan ob'ektga nisbatan o'lchami katta bo'lgan boshqa ob'ektning bir qismi deb qarashdan iborat. Bu yondashuvning zaruriyati har qanday ob'ekt holati va rivojlanishiga bu ob'ekt faoliyat olib borayotgan muhit ta'sir etishi bilan bog'liq.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim bir butun sifatida qaraladi. Ijtimoiy tizim – bu, hayotni ta'minlash unsurlarining ijtimoiy qatlamlar hamda ijtimoiy qatlam ichidagi inson guruhlari orasida taqsimlanish xarakteridan kelib chiqqan mamlakat fuqarolari orasidagi ijtimoiy munosabatlar majmuidir.

Adabiyotlarda «jamiyat» atamasi mamlakatning sinonimi sifatida ishlatiladi. «Mamlakat» tushunchasi ishlatilganda barcha insoniy munosabatlar – siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy munosabatlarning to'plami tushuniladi; lekin «jamiyat», «jamo» atamasida asosan ijtimoiy tomonlar nazarda tutiladi. «Jamiyatni tashkil qiluvchi unsurlar – bu, insonlar, uning ijtimoiy aloqalari, harakati va o'zaro munosabati, ijtimoiy institutlar va tashkilotlar, guruhlar, me'yorlar va qadriyatlardir», deb ta'kidlanadi.

Demak, jamiyat – bu, mamlakatning tizim osti, ya'ni u ijtimoiy tizim ostiga moddiy ishlab chiqarish sohasiga kirmaydigan tarmoqlarning majmui: ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at kiradi.

Iqtisodiy tizim – jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari rivojlanish darajasiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish munosabatlarining tizimidir. Shuning uchun «feodalizm iqtisodiyoti», «kapitalizm iqtisodiyoti», «industrial yoki kapitalistik iqtisodiyot», «postindusrial yoki axborot iqtisodiyoti» tushunchalari farqlanadi.

Iqtisodiy tizim atamasi tor ma'noda mamlakat iqtisodiyoti xo'jalik hayotining tuzilmasini, tashkil etishilishini va holatini, ya'ni xo'jalik yuritish tizimini bildiradi.

Agar ijtimoiy tizim insonning ma'naviy ehtiyojini qondirishga, millat sog'lig'ini saqlashga qaratilgan bo'lsa, iqtisodiy tizim - hayotiy ne'matlarni yaratish yo'li bilan insonlarning moddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Shuning uchun iqtisodiy tizim oldida quyidagi fundamental masalalar turadi:

- jamiyatning moddiy ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun qancha tovar ishlab chiqarish va pullik xizmatlar ko'rsatish kerak ?
- eng yuqori samaradorlikka erishish uchun bu tovarlar va xizmatlarni qaysi resurslardan va qanday texnologiyada ishlab chiqarish kerak?

• ishlab chiqarilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar kim uchun mo'ljallangan?

Davlat ijtimoiy siyosatining asosiy maqsadi hayotning yuqori «sifati»ni ta'minlash, ham butun jamiyat (mamlakatning barcha fuqarolari) uchun, ham uning ayrim qatlamlari, jumladan, ijtimoiy himoyaga ob'ektiv sabablarga ko'ra muhtoj fuqarolarning hayotiy sharoitlarini yaxshilashdir.

Demak, moddiy ishlab chiqarishni modellashtirib, rejalashtirib va nihoyat boshqarib ijtimoiy masalalarni yechish kerak, aks holda ijtimoiy tanglik nafaqat iqtisodiyotning, balki butun jamiyatning, mamlakatning - «organizmi»ni buzadi.

Shunday qilib, iqtisodiy tizimni alohida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy tizimni, mamlakatning ijtimoiy va ishlab chiqarish sohalarini birgalikda ko'rib chiqish kerak.

Yuqoridagilarni hisobga olib, ijtimoiy-iqtisodiy tizimni, ijtimoiy-iqtisodiy tizimda o'zgarib, natijada ham jamiyat, ham alohida qatlamlar, aholi guruhlari va har bir insonning hayotini ta'minlaydigan moddiy, ijtimoiy va ma'naviy ne'matlar paydo bo'ladigan katta tizim sifatida tasavvur etish mumkin.

Tizimli yondashuv asosida ijtimoiy-iqtisodiy tizimga kirishda ijtimoiy-iqtisodiy tizim faoliyat olib borishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi bir nechta unsurlarni ajratish mumkin:

- jahon tizimi, uning holati, rivojlanish istiqbollari, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimiga ta'sir etuvchi asosiy tavsiflari;
- tabiiy resurslar va hayvonot dunyosining mavjudligi va sifati;
- insonlarning ma'lumot darajasi va sog'lig'i (insoniy salohiyat);
- ilmiy-texnik salohiyat (sun'iy tabiat);
- insonlar yashaydigan muhitning, atrof-muhitning holati;
- ichki va tashqi siyosiy tartiboti;
- mamlakatda hukmron ahloqning darajasi;
- diniy omil va boshqalar.

5.5. Makroiqtisodiy jarayonlarni modellashtirish

Makroiqtisodiy jarayonlar butun milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab oladi. Makroiqtisodiy jarayonlar asosan uchta katta jarayonlarni o'rganadi va tushuntirib beradi. Bular:

1. Ishsizlik.
2. Inflatsiya.

3. Iqtisodiy o'sish.

Ishchsizlik - bu mamlakat miqyosida faol, mehnatga yaroqli aholining bir qismining ish bilan band bo'lmashligini bildiradi.

Inflatsiya - mamlakat miqyosida umumiy baholarning o'sishini ko'rsatadi.

Iqtisodiy o'sish - mamlakat aholisiga yalpi ichki mahsulotning yildan-yilga ko'proq ishlab chiqarilishi tushuniladi.

Ushbu uchta ko'rsatkich makroiqtisodiy muammolar hisoblanadi. Iqtisodiyotning beqaror rivojlanishi tufayli bu muammolar vujudga keladi va ularni hal qilishning bir necha usullari mavjud.

Ushbu muammolar turli xil sharoitlar, davlatning olib borayotgan iqtisodiy siyosati, fiskal va monetar siyosat orqali vujudga kelishi mumkin.

Milliy iqtisodiyot darajasida shakllantiriladigan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish modeli o'sish sur'ati va proporsiyalarini aniqlash uchun xizmat qiladi. Iqtisodiy o'sishning bir sektorli va ikki sektorli modellarini ko'rib chiqish mumkin. Bunday modellarni yaratish uchun quyidagi belgilar qabul qilinadi.

$X(t)$ - bir yilda ishlab chiqarilgan milliy daromad;

$Y(t)$ - ishlab chiqarish sohasidagi asosiy fondlarning o'sishiga ketgan xarajatlar hamda qo'shiladigan milliy daromadning iste'mol qilinadigan qismi;

$J(t)$ - asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'sishiga kapital qo'yilmalar;

$S(t)$ - sof ishlab chiqarishga kapital qo'yilmalar normasi (hissasi).

Bunday iqtisodiy mazmunga binoan quyidagi ifodani yozish mumkin:

$$X(t) = Y(t) + J(t)$$

Jamg'arma normasi esa $S(t) = \frac{J(t)}{X(t)}$ formula bo'yicha aniqlanadi.

Qisqacha xulosalar

Agar ijtimoiy tizim insonning ma'naviy ehtiyojini qondirishga, millat sog'lig'ini saqlashga qaratilgan bo'lsa, iqtisodiy tizim - hayotiy ne'matlarni yaratish yo'li bilan insonlarning moddiy ehtiyojlarini

qondirishga qaratilgan. Shuning uchun iqtisodiy tizim oldida quyidagi fundamental masalalar turadi:

- jamiyatning moddiy ehtiyojlarini to‘laroq qondirish uchun qancha tovar ishlab chiqarish va pullik xizmatlar ko‘rsatish kerak ?
- eng yuqori samaradorlikka erishish uchun bu tovarlar va xizmatlarni qaysi resurslardan va qanday texnologiyada ishlab chiqarish kerak?
- ishlab chiqarilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar kim uchun mo‘ljallangan?

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 10 yanvardagi Farmonlarining asosiy mazmuni nimalardan iborat?
2. Makroiqtisodiy tahlildan foydalanish sohalari nimalar iborat?
3. Tizimli yondashuv nimalardan tashkil topadi?
4. Makroiqtisodiy jarayonlarda aynan qanday jarayonlar o‘rganiladi?
5. Iqtisodiyot va sanoat vazirligining vazifalari nimalardan iborat?

6.1. Makroiqtisodiy muvozanat tushunchasi

Makroiqtisodiy muvozanatga erishishni hal etish muammosi iqtisodiyotning eng muhim masalalaridan biridir. Umuman makroiqtisodiy muvozanatga erishish deganda, iqtisodiy tizimni tashkil etuvchi uning barcha tarkibiy qismlarining barqaror va o‘zaro mutanosib ravishda rivojlanishi tushuniladi.

Iqtisodiy muvozanatlik – bu makroiqtisodiy darajada jamiyat ehtiyojlariga mavjud iqtisodiy resurslar miqdori va ijtimoiy ishlab chiqarish natijalari hajmi hamda tarkibining o‘zaro mos kelishidir.

Iqtisodiy muvozanat *xususiy va umumiy* bo‘lishi mumkin.

Xususiy muvozanat – bu alohida olingan bozorlar, milliy xo‘jalikning turli xil tarmoqlari va iqtisodiy sektorlaridagi muvozatdir. *Umumiy muvozanat* – bu bir vaqtning o‘zida barcha bozorlarda muvozanat o‘rnatilishi, butun bir iqtisodiy tizimdagi muvozanat, ya’ni makroiqtisodiy muvozanatdir. Bunday makroiqtisodiy muvozanatga esa yalpi talab va yalpi taklif o‘zaro tenglashgandagina erishiladi.

Umumiy makroiqtisodiy muvozanatni aniqlashda muvozanat narxlar darajasi va milliy ishlab chiqarishning real hajmi tushunchalaridan keng foydalaniladi. Muvozanat narxlar darajasi mikroiqtisodiyotda o‘rganilgan alohida olingan tovar yoki xizmat narxidan butunlay farqli ravishda iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan millionlab tovarlarning o‘rtacha narxi bo‘lib, u agregatlangan, ya’ni umumlashtirilgan ko‘rsatkich hisoblanadi. Milliy ishlab chiqarishning real hajmi ko‘rsatkichi ham endi bir yoki bir necha tovar yoki xizmat turi bo‘yicha hisoblanmasdan, balki endi u agregatlanganligi sababli mamlakatda va uning tashqarisida milliy ishlab chiqarish omillari hisobiga ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlarni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy hodisa va jarayonlarga monistik (yagona) tarzda qaralgan mikroiqtisodiyotdan farqli o‘laroq, makroiqtisodiy hodisa va jarayonlarni o‘rganishda, shuningdek yalpi talab va taklif muvozanatini xarakterlashda ikki xil yondoshuv, ikki xil maktab ko‘rib o‘tiladi:

- **klassik maktab;**
- **keynscha maktab.**

Ular o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilar hisoblanadi: a) bozor kon'yunkturasi o'zgarishiga narxlar egiluvchanligi va ular moslashuvchanligining tezligi masalasi; b) iqtisodiyotga davlat aralashuvining zarurligi darajasi va uning dastaklari.

6.2. Makroiqtisodiy muvozanatning klassik modeli

Klassik modelga XVIII asrda asos solingan bo'lib, uni mazmunan boyitgan buyuk iqtisodchilar: A. Smit, D. Rikardo, J. -B. Sey, Dj. -S. Mill, A. Marshall, A. Pigu va boshqalardir.

Klassik modelning asosiy qoidalari quyidagilar:

- iqtisod ikki, ya'ni mustaqil bo'lgan: real va pul sektoriga bo'linadi. Bu makroiqtisodiyotda "klassik dixotomiya" tamoyili nomini olgan, ya'ni u ikkita bir-biriga parallel bo'lgan **bozorlar** (real va pul)larning o'zaro neytralligini – ya'ni bir-biriga bog'liq emasligini anglatadi.

- barcha **real bozorlar sof raqobatli** bo'lib, bu XVIII asr va butun XIX asr davriga to'g'ri keladigan iqtisodiy holatdir.

- barcha bozorlarda takomillashgan raqobat mavjud bo'lganligi sababli barcha **narxlar egiluvchan**.

- narxlar egiluvchan ekan, **bozor muvozanati bozorlarda avtomatik tarzda o'rnatiladi**, A. Smitning "ko'rinmas qo'l", ya'ni bozorlarni o'z-o'zini muvozanatga keltirish, tartibga solish (market-clearing) tamoyili amal qiladi.

- bozor muvozanati bozor mexanizmi orqali avtomatik tarzda ishga tushar ekan, u holda hech qanday tashqi kuch, tashqi agent iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda aralashmasligi lozim.

- iqtisodiyotning asosiy muammosi – bu resurslarning cheklanganligi muammosidir, shuning uchun barcha **resurslar to'la bandlik sharoitida samarali va ratsional ishlatiladi**.


- resurslarning cheklanganligi ishlab chiqarishni, ya'ni yalpi taklifni iqtisodiyotning eng asosiy muammosi qilib qo'yadi. Shuning uchun klassik model ("supply-side") iqtisodiyotni **yalpi taklif tomonidan o'rganadi**.

- resurslar cheklanganligi muammosi sekin-asta hal bo'ladi (miqdor o'sishi va sifat yaxshilanishi oqibatida). Ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va texnologik jarayon uzoq davom etadigan jarayondir. Barcha narxlar iqtisodiyotda talab va taklif nisbati o'zgarishiga javoban tez o'zgarmaydi. Shuning uchun klassik model **uzoq**

muddatni tasvirlovchi model hisoblanadi. Narxlarning absolyut egiluvchanligi va bozorlarning o‘zaro muvozanati faqatgina uzoq muddatda kuzatiladi.

Endi klassik modelda bozorlarning o‘zaro ta’sirini ko‘rib chiqaylik.

Klassik modelda yuqorida aytib o‘tganimizdek, real bozorlar uchta: *mehnat bozori, kapital bozori va tovar bozori.*



6.1-rasm. Klassik modeldagi real bozorlar¹⁰

bunda,

W – ish haqi stavkasi;

R – foiz stavkasi;

L^S – mehnat taklifi;

L^D – mehnatga bo‘lgan talab;

L_F – to‘liq bandlik;

Y – milliy ishlab chiqarish hajmi;

Y^* - potensial ishlab chiqarish darajasidagi ishlab chiqarish hajmi.

I – investitsiyalar;

S – jamg‘armalar;

R – narxlar darajasi;

AD - yalpi talab;

AS – yalpi taklif.

Klassik model xulosalaridan shuni aytish mumkinki, uzoq davom etuvchi krizislar iqtisodiyotda bo‘lishi mumkin emas, balki bu faqat vaqtinchalik nomutanosiblik (disproporsiya)lardir. Bunday nomutanosibliklar bozor mexanizmi bo‘lmish narx mexanizmi o‘zgarishi orqali asta-sekin o‘z-o‘zidan yo‘qoladi.

¹⁰ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

6.3. Keynscha makroiqtisodiy model: asosiy qonun va xulosalar

Yuqorida aytib o‘tilganidek, klassik maktab vakillarining iqtisodiy hodisa va jarayonlar haqidagi asosiy xulosalari davr sinovi (XX asrning birinchi yarmi)ga dosh bera olmadi. AQSh tarixida eng chuqur iz qoldirgan inqiroz – Buyuk Depressiyadan (1929-1933yillar) chiqib ketish yo‘llarini izlash masalasi o‘sha davrning rivojlangan davlatlari oldiga ko‘ndalang qilib quyildi.


Bu davrda ushbu mamlakatlarda ishsizlik darajasi ortdi, ishlab chiqarish sur‘atlari pasaydi va umuman iqtisodiy faollik darajasi susaydi. Masalan, AQShda bu davr ichida YaIM 30%ga kamaydi, ishsizlik darajasi 3%dan 25%ga oshdi va 1940 yilgacha o‘rtacha 19%ga teng bo‘ldi. 1931-1935 yillar ichida sof investitsiyalar manfiy bo‘ldi. Narxlar darajasining pasayishi (iste‘mol narxlari indeksi bu davrda 25%ga kamaydi) tovarlar taklifi ortiqchaligini bartaraf etmadi, chunki yalpi talab darajasi unga nisbatan ko‘proq darajada pasayib ketdi. Bir so‘z bilan aytganda, Buyuk Depressiya klassiklarning *taklif talabni keltirib chiqaradi* (Sey qonuni), degan xulosasini inkor etdi va aksincha, xarajatlar ishlab chiqarish darajasini belgilab beradi yoki bozor iqtisodiyotiga xos ichki qonuniyatlarga ko‘ra talab doimo taklifdan kam bo‘lishini belgilab berdi.

Modelning asosiy qoidalari:

- *real va pul sektorlari o‘zaro bir-birlari bilan bog‘liq.*
- *barcha bozorlarda nomukammal raqobat hukm suradi.*


Keyns fikricha, foiz stavkasi investitsiyalar va jamg‘armalar nisbati natijasida kapital bozorida shakllanmay, balki pul bozorida – pulga bo‘lgan talab va taklif nisbati natijasida o‘rnatiladi. Shuning uchun pul bozori to‘liq makroiqtisodiy bozor bo‘lib qoladi, undagi sharoitning o‘zgarishi tovarlar bozoridagi sharoitning o‘zgarishiga ta’sir etadi.

Keyns bu talqinni quyidagicha asosladi: bir xil darajadagi foiz stavkasida amaldagi investitsiyalar jamg‘armalar bilan mos tushmasligi mumkin, chunki investitsiyalar va jamg‘armalar turli iqtisodiy agentlar orqali amalga oshiriladi, bu agentlar esa (firmalar, uy xo‘jaliklari) turli maqsadlarni ko‘zlaydilar. Investitsiyalarni firmalar, jamg‘armalarni esa uy xo‘jaliklari amalga oshiradilar.



6.2.1-rasm. Keynscha modelda investitsiya va jamg'armalar¹²

R – foiz stavkasi;
S – jamg'armalar;
I - investitsiyalar;



6.2.2-rasm. Pul bozori¹¹

$(M/P)^D$ – pulga bo'lgan talab;
 $(M/P)^S$ - pulga bo'lgan taklif;
 $(M/P)_e$ – pul bozoridagi muvozanat.

Keyns bu talqinni quyidagicha asosladi: bir xil darajadagi foiz stavkasida amaldagi investitsiyalar jamg'armalar bilan mos tushmasligi mumkin, chunki investitsiyalar va jamg'armalar turli iqtisodiy agentlar orqali amalga oshiriladi, bu agentlar esa (firmalar, uy xo'jaliklari) turli maqsadlarni ko'zlaydilar. Investitsiyalarni firmalar, jamg'armalarni esa uy xo'jaliklari amalga oshiradilar.

- ***barcha bozorlarda pullar noelastik***. Xususiy sektorning xarajatlari (uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari va firmalarning investitsiya xarajatlari) potensial ishlab chiqarish hajmiga to'g'ri keladigan, ya'ni resurslarning to'liq bandlik sharoitidagi ishlab chiqarilgan hajmiga teng bo'lgandagi yalpi talab hajmini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun iqtisodiyotda yoki tovar va xizmatlarga o'zining talabini bildiruvchi, yohud xususiy sektor talabini rag'batlantirib, yalpi talabni oshiradigan qo'shimcha makroiqtisodiy agent paydo bo'lishi lozim. Bunday agent davlatdir. Shu tariqa Keyns ***davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish*** (davlat faolligi) kerakligini asoslab berdi.

- ***asosiy iqtisodiy muammo*** (resurslar bandligi to'liq bo'lmagan sharoitda) yalpi taklif muammosi bo'lmay, endi ***yalpi talab muammosi***

¹¹ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

¹² N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

hisoblandi. Keynscha model iqtisodiyotni yalpi talab tomonidan o‘rganuvchi “demand-side” modelidir.

- davlatning barqarorlik siyosati, ya’ni yalpi talabni tartibga soluvchi siyosat iqtisodiyotga qisqa muddatda ta’sir etar ekan, u holda Keynscha model *iqtisodiyotni qisqa muddatda* (“short-run” modeli) *tasvirlovchi modeldir*.

6.4. Keynscha modelda iste’mol va jamg‘arma funksiyalari.

Keynscha makroiqtisodiy modelda yalpi talab to‘rt tarkibiy qismdan iborat: *iste’mol (C)*, *xususiy investitsiyalar (I)*, *davlat xarajatlari (G)* va *sof eksport (X_n)*. Ammo ularning ichida eng asosiylari ikkita: **1) Iste’mol (C) va 2) Investitsiyalar (I)**. Zamonaviy sharoitlarda yalpi xarajatlarning asosiy (2/3) qismi *iste’mol (C)* ga to‘g‘ri keladi, shuning uchun uy xo‘jaliklarining iste’mol rejalari iqtisodiy hodisa va jarayonlarning yo‘nalishini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Narxlar darajasining noelastikligi (qattiqligi) sharoitida bunday rejalar faqatgina daromad asosida tuziladi. O‘z daromadlarini uy xo‘jaliklari ikki yo‘nalishga ajratishga moyil bo‘ladilar: **a) iste’mol (C)** va **b) jamg‘arma (S)**ga. Jamg‘armalar daromadning iste’mol xarajatlaridan ortgan qismi bo‘lganligi sababli, daromadning jamg‘arma qismi ortishi xuddi shunday kattalikdagi iste’mol qismining kamayishini bildiradi va aksincha, daromadning iste’mol qismi ortishi jamg‘arma qismining kamayishiga olib keladi.

Bundan:

$$Y = C+S$$


bunda,

Y – milliy (ixtiyordagi) daromad;

C – iste’mol;

S – jamg‘arma.

Avtonom iste’mol (C_a) uy xo‘jaliklarining joriy daromadlari nolga teng bo‘lgandagi iste’mol darajasini ko‘rsatadi va u **avtonom iste’mol** deb ataladi (chunki u daromadga bog‘liq bo‘lmaydi).



6.3-rasm. Keynsning iste'mol va jamg'arma funksiyasi¹³

Joriy daromad mavjud bo'lmaganda (yoki u mavjud bo'lib, etarli darajada bo'lmasa), uy xo'jaliklari "qarz"ga kun kechiradilar yoki ilgari to'plagan mulklari yoki jamg'armalarini sotib yashaydilar ("manfiy jamg'arma").

Keynsning jamg'arma funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$S = Y - C = Y - (C_a + MPC \times Y) = -C_a + (1 - MPC)Y = -C_a + MPS \times Y$$

ya'ni,

$$S = -C_a + MPS \times Y$$

bunda,

C – iste'mol;

MPC – iste'molga chekli moyillik;

Y – daromad;

C_a – avtonom iste'mol;

MPS – jamg'armaga chekli moyillik.

Iste'mol va jamg'armaga quyidagi omillar ta'sir etishi mumkin:

- soliqlarning ortishi iste'mol va jamg'armani kamaytiradi;
- ijtimoiy sug'urtaga to'lovlarning oshishi jamg'armalar qisqarishiga olib keladi;
- sun'iy ravishda va asossiz shov-shuv natijasida oshgan talab iste'molning keskin ortishiga sabab bo'ladi;
- bozorda taklifning ortishi jamg'armalarni kamayishiga olib keladi.

6.5. Keynscha modelda investitsiyalar funksiyasi

Keynscha modelda *investitsiyalar* – (I) yalpi talabni rag'batlantiruvchi *ikkinchi* bir asosiy omil hisoblanadi. Iqtisodiy tahlilda

¹³ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018


«investitsiya» atamasi jamg'armani yangi ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa *real aktivlarni yaratish* maqsadida ishlatilishini anglatadi. Investitsiyalar tarkibiga mashina va asbob-uskunalarni xarid qilish, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish, zahiralarni o'zgartirish uchun qilinadigan barcha xarajatlar kiritiladi. Shunisi muhimki, iqtisodchilar investitsiyalarni real aktivlarni sotib olishga qo'yilmalar bilan bir qatorda zahiralalar bilan ham bog'laydilar. Qimmatli qog'ozlar (masalan, aksiya va obligatsiyalar)ga mablag'larni sarflash *moliyaviy yoki portfel investitsiyalar* deb ataladi. Ishlab chiqarish quvvatlarini, ya'ni real aktivlarni ko'paytirishga xizmat qiladigan real investitsiyalardan farqli o'laroq, moliyaviy investitsiyalar mulkning qayta taqsimlanishini va unga egalik qilish huquqini bir sub'ektdan ikkinchisi tomon o'zgarishini bildiradi. Investitsiyalarni amalga oshirish tovarlar bozori bilan bog'liq bo'lsa, qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi moliyaviy bozor bilan bog'liqdir.

Investitsiyalar yalpi xarajatlarning tarkibiy qismi bo'lganligi sababli, ular yalpi talab o'zgarishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, jamg'armalar esa aksincha teskari yo'nalishda ta'sir etadi, ya'ni jamg'armalarning ortishi yalpi talabni kamaytiradi. Shuning uchun keynschilar iste'molga moyillikning kamayishini investitsiyalarni ko'paytirish orqali to'ldirishni taklif etadilar.

Foiz stavkasi investitsiya bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyatga egadir. Istalgan vaqtda firmalar investitsiyalarni amalga oshirishlarida muqobil qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Yuqori foiz stavkalari sharoitida kutiladigan sof foyda me'yori eng ko'p bo'lgan investitsiya loyihalari amalga oshirilsa, past foiz stavkasida ilgari foyda keltirmagan loyihalarni endilikda amalga oshirish imkoniyati tug'iladi va iqtisodiyotda investitsiyalar hajmi ortadi. Shuning uchun investitsiyalar hajmi va foiz stavkasi o'rtasida teskari funksional bog'liqlik mavjud bo'lib, uni quyidagi chizmada ko'rish mumkin.

Investitsiyalar va daromad. Investitsiyalar funksiyasini keynscha tahlilga kiritish uchun yuqorida aytib o'tilganlarning o'zi kifoya qilmaydi. Buning uchun investitsiyalar hajmining yalpi daromad miqdoriga bog'liqligini aniqlash lozim bo'ladi.

Investitsiyalar: *sof* (ishlab chiqarish hajmini oshiruvchi) va *tiklanadigan* (asosiy kapitalning emirilgan qismini qoplovchi) turlarga bo'linadi. Keyns modelida $YaIM = SIM = MD$ bo'lganligi sababli, faqat sof investitsiyalar haqida so'z yuritiladi.



6. 4-rasm. Investitsiyalar va foiz stavkasi o‘rtasidagi bog‘liqlik grafigi¹⁴

Bulardan tashqari, *avtonom* (daromad darajasiga bog‘liq bo‘lmagan – autonomous investment) va *indutsirlangan* (kattaligi daromad darajasi bilan aniqlanadigan – induced investment) investitsiyalar mavjud. Keynes o‘z tahlilida faqatgina *avtonom* investitsiyalarni ko‘rib o‘tgan.

6.6. Keynscha modelda milliy ishlab chiqarishning muvozanat hajmi


AD–AS chizmasi orqali aks ettirilgan yalpi talab va yalpi taklif grafiklari, ularning muvozanatga erishgandagi holatlari ko‘rib o‘tilgan edi. Bunday ko‘rinishdagi tahlil narxlar darajasi egiluvchan bo‘lgandagi uzoq muddatni ko‘rib o‘tgan klassik modelga xosdir. Keynscha model iqtisodiyotni qisqa muddatda ko‘rib chiqib tahlil etgan va unga narxlarning qattiq bo‘lishi xarakterli bo‘lganligi bizga ma‘lum. Shuning uchun keynscha modelni tahlil etish uchun AD-AS grafigining ilgari chizmasi endi mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Eslatib o‘tamiz, uni tasvirlashda vertikal o‘qqa narxlar darajasi, gorizontal chiziq bo‘ylab esa milliy ishlab chiqarishning real hajmi belgilangan edi.

Keynscha makroiqtisodiy modelda muvozanat o‘rnatilishini tadqiq etish uchun haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar tushunchalarini kiritish kerak bo‘ladi, ular o‘z o‘rinda o‘zaro teng bo‘lmasligi mumkin. Haqiqiy xarajatlar (E) – haqiqatda uy xo‘jaliklari (C - iste‘mol xarajatlari) va firmalar (I - investitsion xarajatlar) tomonidan qilingan xarajatlardir, ya‘ni, ikki sektorli modelda:

$$E = C + I$$

¹⁴ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

Haqiqiy xarajatlar egrisi *bissektrisa* (45° ga teng chiziq)ni aks ettiradi, chunki haqiqiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga teng bo‘lib, ushbu chiziqning har qanday nuqtasi bu shartga mos keladi. Rejalashtirilgan xarajatlar egrisi musbat qiymatga ega qiyalikni aks ettiradi (qiyalik burchagi iste’molga chekli moyillik kattaligi bilan aniqlanadi – MRS), bu qiyalik koordinatalar o‘qi boshidan boshlanmaydi, chunki daromad darajasiga bog‘liq bo‘lmagan avtonom iste’mol (S) doimo mavjud bo‘ladi. Natijada qiyalikda xochni hosil qilamiz, shuning uchun model «**Keyns xochi**» nomini olgan («Keynesian cross»). Aytib o‘tish kerakki, o‘zining mashhur kitobida Keynes grafiklardan foydalanmagan. Oddiy Keynes modelining grafik talqini ilk bor Nobel mukofoti laureati Pol Samuelson tomonidan uning mashhur «Ekonomiks» deb nomlangan kitobida taklif etilgan.



6.5-rasm. Keynes modelida muvozanat (Keyns xochi)¹⁵

Xarajatlar va daromadlarning muvozanati, ya’ni tovarlar bozorining muvozanati ikki egri chiziq kesishgan nuqtada joylashgan (A nuqta). Bu nuqtada:

- 1) rejalashtirilgan xarajatlar ishlab chiqarish hajmi (daromad)ga teng:

$$E_p = Y;$$
- 2) haqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlarga teng: $E = E_p;$
- 3) in’eksiyalar oqimlarga teng: $I = S;$

¹⁵ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

4) rejalashtirilgan investitsiyalar jamg'armalarga teng:

$$I_p = S$$

Muvozanatli bo'lmagan nuqtalarni ko'rib o'taylik. Masalan, B nuqtada in'eksiyalar oqimlardan kam.

$$E_p < Y, E_p < E \Rightarrow I_p < S$$

Aksincha, C nuqtada in'eksiyalar oqimlardan ortiq.

$$E_p > Y, E_p > E \Rightarrow I_p > S$$

Keyns yalpi talab nazariyasining umumiy natijasi – bu *multiplikator* samarasidir. Multiplikator tamoyiliga asoslangan iqtisodiy o'sish daromadlar va jamg'armaga chekli moyillikning ortishiga imkon beradi. Yuqori darajadagi faollik davrida jamg'armalarning ortishi yangi investitsiyalar va demakki, iqtisodiy o'sishga asos bo'ladi (akselerator samarasi).

6.7. Multiplikator samarasi

Ishlab chiqarilgan mahsulotning muvozanatli hajmini aniqlash uchun (muvozanatli milliy daromad) uni rejalashtirilgan xarajatlar miqdoriga tenglashtirish kerak bo'ladi:

$$Y = C + I_p$$

bunda,

$$C = C_a + MPC \times Y$$

$$\text{ya'ni, } Y = C_a + MPC \times Y + I_p$$

Agarda xarajatlar ortsa nima bo'ladi? Keynes yalpi xarajatlarning oshishi daromadlar ortishiga olib kelishini ko'rsatib berdi, ammo shuni muhimki, endi daromadlar uni ortishiga olib kelgan xarajatlarga qaraganda ko'prok darajada ortar ekan (ya'ni mutiplikator samarasi orqali).


Multiplikator – bu yalpi xarajatlarning bir birlikka ortishi (*kamayishi*) yalpi daromadlarni necha marotaba oshishi (*qiskarishi*)ga olib kelishini ko'rsatuvchi koeffitsientdir. Multiplikatorning ta'siri bir iqtisodiy agentning sarflagan xarajatlari albatta boshqa bir iqtisodiy agentning daromadiga aylanishi va oxirgisining bir qism daromadini sarflashi uchun bir iqtisodiy agent daromadi (va hokazo)ga aylanishiga olib kelishiga asoslangan. Natijada multiplikator samarasi tufayli umumiy daromad miqdori ilk bor qilingan xarajatlar miqdoridan bir necha marotaba yuqori bo'ladi.

Yalpi daromadlarning ortishi ilk bor qilingan investitsiyalar miqdoridan bir necha barobar katta bo'ladi, ya'ni multiplikator samarasi

amal qiladi va ushbu multiplikator (ammo endi investitsiya xarajatlari multiplikatori) ham xuddi yuqoridagidek aniqlanadi:

$$1 / 1 - MPC$$

Xarajatlar multiplikatori (masalan, investitsiyalar multiplikatori) samarasining grafik tasviri (6.7.2-rasmda keltirilgan.) Rasmdan ko‘rinib turibdiki, har bir keyingi ortgan daromad oldingisiga nisbatan kamayib bormoqda. Multiplikatsiya jarayoni daromadning oshishi 0 ga teng bo‘lgunga qadar davom etadi.



6.7.2-rasm. Avtonom xarajatlar multiplikatori¹⁶


Iste'molga chekli moyillik (MPC) qanchalik katta bo‘lsa, avtonom xarajatlar multiplikatorining kattaligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Agar masalan, $MPC = 0,9$ ga teng bo‘lsa, u holda multiplikator $= 10$ ($1 / (1 - 0,9) = 10$)ga teng, $MPC = 0,75$ ga teng bo‘lganda, multiplikator $= 4$ ($1 / (1 - 0,75) = 4$)ga teng bo‘ladi. MPC rejalashtirilgan xarajatlar egrisining qiyaligini belgilaganligi uchun, MPC qanchalik katta bo‘lsa, egri chiziq shunchalik tik bo‘ladi. Rejalashtirilgan xarajatlar egrisi qanchalik tik, ya’ni MPC va multiplikator qanchalik katta bo‘lsa, bir xil hajmdagi xarajatlarning ortishi daromadlarning shunchalik ko‘proq hajmda ortishiga olib keladi.

¹⁶ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

6. 8. Tejamkorlik paradoksi

Oddiy keynscha modeldan ma'lum bo'ldiki, iqtisodiyotning o'sishini ta'minlash uchun yalpi xarajatlarni oshirish kerak, ular esa in'eksiyalar hisoblanib, yalpi daromadlarni multiplikator samarasi orqali oshishini ta'minlab beradi. Xarajatlardan chiqib ketgan oqimlar esa yalpi daromadni multiplikativ qisqartirib, iqtisodiyotni retsessiya yoki depressiya holatiga olib kelishi mumkin.

Bunday paradoksdan shunday xulosa kelib chiqadi: iqtisodiyot qanchalik jamg'arsa, u shunchalik kambag'allashadi. (Paradoks shundaki, agarda kishi o'z jamg'armalarini oshirsa, u boyib boradi, iqtisodiyot esa jamg'armalar ortgan sayin kambag'allashadi). Tejamkorlik paradoksining grafik ko'rinishi 6.8.1-rasmda ikki xil usulda ko'rsatilgan: 1) investitsiyalar va jamg'armalar grafigida (a); 2) oqimlar va in'eksiyalar grafigida (b).



6.8.1-rasm. Tejamkorlik paradoksi

Keynscha modelda jamg'armalar daromadga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, investitsiyalar avtonom kattalik hisoblanar ekan, u holda,

jamg'arma egri chizig'i musbat qiyalikni, investitsiya egrisi gorizontal chiziqni aks ettiradi. Jamg'armalarning ortishi jamg'arma egri chizig'ini chapga va yuqoriga S1 dan S2 ga siljitadi. Agarda investitsiyalar miqdori o'zgarmasa, u holda jamg'armalarning ortishi yalpi daromadlarni Y1 dan Y2 gacha kamayishiga olib keladi, ya'ni jamg'armalarning ortishi iqtisodiy vaziyatning yomonlashuviga olib keladi (6.8.1-b rasm).

6.8.1-a rasmda daromad darajasiga bog'liq bo'lmagan va shuning uchun gorizontal chiziq ko'rinishida aks ettirilgan avtonom xarajatlar egri chizig'i (in'eksiyalar) va yalpi daromadning muayyan bir qismini tashkil etuvchi $MLR \times Y$ ga teng bo'lgan oqimlar egri chizig'i keltirilgan. Oqimlar egri chizig'i qiyaligi MLR kattaligi orqali aniqlanadi. Keltirilgan grafik nafaqat jamg'armalarni, balki har qanday turdagi oqimlarni (masalan, soliqlar, import) iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish imkoniyatini beradi. Oqimlar kattaligi oshganda, MLR ortadi va oqimlar egri chizig'i kattaligi yanada tikkaroq bo'ladi. Natijada avtonom xarajatlar kattaligi o'zgarmas bo'lganda yalpi ishlab chiqarish hajmi Y1 dan Y2 ga qisqaradi.

Qisqacha xulosalar

Umumiy makroiqtisodiy muvozanatni aniqlashda muvozanat narxlar darajasi va milliy ishlab chiqarishning real hajmi tushunchalaridan keng foydalaniladi. Muvozanat narxlar darajasi mikroiqtisodiyotda o'rganilgan alohida olingan tovar yoki xizmat narxidan butunlay farqli ravishda iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan millionlab tovarlarning o'rtacha narxi bo'lib, u agregatlangan, ya'ni umumlashtirilgan ko'rsatkich hisoblanadi. Milliy ishlab chiqarishning real hajmi ko'rsatkichi ham endi bir yoki bir necha tovar yoki xizmat turi bo'yicha hisoblanmasdan, balki endi u agregatlanganligi sababli mamlakatda va uning tashqarisida milliy ishlab chiqarish omillari hisobiga ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlarni o'z ichiga oladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Makroiqtisodiy muvozanat to'g'risida klassik nazariyaning mohiyatini tushuntirib bering.

2. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi mohiyati nimada va klassiklar nazariyasidan prinsipial farqlari nimada?

3. Keyns xochi nomli modelda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlovchi mexanizmga izoh bering.

4. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli va AD-AS modelini taqqoslang.

**7. 1. Pul-kredit siyosatining maqsadi, maqsadli ko'rsatkichlari
va asosiy yo'nalishlari****7. 1. 1. Pul-kredit siyosatining strategik maqsadlari**

Pul-kredit siyosati – bu pullarga bo'lgan talab va pullar taklifini tartibga solish va nazorat qilishga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisidir.

Pul-kredit siyosatining ikki asosiy turi mavjud:

1. Restriksion pul-kredit siyosati.
2. Ekspansionistik pul-kredit siyosati.

Restriksion pul-kredit siyosati deganda, odatda, muomaladagi pul massasining o'sish sur'atlarini jilovlashga qaratilgan pul-kredit siyosati tushuniladi.

Restriksion pul-kredit siyosatini amalga oshirishda Markaziy bank quyidagi usullardan foydalanadi:

- Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalarining darajasi oshiriladi;
- tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar Markaziy bank tomonidan qayta sotib olish sharti bilan sotiladi;
- Markaziy bank tomonidan hukumatga va tijorat banklariga tegishli bo'lgan vaqtincha bo'sh pul mablag'lari depozit hisobraqamlariga jalb etiladi;
- Markaziy bank valuta siyosati doirasida milliy valutadagi pul mablag'lari hajmining o'sish sur'atlarini cheklashga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshiradi.

Ekspansionistik pul-kredit siyosati deganda muomaladagi pul massasining multiplikativ kengayishini ta'minlash asosida to'lovga qobil talabni rag'batlantirishga qaratilgan pul-kredit siyosati tushuniladi.

Ekspansionistik pul-kredit siyosatini amalga oshirishda Markaziy bank quyidagi usullardan foydalanadi:

- Markaziy bank qayta moliyalash stavkalarini pasaytiradi va tijorat banklariga beriladigan markazlashgan kreditlarning hajmini oshiradi;
- tijorat banklarining kreditlash hajmiga nisbatan Markaziy bank tomonidan belgilangan limitlar hajmi oshiriladi, ya'ni banklarga kreditlar miqdorini oshirishga imkoniyat yaratiladi.

- Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalari pasaytiriladi;
- tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar Markaziy bank tomonidan qayta sotish sharti bilan sotib olinadi;
- Markaziy bank valuta siyosati doirasida milliy valutadagi pul mablag'lari hajmining o'sish sur'atlarini oshirishga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshiradi.

V. Rudko-Silivanov, N. Kuchina, M. Jevlakova hammuallifligida chop etilgan o'quv qo'llanmada pul-kredit siyosatining quyidagi strategik maqsadlarining mavjudligi e'tirof etiladi:

- baholar barqarorligini ta'minlash;
- to'liq bandlikka erishish;
- ishlab chiqarish real hajmining o'sishini ta'minlash;
- to'lov balansining muvozanatini ta'minlash¹⁷.

Bu erda pul-kredit siyosatining asosiy strategik maqsadi – milliy valutaning barqarorligini ta'minlash e'tirof etilmagan holda, ishlab chiqarish real hajmining o'sishini va to'lov balansining muvozanatini ta'minlash uning strategik maqsadi sifatida qayd etilmoqda.

S. Moiseevning fikriga ko'ra, pul-kredit siyosatining quyidagi to'rtta strategik maqsadlari mavjud:

- baholar barqarorligi;
- milliy valutaning barqarorligi;
- mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash;
- muvozanatlashgan iqtisodiy o'sish¹⁸.

R. Miller va D. Van-Xuzning fikriga ko'ra, pul-kredit siyosatining ikki strategik maqsadi mavjud: tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori va barqaror darajasini ta'minlash; inflatsiyaning past va barqaror darajada bo'lishiga erishish¹⁹.

Ushbu iqtisodchi olimlar haqli ravishda e'tirof etadilarki, Markaziy bankning pul-kredit siyosati yordamida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori va barqaror darajasini ta'minlashi ishsizlik darajasini pasaytirish imkonini beradi. Bu esa, Hukumat iqtisodiy siyosatining strategik maqsadlaridan biri bo'lgan ishsizlikning past va barqaror darajasini ta'minlash maqsadiga mos keladi.

¹⁷ Рудко-Силиванов В.В., Кучина Н.В., Жевлакова М.А. Организация деятельности Центрального банка. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2011. - С. 32-33.

¹⁸ Моисеев С.Р. Денежно-кредитная политика: теория и практика. Учебное пособие. – М.: Московская финансово-промышленная академия, 2011. - С. 218.

¹⁹ Миллер Р.Л., Ван-Хуз Д.Д. Современные деньги и банковское дело. Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2000. – С. 645-646.

O. Namozov pul-kredit siyosatining strategik maqsadlari sifatida moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va to'lov balansining barqarorligini ko'rsatadi²⁰.

7.1.2. Pul-kredit siyosatining taktik maqsadlari

Hozirgi vaqtda, xalqaro amaliyotda, pul-kredit siyosatining taktik maqsadlari sifatida pul massasining o'sish sur'ati, milliy valutaning nominal almashuv kursi, nominal foiz stavkasi va inflatsiyaning maqsadli ko'rsatkichidan foydalanilmoqda.

Milliy valutaning nominal almashuv kursidan pul-kredit siyosatining taktik maqsadi sifatida foydalanish holati ko'proq milliy valutasining barqarorligini ta'minlashda muammolar mavjud bo'lgan mamlakatlarda kuzatiladi. Shu sababli, mazkur mamlakatlarda hukumat va Markaziy bank o'zaro kelishgan holda, milliy valutaning devalvatsiya bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yoki devalvatsiya sur'atini pasaytirishga qaratilgan siyosatni olib boradilar.

Mamlakatda to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'limi bo'yicha milliy valutani xorijiy valutalariga erkin konvertirlashni joriy etilishi milliy valutaning nominal almashuv kursidan pul-kredit siyosatining taktik maqsadi sifatida foydalanishni murakkablashtiradi. Buning sababi shundaki, XVF Nizomi VIII-moddasi bo'yicha majburiyatlar qabul qilingandan so'ng hukumat joriy valuta operatsiyalari bo'yicha cheklovlarni joriy etish huquqiga ega bo'lmaydi.

Monetarizm pul-kredit konsepsiyasining asoschisi M. Fridmen pul massasining o'sish ko'rsatkichini pul-kredit siyosatining asosiy taktik maqsadi, deb hisoblaydi.

M. Fridmen pullarga bo'lgan talab funktsiyasi va xarajatlar funktsiyasini barqaror, deb hisoblaydi. Shu sababli, u pul massasini pul-kredit siyosatining taktik maqsadi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq, degan xulosaga keldi.

Monetarizm pul-kredit konsepsiyasining asoschisi bo'lgan M. Fridmen va uning izdoshlari Markaziy banklar faoliyatini tubdan isloh qilishni taklif qiladilar. Ularning fikriga ko'ra, Markaziy bank hukumatning iqtisodiy siyosatini qo'llab-quvatlashlari shart emas. Shu tufayli, ular Markaziy bank hukumat xarajatlarini moliyalashtirish jarayonida umuman ishtirok etmasliklari zarur, degan g'oyani ilgari suradilar.

²⁰ Намозов О.Ш. Монетарная политика в переходной экономике: концептуальные подходы и программные направления. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. д.э.н. – Ташкент, 2011. - С. 11.

M. Fridmen Markaziy bank tomonidan hukumat xarajatlarining moliyalashtirilishini pul muomalasini izdan chiqaruvchi omil, deb hisoblaydi.

M. Fridmen, A. Shvarts bilan amalga oshirgan tahlillarining natijalariga asoslangan holda, Markaziy bank pul massasining barqaror o‘shirishini ta‘minlashi kerak, degan xulosaga keldi. Bu qat‘iy belgilangan qoidaga asosan amalga oshirilishi va aniq miqdorga ega bo‘lishi kerak edi.

Pul-kredit siyosatining taktik maqsadlarini tanlashning asosiy shart-sharoitlaridan biri davlat budjeti defitsitining mavjudligi va darajasidir.

O‘zbekiston Respublikasida rasman pullar taklifini tartibga solish Markaziy bank pul-kredit siyosatiining taktik maqsadi hisoblanadi.

7.1.3. Pul-kredit siyosatining maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari)

Indikator so‘zi lotincha «**indicator**» degan so‘zdan olingan bo‘lib, ko‘rsatkich degan ma‘noni anglatadi. Frantsiyalik mutaxassislar I. Bernar va J. Kolli tomonidan indikator tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: «indikator umumiy iqtisodiy siyosatni o‘tkazish va uning natijalarini baholash uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, iqtisodiy va moliyaviy miqdorlar evolyutsiyasining raqamli ko‘rsatkichidir»²¹.

A. N. Azriliyan tahriri ostida chop tilgan «Bolshoy ekonomicheskiy slovar»da ham indikator tushunchasi iqtisodiy va moliyaviy miqdorlar o‘zgarishining raqamli ko‘rsatkichi sifatida talqin etilgan²².

Indikator tushunchasining yuqorida keltirilgan talqiniga asoslangan holda, pul-kredit siyosatining indikatoriga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: «Markaziy bank pul-kredit siyosatining indikator - bu milliy valutaning va mamlakatda baholar barqarorligini ta‘minlash tadbirlarining samaradorligini baholashda o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan moliyaviy miqdorlar o‘zgarishining raqamli ko‘rsatkichidir».

Yuqorida keltirilgan ta‘rifda milliy valutaning va baholar barqarorligini ta‘minlash tadbirlari deyilishining sababi shundaki, hozirgi davrda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida, shu jumladan o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida markaziy banklar pul-kredit siyosatining bosh maqsadi bo‘lib, milliy valutaning barqarorligini ta‘minlash va mamlakatda baholar barqarorligiga erishish hisoblanadi. Baholar

²¹ Ив Бернар, Жан-Клод Колли. Толковый экономический и финансовый словарь. Том 1.– М.:Международные отношения., 1994. – С. 144.

²² Большой экономический словарь. Под ред. Азрилиана А., Н. – М.: Институт новой экономики, 1999. – С. 307.

barqarorligini ta'minlash faqatgina EMBning bosh maqsadi hisoblanmaydi. Buning sababi shundaki, EMB pul-kredit siyosatini amalga oshirishda butun diqqat e'tiborini faqat yevroning barqarorligini ta'minlashga qaratadi, baholar darajasiga ta'sir etishni pul-kredit siyosatining pirovard maqsadi, deb hisoblamaydi.

Hozirgi vaqtda pul-kredit siyosatining indikatorlari sifatida asosan pul massasining o'sishi, milliy valutaning almashuv kursi, inflatsiya darajasi ko'rsatkichlaridan foydalanilmoqda.

7.2. Pul-kredit siyosati vositalari va ularning amal qilish mexanizmi

7.2.1. Pul-kredit siyosati vositalari (instrumentlari) ning turkumlanishi

Iqtisodiy adabiyotda pul-kredit siyosati vositalari, ya'ni instrumentlarini quyidagi ikki guruhga ajratish keng tarqalgan:

1. An'anaviy instrumentlar.
2. Noan'anaviy instrumentlar.

Pul-kredit siyosatining an'anaviy instrumentlariga quyidagilar kiradi:

- qayta moliyalash siyosati;
- majburiy zaxira siyosati;
- ochiq bozor siyosati;
- valuta siyosati;
- depozit siyosati.

Pul-kredit siyosatining noan'anaviy instrumentlariga quyidagilar kiradi:

- tijorat banklarining kreditlash hajmiga nisbatan limitlar belgilash;
- tijorat banklari kreditlari foiz stavkalarining yuqori chegarasini belgilash;
- tijorat banklari depozitlari foiz stavkalarining yuqori chegarasini belgilash;
- selektiv kreditlash.

7.2.2. Pul-kredit siyosatining an'anaviy instrumentlari.

Qayta moliyalash siyosati. Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirishda uning an'anaviy instrumentlaridan (qayta moliyalash siyosati, majburiy zaxira siyosati, ochiq bozor siyosati, valuta siyosati va depozit siyosati) foydalanish muhim o'rin tutadi. Nafaqat taraqqiy etgan mamlakatlarda (katta yettilik davlatlari – AQSh, Yaponiya, GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Kanada), balki o'tish iqtisodiyoti

mamlakatlarida ham an'anaviy monetar instrumentlardan foydalanish pul-kredit siyosatini amalga oshirishning tayanch vositalari vazifasini bajarmoqda.

Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini kreditlash bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui bo'lib, ushbu siyosat quyidagi uch xil kreditlash usulidan foydalanilgan holda amalga oshiriladi:

1. Tijorat banklarini Markaziy bank tomonidan, ularning balansidagi tratalarni qayta hisobga olish yo'li bilan, kreditlash usuli.

2. Tijorat banklarini Markaziy bank tomonidan, ularning balansidagi qimmatli qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan, kreditlash usuli.

3. Tijorat banklarini Markaziy bank tomonidan to'g'ridan - to'g'ri kreditlash usuli.

Majburiy zaxira siyosati. Majburiy zaxira siyosati Markaziy bank pul-kredit siyosatining an'anaviy instrumentlaridan biri hisoblanadi. Bunda uch xil tushuncha qo'llaniladi:

1. Zaxira talablari (reserve requirements).

2. Minimal zaxiralar (minimum reserves).

3. Majburiy zaxiralar (legal reserves).

Majburiy zaxira siyosati pul-kredit siyosatining instrumenti sifatida dastlab AQSh Federal zaxira tizimi (FZT) tomonidan mamlakat bank tizimining likvidligiga ta'sir etish maqsadida joriy qilingan edi.

Hozirgi davrga kelib majburiy zaxira siyosati muomaladagi pul massasini tartibga solishning, milliy bank tizimining likvidligiga Markaziy bank tomonidan ta'sir etishning muhim, ta'sirchan vositasiga aylandi.

Ochiq bozor siyosati. Markaziy bankning ochiq bozor siyosati deganda, odatda, Markaziy bank tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida qimmatli qog'ozlarni sotib olinishi yoki sotilishi tushuniladi.

Markaziy banklarning ochiq bozor operatsiyalarida oldi-sotdi ob'ekti sifatida, asosan, quyidagi qimmatli qog'ozlardan foydalaniladi:

xazina veksellari;

hukumatning obligatsiyalari;

hukumatning o'rta va uzoq muddatli xazina majburiyatlari;

korporativ obligatsiyalar;

tijorat banklarining depozit sertifikatlari;

korxonalarining tijorat veksellari.

Valuta siyosati. Markaziy bankning valuta siyosati uning an'anaviy pul-kredit instrumentlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, valuta

siyosatining pirovard maqsadi milliy valuta barqarorligini ta'minlash hisoblanadi.

Markaziy bankning valuta siyosati doirasida amalga oshiriladigan valuta operatsiyalarining uch asosiy turi xalqaro bank amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Ular quyidagi operatsiyalardan iboratdir:

1. Valuta intervensiyasini amalga oshirish maqsadida o'tkaziladigan operatsiyalar.

2. Hukumatning tashqi qarzini to'lash bo'yicha Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan valuta operatsiyalari.

3. Markaziy bankning balansidagi oltin-valuta zaxiralarini boshqarish operatsiyalari.

Depozit siyosati. Markaziy bankning depozit siyosati deganda Markaziy bank tomonidan Hukumatga, tijorat banklariga tegishli pul mablag'larini depozit hisobraqamlariga jalb etish va boshqarish tushuniladi.

7.2.3. Pul-kredit siyosatining noan'anaviy instrumentlari.

Tijorat banklarining kreditlash hajmiga nisbatan limitlar belgilash. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining kreditlash hajmiga nisbatan limitlar belgilash muomaladagi pul massasini tartibga solish, xususan, pul massasining oldindan belgilangan maqsadli o'sish ko'rsatkichiga erishishni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalariga nisbatan limitlar belgilash. Ko'pchilik o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida Markaziy bank tomonidan tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori chegarasini belgilash, ya'ni foiz stavkalarini limitlash qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida ham 1999 yilga qadar tijorat banklari kreditlari foiz stavkalarining yuqori chegarasini belgilab qo'yish amaliyoti mavjud edi.

Tijorat banklari depozitlarining foiz stavkalariga nisbatan limitlar belgilash. Tijorat banklari depozitlarining foiz stavkalariga nisbatan limitlar belgilash, ya'ni depozitlarga to'lanadigan foizlarning yuqori chegarasini belgilash depozitlarning qimmatlashib ketishining oldini oladi.

Selektiv kreditlash. Selektiv kreditlashni tanlanma kreditlash deb ham atash mumkin.

Selektiv kreditlash Markaziy bank tomonidan iqtisodiyotning ma'lum bir sohasi yoki tarmog'ini bilvosita moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshiriladi.

Tratta – bu uzatma tijorat vekseldir. Tijorat veksellarining ikki turi mavjud: oddiy va uzatma tijorat veksellari.

Tijorat veksellarini boshqa shaxslarga uzatish mumkin. Shu jihatdan olganda, ular pulning to‘lov vositasi funktsiyasini bajaradi.

7.3. Pulga bo‘lgan talab, pul taklifi va pul agregatlari

7.3.1. Pulga bo‘lgan talab va uni baholash

M. Fridmen miqdoriylik nazariyasini pullarga bo‘lgan talab nazariyasi ekanligini o‘zining ilmiy izlanishlarida e‘tirof etgan²³. Shu jihatdan olganda, pullarga bo‘lgan talab konsepsiyasi monetarizmning asosiy qoidalaridan biri hisoblanadi.

M. Fridmenning pullarga talab nazariyasida pullarga bo‘lgan nominal talab nominal daromad va nominal foiz me‘yorining funktsiyalari sifatida ifodalanadi:

$$Md = f(Y_n, i),$$

bunda:

Md — pullarga bo‘lgan nominal talab;

Y_n — nominal daromad;

i — nominal foiz me‘yori.

Yuzaki qaraganda ushbu tenglama J. Keynsning pullarga bo‘lgan talab nazariyasini eslatadi. Buning sababi shundaki, J. M. Keynsning pullarga talab konsepsiyasida talab foiz me‘yorining dinamikasi asosida aniqlanadi. J. Keyns va uning izdoshlari foiz stavkasini pullarga bo‘lgan talab va taklifni tenglashtiruvchi miqdor, deb hisoblaydilar.

J. M. Keynsning nazariyalarida pullarga ishlab chiqarishning endogen omili sifatida qaraladi²⁴ va pullarni likvidli aktiv sifatida saqlashning sub‘ektiv asoslari tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida asosiy e‘tibor ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta‘minlashda pul mablag‘laridan foydalanishga qaratildi.

J. Keynsning pullarga talab nazariyasida foiz stavkasi muhim o‘rin egallab, foiz stavkalariga ta‘sir etish yo‘li bilan ishsizlik darajasi va iqtisodiy o‘sishga bevosita ta‘sir qilish mumkin, deb hisoblaydi.

²³ Фридмен М. Основы монетаризма. Пер. с англ. – М.: ТЕИС, 2002. – С.70 – 72.

²⁴ Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. – М.: Гелиос АРВ, 1999. – С. 184.

7.3.2. Pullar taklifi

M. Fridmen maktabining pullar taklifi xususidagi qarashlari tahlilidan iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi pul massasining mo‘tadil va muntazam o‘shini talab qiladi, degan xulosa kelib chiqadi²⁵. Mazkur xulosa pul massasining o‘sh sur‘ati doimiy bo‘lishi lozim va uning o‘zgarishi iqtisodiy kon‘yunkturaning tebranishlariga umuman bog‘liq emas²⁶, degan monetarizmning nazariy qoidasi shakllanishiga sabab bo‘ldi. Ushbu qoida M. Fridmenning «pullarga bo‘lgan talabning barqaror funksiyasi» konsepsiyasiga asoslanadi²⁷. Ushbu konsepsiyaning mohiyati shundaki, pullarga bo‘lgan talab kassa qoldiqlari va nominal daromadning o‘shiga mos ravishda kamaymaydi, aksincha o‘zgarishdan qoladi. Chunki, pullar taklifidagi har bir o‘zgarish nafaqat investitsiyalar darajasiga, balki shaxsiy iste‘molning hajmiga ham ta‘sir qiladi. Shaxsiy iste‘molning hajmi esa, o‘z navbatida, nominal daromadlarning dinamikasiga mutanosib ravishda o‘zgarib boradi. Natijada pullarga bo‘lgan talab har bir alohida olingan davr mobaynida barqaror miqdor sifatida saqlanib qoladi, pullar taklifi esa doimiy ravishda tebranib turadi.

Umuman, monetarizm maktabi vakillari Markaziy bank pullar taklifini tartibga solish uchun real imkoniyatlarga ega²⁸, degan xulosani himoya qiladilar. Ularning fikricha, inflatsiya sof pul fenomeni bo‘lib, ko‘p omilli jarayon emas. Monetarchilar inflatsiyaning yuzaga kelish sababi sifatida pul massasining ishlab chiqarish hajmiga nisbatan yuqori sur‘atlarda o‘shini ko‘rsatadilar. Inflatsiyaning mohiyati xususidagi qarashlaridan kelib chiqqan holda, ular, pul massasini tartibga solish yo‘li bilan inflatsiyani jilovlash mumkin, deb hisoblaydilar va bu vazifani faqatgina Markaziy bank bajara oladi²⁹, degan fikr ilgari suriladi.

J. Keynsning pul massasining iqtisodiy tizimning holatiga ta‘sirini tavsiflovchi pul-kredit siyosatining uzatish mexanizmi to‘g‘risidagi nazariyasi, uning pullar taklifi xususidagi qarashlariga sezilarli darajada oydinlik kiritdi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, J. Keyns, foiz stavkalarining rejali investitsiyalarga ta‘sirini pul-kredit siyosati uzatish mexanizmining asosiy bo‘g‘ini, deb hisobladi. Bunda pullar taklifining o‘shini natijasida foiz stavkasining pasayishi investitsiyalarning muqobil qiymatini pasaytiradi, degan xulosaga kelindi. Ayni vaqtda, foiz me‘yorining

²⁵ Фридмен М. Если бы деньги заговорили... Пер. с англ. – М.: Дело, 1999. – С. 100-101.

²⁶ Фридмен М. Если бы деньги заговорили... Пер. с англ. – М.: Дело, 1999. – С. 117.

²⁷ Friedman M. A theory of consumption function, NBER, Princeton, 1957. – P. 238.

²⁸ Фридмен М. Если бы деньги заговорили... Пер. с англ. – М.: Дело, 1999. – С. 132-134.

²⁹ Фридмен М. Если бы деньги заговорили... Пер. с англ. – М.: Дело, 1999. – С. 113-114.

pasayib borishi bilan firma va kompaniyalar o'zlarining rejali investitsiyalari hajmini oshiradilar. Bu xarajatlar rejali xarajatlarning umumiy summasi bilan qo'shib, tovar zaxiralarning ko'zda tutilmagan miqdorda sarflanishiga olib keladi. Firma va kompaniyalar esa, bunday sharoitda mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytiradilar. Bu esa, o'z navbatida, milliy daromadning ko'payishiga olib keladi.

7.3.3. Pul agregatlari

Pul agregatlari pul massasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Har qanday Markaziy bank pul agregatlarini shakllantirishda quyidagi pintsiplarga asoslanadi:

1. Pul agregatlari likvidlilik darajasi past bo'lgan aktivlarga likvidlilik darajasi yuqori bo'lgan aktivlarni ketma-ket qo'shib borish yo'li bilan shakllantiriladi.

2. Har bir pul agregati o'zidan oldingi pul agregatini o'z ichiga oladi. Xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan pul agregatlariga kiradi:

M0 – muomaladagi naqd pullar;

M1 = M0 talab qilib olinadigan depozitlar + chekli omonatlar + yo'l cheklari;

M2 = M1 + muddatli depozitlar + jamg'arma depozitlari;

M3 = M2 + depozit sertifikatlari + jamg'arma sertifikatlari + davlatning qimmatli qog'ozlari.

Qayd etish joizki, AQSh bank amaliyotida pul massasini tavsiflash maqsadida quyidagi pul agregatlaridan foydalanilmoqda:

M0 - Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan naqd pullar;

M1 - M0 + talab qilib olinadigan depozitlar + yo'l cheklari + kredit kartochkalari;

M2 - M1 + kichik summadagi muddatli depozitlar + jamg'arma depozitlari + pul bozorining depozit hisobraqamlaridagi mablag'lar + qisqa muddatli REPO bitimlari + yevrodollardagi depozitlar;

M3 - M2 + yirik summadagi depozit sertifikatlari + moliya bozorlarida muomalada bo'lgan o'zaro fondlarning pul mablag'lari + muddatli REPO hisobarqamlari + yevrodollardagi muddatli shartnomalar;

L – M3 davlatning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari + korporativ qimmatli qog'ozlar + jamg'arma obligatsiyalari + bank aktseptlari.

7.4. Pul-kredit sektori tahlili uslubiyati

7.4.1. Pul-kredit sohasining hisoblarini yuritish. Moliya tizimining tarkibi. Pul-kredit tizimi statistikasi asosida hisobga olish tamoyillari. Pul-kredit tizimini boshqarish idoralari. Pul-depozit banklari. Pul-kredit sharhi

Asosiy makroiqtisodiy hisoblar orasida pul-kredit hisoblari bir qancha sabablarga ko‘ra muhim rol o‘ynaydi.

Birinchi, asosida pul yotgan bozor iqtisodiyotida moliyaviy tizim sektorlararo resurslar oqib o‘tadigan vositachi vazifasini bajaradi. Pul-kredit sektori iqtisodiyotdagi barcha moliyaviy oqimlar bo‘yicha hisob-kitob markazi hisoblanib, ushbu sektorning hisoblarida moddiy resurslarni sektorlararo harakatini ifodalaydigan oqimlar dinamikasini aks etadi.

Ikkinchi, pul-kredit hisoblari ochiq iqtisodiyotni makroiqtisodiy tahlil qilishda markaziy rol o‘ynaydigan o‘zgaruvchilar (pul, kredit, xorijiy aktivlar va passivlar kabi) holatini ifodalaydi. Bu o‘zgaruvchilarning daromadlar, narxlar va TBning holatiga ta’sir mexanizmini tushuntirishi uchun bir qancha turli klassik va hozirgi zamon iqtisodiy nazariyalari ishlab chiqilgan. Ushbu paragrafda TBga monetar yondashish uchun asos bo‘lgan pul-kredit sohasidagi hisobga olish kategoriyalari ko‘rib chiqilgan. Pul-kredit sohasining hisoblar tizimi yetarli darajada keng va moslanuvchan bo‘lgani uchun pul, narxlar va TBning turli nazariyalarga asoslangan tahlil ishlarida foydalanish mumkin.

Uchinchi, barqarorlik dasturlari doirasida biror-bir mamlakatda shakllangan muayyan holatlarni hisobga olgan turli xil vosita va yondoshishlardan foydalaniladi. Ushbu dasturlar nazariy asoslarining markaziy elementi bo‘lib pul-kredit agregatlari va soliq-budjet operatsiyalari orasidagi o‘zaro bog‘liqliklar (albatta, TBning yakuniy holatini hisobga olgan holda) hisoblanadi. Shu sababli, pul-kredit sektori hisoblarining tarkibi va holati to‘g‘risida aniq tushunchaga ega bo‘lish, barqarorlashtirish dasturining asosi hisoblanmish pul-kredit tahlilida juda muhimdir.

Va nihoyat, to‘rtinchi, pul-kredit hisoblari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni odatda minimal xarajatlar bilan olish mumkin. Hattoki, rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda ham iqtisodiyotning holatini aks ettiruvchi ma’lumotlar yetishmasligiga qaramasdan, pul-kredit sektori bo‘yicha ma’lumotlar makroiqtisodiy

statistikaning eng ishonchli qismi ekanligi, mamlakatdagi joriy holatni kuzatishda iqtisodiy siyosat olib boradigan idoralar uchun katta ahamiyatga egadir. Shunga ko‘ra, barqarorlashtirish dasturlarini amalga oshirish jarayonida umumlashtiruvchi moliyaviy ko‘rsatkichlar ko‘pincha bazis mo‘ljallari va me‘yorlari bo‘lib xizmat qiladi.

7.4.2. Pul-kredit sohasini tahlil qilish. Boshqa sektorlar bilan aloqalar. Pul bozoridagi muvozanat. Pul multiplikatori konsepsiyasi. Pul-kredit tahlilining ayrim masalalari

Bank tizimining balansi hisoblanmish PKSh, mamlakatning tashqi pozitsiyalari bilan bank tizimidagi sof aktivlar, hamda davlat boshqaruv idoralarining hisoblari bilan bank tizimi tomonidan davlatni moliyalashtirish orasidagi muhim aloqalarni aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, bank tizimi, albatta, real sektor (milliy hisoblar bilan ham) bilan ham xususiy sektorga pul ko‘rinishda kredit berish orqali ham bog‘langandir.

TB bilan aloqalar. TBni tahlil qilishda ko‘rilganidek, agar bank tizimi bo‘yicha operatsiyalar chiziq ustida ifodalansa, TBning umumiy Saldosi bank tizimining sof xalqaro zahiralari o‘zgarishi hisobiga moliyalashtiriladi. Umuman olganda, sof xorijiy aktivlarning o‘zgarishi xoh PKSh, xoh TB orqali aniqlanmasin, bir xil natija beradi. Shuning uchun ushbu o‘zgarish PKShda

$$DNFA = DM2 - DNDA$$

ko‘rinishda hisoblansa, TBda

$$\Delta NFA = - \Delta RES$$

bo‘lganligi sababli

$$\Delta NFA = CAB + \Delta FI,$$

$$CAB + \Delta FI + \Delta RES = 0,$$

(bu yerda ΔFI – noemission moliyalashtirish oqimlari) ko‘rinishda hisoblanadi.

Va natijada,

$$\Delta NFA = \Delta M2 - \Delta NDA = CAB + \Delta FI = \Delta RES.$$

PKSh dagi ayniyat – pul massasining ko‘payishiga nisbatan ichki kredit ekspansiyaning har qanday ustunligi (muvozanat paytida u pulga talab bilan teng bo‘ladi) bank tizimidagi sof xorijiy aktivlarning (ya’ni, ΔNFA manfiy bo‘ladi) kamayishida aks etadi. Ushbu nisbat TB ga pul-kredit jihatdan yondashish va sof ichki aktivlarning yuqori chegaralarini belgilashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Aniq olganda, vaqt bo‘yicha zahiralarning ma’lum moddalarining o‘zgarishiga valuta kurslaridagi tebranishlar ta’sirini operatsiyalardagi o‘zgarishlar va qiymatni qayta baholash hisobiga qancha bo‘lganini ajratish talab qilinadi (ushbu misolda boshqa omillar va bozor narxlaridagi tebranishlar hisobga olinmagan).

A_{Rt} – milliy valutaga denominasiya qilingan balansdagi zahira moddasi;

A_{St} – dollarda ifodalangan balansdagi zahira moddasi;

E_t – davr oxiriga bir dollarga to‘g‘ri kelgan milliy valuta kursi;

E^*_t – o‘rtacha davrdagi valuta kursi.

Bu yerda,

$$A_{Rt} = E_t * A_{St}.$$

So‘ngra:

$$\text{Zahiralarning summar o‘zgarishi} = (A_{Rt} - A_{Rt-1}),$$

$$\text{Operatsiyalar oqimi} = E^*_t (A_{St} - A_{Rt-1}).$$

Demak,

$$\text{Zahiralarning summar o‘zgarishi} = \text{operatsiyalar oqimi} + \\ + \text{qiymatni qayta baholash},$$

bundan:

$$\text{Qiymatni qayta baholashdagi o‘zgarishlar} = \\ = (A_{Rt} - A_{Rt-1}) - E^*_t * (A_{St} - A_{St-1}).$$

Qayta baholashni o‘tkazish hisobiga tuzatishlarni kiritish (VA_d) shuningdek quyidagicha ifodalanadi:

$$VA_d = A_{St-1}(E_t - E_{t-1}) + \Delta A_{St} (E_t - E^*_t).$$

7.4.3. Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarning pul-kredit tahlili

Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarning pul-kredit sohasini tadqiqot qiluvchi mutaxassislari biror-bir mamlakatga xos bo‘lgan tizimiy

va institutsional xarakterga ega bo'lgan muayyan muammolarga duch kelishadi.

- Pul aylanish tezligining tez-tez o'zgarib turishi.
- Tijorat banklari orasida raqobatning yo'qligi.
- Korxonalarining o'zaro qarzdorligi.
- Pul va moliya bozorlarining mavjud emasligi.
- Foiz stavkalari sohasidagi muammolar.
- Depozit va kredit stavkalari orasidagi katta farq.
- Davlat sektorining moliyalashtirishga katta ehtiyojlari.

7.4.4. Pul agregatlarini bashoratlash. Pulga talabni bashoratlash. Pul taklifini bashoratlash

PKBIning moliyaviy dasturlashni amalga oshirishdagi asosiy vazifasi belgilangan inflatsiya sur'atlari va YaIMning real o'sish sur'atini ta'minlovchi pul taklifi bilan pulga talab darajalarini muvofiqlashtirishdan iborat bo'ladi. Pulga talab bashorati PKBI belgilangan pul massasi hajmiga erishish maqsadida boshqaruv vositalariga o'zgartirishlar kiritish uchun zarurdir.

Pulga talab bashorati

Pul-kredit sohasidagi o'zgarishlarni miqdoriy baholash va ularni iqtisodiyotning boshqa sektorlari bilan bog'lash uchun asos bo'lib pul-kredit sharhi (PKSh) xizmat qiladi.

PKShning asosiy ayniyati quyidagicha yoziladi:

$$NFA + NDC = M2 - OIN,$$

bu yerda: $M2$ – keng ma'nodagi pul massasi, ya'ni tor ma'nodagi pul massasi ($M1$) bilan kvazi pullar (QM) yig'indisi; NFA – sof xorijiy aktivlar; NDC – sof ichki kreditlar; OIN – boshqa sof moddalar.

PKBIning muhim vazifalaridan biri yuqorida keltirilgan o'zgaruvchilarning talabga javob beradigan va kutilayotgan boshqa makroiqtisodiy o'zaruvchilarga mos keluvchi kelgusidagi miqdorlarini bashoratlashdir. Bu yo'lda birinchi muhim qadam sifatida pulga talabni bashoratlash hisoblanadi.

Pulga talabni baholashda ikkita asosiy yondashuv mavjud. Ulardan birinchisi nominal YaIM ni pul massasi miqdoriga bo'lish orqali hisoblanadigan pul aylanish tezligining oxirgi o'zgarishlarini ekstropolyatsiyalashga asoslanadi.

$$V = \frac{GDP}{M2}$$

Agar pul aylanish tezligi oxirgi bir necha yil davomida o‘zgarmagan bo‘lsa yoki qandaydir tendensiya bo‘yicha o‘zgargan bo‘lsa, shu asosda bashorat davri uchun pul aylanish tezligini baholash mumkin. Shu tarzda aniqlangan pul aylanish tezligining miqdoriga asoslanib inflatsion kutish va foiz stavkalari bo‘yicha o‘zgartirishlar kiritish mumkin.

Qisqacha xulosalar

Bank tizimining balansi hisoblanmish PKSh, mamlakatning tashqi pozitsiyalari bilan bank tizimidagi sof aktivlar, hamda davlat boshqaruv idoralarining hisoblari bilan bank tizimi tomonidan davlatni moliyalashtirish orasidagi muhim aloqalarni aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, bank tizimi, albatta, real sektor (milliy hisoblar bilan ham) bilan ham xususiy sektorga pul ko‘rinishda kredit berish orqali ham bog‘langandir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2018 yil 9 yanvardagi Farmonining asosiy mazmuni nimalardan iborat?

2. Pul-kredit siyosati deganda nima tushuniladi?

3. Ekspansionistik pul-kredit siyosati deganda. . . ?

4. "Pul-kredit siyosatining ikki strategik maqsadi mavjud: tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori va barqaror darajasini ta'minlash; inflatsiyaning past va barqaror darajada bo‘lishiga erishish" – ushbu fikrlar kimga tegishli?

5. M. Fridmenning fikri bo‘yicha pul-kredit siyosatining asosiy taktik maqsadi nima?

6. Mamlakatimizda «pul massasi yillik o‘shish sur‘atining aniq maqsadli ko‘rsatkichlarini» qaysi tashkilot belgilaydi?

7. Monetizatsiya koefitsienti qanday aniqlanadi?

8.1. Fiskal siyosat, uning vositalari. Fiskal siyosat vositalarining yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri

Fiskal siyosat davlat iqtisodiy siyosatining tayanchi hisoblanib, u davlat budjeti daromadi yoki xarajatlarini o'zgartirish orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini aks ettiradi. Shuning uchun fiskal siyosat soliq-budjet siyosati deb ham ataladi.

Davriy tebranishlarni oldini olishga, tekislashga (aksildavriy choralar ko'rishga), ya'ni barqarorlikka qaratilgan har qanday siyosat kabi fiskal siyosatning maqsadlari ham quyidagilarni ta'minlashga qaratilgandir:

barqaror iqtisodiy o'sish;

resurslarning to'liq bandligi (eng avvalo davriy ishsizlik muammosini hal etish);

barqaror narxlar darajasi (inflatsiya muammosini hal etish).

Fiskal siyosat – bu eng avvalo hukumatning yalpi talabni ta'minlashga (tartibga solishga) qaratilgan siyosatidir. Iqtisodiyotni tartibga solish bunday sharoitda yalpi xarajatlarga ta'sir etish orqali amalga oshiriladi. Ammo fiskal siyosatning ba'zi vositalari yalpi taklifga faollik darajasi orqali ta'sir etish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Fiskal siyosatni hukumat olib boradi.


Fiskal siyosatning vositalari bo'lib davlat budjetining daromad va xarajatlari hisoblanadi:

davlat xarajatlari;

soliqlar;

transfertlar.

Iqtisodiy davrning holatiga, ya'ni iqtisodiyot hozirda qanday davriy fazada ekanligiga ko'ra, fiskal siyosat vositalari turlicha qo'llaniladi. Fiskal siyosatning ikki turi mavjud (8.1.1-rasm): 1) *Rag'batlantiriluvchi fiskal siyosat*. 2) *Cheklovchi fiskal siyosat*.



8.1.1-rasm Fiskal siyosat turlari³⁰

bunda,

AD – yalpi talab;

LRAS – uzoq muddatda yalpi taklif;

SRAS – qisqa muddatda yalpi taklif;


Y – milliy ishlab chiqarishning real hajmi;

P – narxlar darajasi.

Bundan tashqari fiskal siyosat: *diskretsion va nodiskretsion (avtomatik)* turlarga bo'linadi.

Soliqlarning yalpi taklifga ta'sirini o'rgangan olim AQSh sobiq prezidenti R. Reyganning maslahatchisi, «taklif iqtisodiy nazariya»si konsepsiyasi asoschilaridan biri bo'lgan Artur Lafferdir. Laffer shunday bir gipotetik egri chiziqni yaratdiki, u orqali soliq stavkasi o'zgarishi tufayli davlat budjetiga tushadigan umumiy soliq tushumlari o'zgarishini ko'rish mumkin (bu egri chiziq gipotetik deb atalishining sababi, Laffer unda o'z xulosalarini statistik ma'lumotlar asosida emas, balki gipoteza (taxmin qilish) orqali, ya'ni logik mulohaza orqali tushuntirib bergan (8.1.2-rasm)).

³⁰ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018



8.1.2-rasm. Laffer egri chizig‘i³¹


bunda,

t – soliq stavkalari;

t_{opt} – optimal soliq stavkasi;

T – soliq tushumlari.

Bu egri chiziqda optimal soliq stavkasi ko‘rsatilgan bo‘lib (t_{opt}), bunday soliq stavkada soliq tushumlari maksimal (T_{max}) bo‘ladi. Agar soliq stavkasi oshirilsa (t_{opt} dan), u holda faollik darajasi pasayadi va soliq tushumlari qisqaradi, chunki soliq bazasi – Y kamayadi.



8.1.3-rasm. Soliqlar pasayishining yalpi taklifga ta‘siri³²

³¹ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

³² N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

Soliqlarni pasaytirish yalpi talabni oshirib, ishlab chiqarish hajmini oshirsa va inflatsiyaga olib kelsa, yalpi taklifga u antiinflatsiyali chora sifatida ta'sir etadi, ya'ni ishlab chiqarish hajmining oshishi (Y_1 dan Y^* gacha) narx darajasining pasayishi bilan kuzatiladi (8.1.3-rasm).

8. 2. Davlat budjeti. Budjetni taqchilligi

Davlat budjeti deganda, umumjamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida hosil bo'luvchi va sarflanuvchi moliyaviy resurslar tushuniladi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi vazifalarni hal qilishdir.

Davlat budjeti – bu ma'lum davr ichida (odatda 1 yil) davlat daromad va xarajatlarining balanslashuvi hisoblanib, u mamlakatning asosiy moliyaviy rejasini aks ettiradi va hukumatning qonun qabul qiluvchi organi hisoblangan Oliy Majlis (parlament, davlat dumas, kongress) tomonidan qabul qilingandan so'ng ijro uchun qonuniy va majburiy tus oladi.

O'z funksiyalarini amalga oshirishda davlat juda ko'p xarajatlar qiladi. Turli maqsadlarda ishlatilishiga ko'ra davlat xarajatlari quyidagilarga bo'linadi:

- siyosiy maqsadlar;*
- iqtisodiy maqsadlar;*
- ijtimoiy maqsadlar.*

Davlat budjetining holatlari. Davlat xarajatlari va daromadlari o'rtasidagi farq davlat budjeti saldosi tashkil etadi. Davlat budjeti ko'rinishi uch holatda bo'lishi mumkin:

1. Daromadlar xarajatlardan yuqori ($T > G$), budjet saldosi musbat, bunda davlat budjeti ortiqchaligi (profitsit) kuzatiladi.

2. Daromadlar xarajatlarga teng ($T = G$), budjet saldosi 0 ga teng, ya'ni budjet balanslashgan bo'ladi.

3. Daromadlar xarajatlardan kam ($T < G$), budjet saldosi manfiy, ya'ni davlat budjeti kamomadi (defitsit) kuzatiladi.

Budjet taqchilligi va uning ko'rinishlari. Har bir davlat budjetning daromad qismi bilan xarajat qismlarining teng bo'lishini ta'minlashga harakat qiladi. Ammo amalda ko'p holatlarda xarajat daromadga nisbatan yuqoriroq bo'ladi. Natijada budjet taqchilligi yuzaga keladi. Uning paydo bo'lishi bir qator sabablarga bog'liq:

- ishlab chiqarishning pasayishi;
- ijtimoiy dasturlarga ko'zlangan xarajatlardan ko'proq sarflash;

mudofaaga xarajatning oshib ketishi;
yashirin (xufyona) iqtisodiyotning ko‘payishi.
Budjet kamomadining *strukturaviy, davriy va amaldagi* ko‘rinishlari mavjud.

8.3. Davlat budjeti konsepsiyalari

Budjet kamomadiga bo‘lgan munosabat salbiy hisoblanib, balanslashgan budjet g‘oyasi eng maqbul hisoblanadi. Tarixan davlat budjeti holatiga bo‘lgan munosabat uchta konsepsiya orqali ilgari surilgan:

- a) budjetning yiliga balanslashuvi g‘oyasi;
- b) budjetning iqtisodiy davrning fazalari bo‘yicha balanslashuvi g‘oyasi (davriylik asosida);
- v) budjetning balanslashuvi emas, balki iqtisodiyotning balanslashuvi g‘oyasi.

Keyns nazariyasi retsessiya, ya’ni iqtisodiyotning pasayish davri bilan kurashishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u eng avvalo budjetni tartibga solishda uning vositalari (davlat xarajatlari va transfertlar, ya’ni budjet xarajatlarini oshirish va soliqlarni, ya’ni daromadlarni kamaytirish)dan foydalanishni shart deb hisoblangan va shu sababdan bu nazariya «moliyaviy kamomad» g‘oyasiga asoslangan deb aytish mumkin. Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda 50-60 yillarda bunday keynscha retseptning qo‘llanilishi 70-yillar o‘rtalariga kelib budjet taqchilligining surunkali bo‘lib qolishi va inflatsiya jarayonlarining kuchayishiga olib keldi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yil davomida ham, iqtisodiy davrning turli fazalarida ham budjet taqchilligiga yo‘l qo‘ymaslik, ma’lum bir davrda bunday vaziyat yuzaga kelgan sharoitda esa uning surunkali bo‘lib qolishining oldini olishga qaratilgan keskin chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

8.4. Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish yo‘llari

Davlat budjeti taqchilligi 3 usulda moliyalashtirilishi mumkin:
pul emissiyasi hisobiga;
o‘z mamlakati aholisidan qarz olish hisobiga (ichki qarz);
boshqa mamlakatlardan yoki xalqaro moliyaviy tashkilotlardan qarz olish hisobiga (tashqi qarz hisobiga).

Birinchi usul davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirishning emissiyali yoki pullik usuli hisoblanadi, ikkinchi va uchinchi usul esa majburiyatli usullar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, davlat budjeti kamomadini moliyalashtirishning har qanday usuli o'z afzallik va kamchiliklariga ega va turli mamlakatlar o'z budjet taqchilligini bartaraf etishda u yoki bu usuldan alohida va birgalikda foydalanib, iqtisodiyotdagi mavjud muammolarini hal etishlari mumkin bo'ladi.

8.5. Davlat qarzlari, uning turlari va oqibatlari.

Absolyut miqdori bo'yicha davlat qarzining iqtisodiyotga salbiy ta'sirini aniqlash murakkab masala. Buning uchun davlat qarzi miqdorini milliy daromad kattaligiga yoki YaIMga nisbati olinadi, ya'ni $d=D/Y$. Agar qarzning o'sish darajasi sur'atlari YaIMning o'sish darajasi sur'atlaridan past bo'lsa, qarz unchalik xatarli hisoblanmaydi. Iqtisodiy o'sishning past sur'atlarida davlat qarzlari jiddiy makroiqtisodiy muammoga aylanadi.

Davlat qarzlarning jiddiy muammo ekanligi va uning salbiy oqibatlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- iqtisodiyotning samaradorligi pasayadi, chunki moliyaviy aktivlar ishlab chiqarish sektoridan qarzlarni to'lashga sarflanadi;
- daromadlar xususiy sektordan davlat sektori tomonga qayta taqsimlanadi;
- daromadlarning tengsizligi kuchayadi;
- qarzlarni to'lamaslik oqibatida foiz stavkasi oshadi, oqibatda qisqa muddatda investitsiyalar siqib chiqariladi, uzoq muddatda esa kapital zahiralari va mamlakat iqtisodiy salohiyatining qisqarishi ro'y beradi;
- qarz bo'yicha foizlar to'lash zaruriyati soliqlarni oshirishni talab qilishi iqtisodiy rag'batni susaytiradi;
- uzoq muddatda yuqori darajadagi inflatsiya xavfi tug'iladi;
- kelajak avlodga qarz yukining tushishi ularning farovon yashashiga to'sqinlik qiladi;
- qarz bo'yicha foizlar yoki qarzning asosiy qismini xorijliklarga to'lash YaIM ma'lum bir qismining chetga chiqib ketishiga olib keladi;
- qarz va valuta inqirozi tahdidi tug'ilishi mumkin.

8.6. Davlat sektori tushunchasi. davlat operatsiyalarini o‘lchash. davlat moliyasi statistikasi tizimi

Soliq-budjet sohasi va soliq-budjet siyosatidagi o‘zgarishlar xo‘jalik rivoji va iqtisodiy siyosatida muhim rol o‘ynaydi. Soliq-budjet siyosati yalpi iqtisodiy resurslardan foydalanish va yalpi taklif darajasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Pul-kredit va valuta siyosatlari kabi, u to‘lov balansining holati, qarzdorlik darajasi, inflatsiya sur‘atlari va iqtisodiy o‘shishni belgilaydi.

Soliq sohasi, davlat xarajatlari va qarz olish siyosati ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar hulqi, mamlakat daromadlari va boyliklarini taqsimlashga ta‘sir ko‘rsatadi. Ko‘pincha makroiqtisodiyotning ichki va tashqi sektorlaridagi jiddiy disbalans, turli choralarni qo‘llashga qaramasdan, bartaraf qilinmagan budjet kamomadi sababli kelib chiqadi.

Mamlakatning soliq-budjet sohasidagi umumiy holatiga baho berish, uni barqarorlashtirish va tizimiy islohotlar bilan birgalikda qarab chiqish uchun budjet operatsiyalarini hisobga olish va tahlil qilishning asosiy tamoyillari to‘g‘risida tushuncha bo‘lishi talab qilinadi.

”Davlat moliyasi statistikasi bo‘yicha ko‘rsatmalar” (DMS ko‘rsatmasi)da davlat boshqaruv idoralarining bir nechta darajalari aniqlangan: markaziy hukumat, shtat va mintaqa darajasidagi idoralar, mahalliy idoralar va milliydan yuqori bo‘lgan idoralar.

Davlat sektori – keng ma‘noda davlat boshqaruv sektori bo‘lib, unga davlat boshqaruv sektori va davlat temir va havo yo‘llari yoki davlat kommunal korxonalar kabi davlat nomoliyaviy korxonalar kiritiladi. Markaziy hukumatning ba‘zi daromad va xarajatlari odatda markaziy hukumatning mahalliy idoralar va davlat korxonalariga transfertlari va o‘z navbatida davlat korxonalarining markaziy hukumatga transfertlarini ifodalaydi.

8.7. Daromadlar va xarajatlar tasnifi. Budjet balansi tushunchasi

Umuman olganda, davlat boshqaruv idoralari bajaradigan barcha operatsiyalar daromadlar va xarajatlar turlari bo‘yicha tasniflanadi. Asosiy tasnif iqtisodiy xarakterga ega bo‘lib, yalpi daromadlar va yalpi xarajatlar, joriy va kapital daromadlar va xarajatlarning yig‘indisi sifatida aniqlanadi. Bu kategoriyalarning ichida soliqlar xo‘jalik faoliyatining soliqqa tortiladigan turiga ko‘ra guruhlangan, xarajatlar – ularning nima

maqsadlarga mo'ljallanganligiga ko'ra, masalan, mudofa va maorif guruhlariga ajratiladi. Budjetni tahlil qilishda iqtisodiy tasnif funksional tasnifga nisbatan muhimroq ahamiyatga ega.

Budjet balansining an'anaviy tushunchasi. Agar davlat idoralarining operatsiyalariga naqd pul harakati nuqtai nazaridan qaralsa, yalpi tushum har doim yalpi to'lovlarga teng bo'ladi va shuning uchun davlat idoralarining budjet hisoblari qaysidir ma'noda doimo balanslashgan bo'ladi. Ammo, agar tahlil va qarorlar qabul qilish zarurligidan kelib chiqsak, bir tomondan asosiy e'tiborni tushumlar va grantlar, ikkinchi tomondan sof kreditlashni inobatga olgan holda xarajatlar orasidagi tafovutga qaratish maqsadga muvofiqdir.

8.8. Budjet tahlili. Budjet disbalansini hisoblash.

Kamomadni moliyalashtirish.

Budjet kamomadini aniqlashda DMSdagi umumiy kamomad to'g'risidagi ta'rifdan keng foydalanilsada, budjet balansini o'lchashda barcha kamchiliklardan holis yagona bir usul hozirgacha o'ylab topilmagan. Oldimizda turgan maqsadlardan kelib chiqib, turli tahliliy me'yorlarga asoslangan balans tushunchasining boshqa konsepsiyalaridan foydalanish mumkin. Ko'pincha budjet holatiga baho berishda budjet kamomadining (profisitining) YaIMga foizlardagi nisbatidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkich budjet sohasining holatiga baho berishda ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan eng maqbul deb tan olingan. Biroq, bu an'anaviy usul ham ushbu qo'llanmada berilgan qo'shimcha choralar bilan to'ldirilishi mumkin. U choralar soliq-budjet siyosatining soliqqa tortish va xarajatlar kabi tizimiy qirralarini hisobga olishi lozim.

Balansning talablarga javob beradigan tushunchasini aniqlashda quyidagi omillarga e'tibor berish zarur: disbalansning turi, qamrab olish darajasi (markaziy hukumat, davlat boshqaruvi yoki davlat sektori), buxgalteriya hisobi usuli (kassa yoki o'tkazish usullari) va har qanday shartli majburiyatning holati.

Quyida budjet balansini o'lchashning turli usullarini ko'rib chiqamiz:

- *davlat sektorining qarz mablag'lariga bo'lgan talabini aniqlash;*
- *budjetning joriy balansi (joriy operatsiyalar hisobining balansi);*
- *birlamchi yoki foizsiz balans;*
- *operatsion balans.*

Kamomadni moliyalashtirish.

Davlat budjeti kamomadining makroiqtisodiy holatga ta'siri kamomadni moliyalashtirish xarakteri bilan uzviy bog'liqdir. Yuqorida

ko'rsatilganidek, kamomadni quyidagi to'rtta manba hisobiga moliyalashtirish mumkin: Markaziy bankdan qarz olish yoki emission moliyalashtirish, bank sektoridan qarz olish, bank bo'lmagan sektordan qarz olish, tashqi dunyo sektoridan qarz olish yoki valuta zahiralardan foydalanish.

8.9. Soliq-budjet siyosatining barqarorligi. Daromadlar va xarajatlar tahlili

Oxirgi yillarda iqtisodchi-olimlar orasida soliq-budjet siyosatining barqarorligi masalasi katta qiziqish uyg'otmoqda. Qanday holatlarda soliq-budjet siyosatini nobarqaror deb hisoblash mumkin? Siyosiy qaror qabul qiladigan shaxslar ma'lumoti uchun qanday operatsion indikatorlar ishlab chiqish lozim? Hozirgi paytgacha soliq-budjet siyosatining barqarorligiga yagona ta'rif ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, ko'pchilik mutaxassislar tomonidan joriy va kelgusi budjetlar kamomadi YaIMga nisbatan tez sur'atlarda oshib borsa, olib borilayotgan soliq-budjet siyosati barqaror emas, deb qabul qilingan. Shunday qilib, barqarorlikning eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri qarzning YaIMga nisbati va uning o'sish sur'atlaridir.

Barqarorlik ko'rsatkichlari. Quyida keltirilgan soliq-budjet siyosatining barqarorlik indikatorlari to'lovga qobiliyatlikni ta'minlash uchun qarzning YaIMga nisbatini qanday darajada o'zgarishi lozimligini belgilashga xizmat qiladi. Bunda emission daromadning doimiy darajasi o'zgarmas deb qabul qilinadi:

- *kapitalning sof ijobiy qiymati;*
- *asosiy uzilish;*
- *o'rta muddat bashoratlaridagi soliq bo'yicha uzilish.*

Daromadlar tahlili. Daromadlar va tushumlarning dinamikasiga baho berishda asosiy e'tibor daromadlarning YaIMga nisbati va bu ko'rsatkichni iqtisodiyoti o'xshash bo'lgan boshqa mamlakatlar bilan taqqoslashga qaratiladi.

Soliq tizimini baholash. Mutaxassislar har bir mamlakatning soliq tizimiga baho berishda uning qo'yilgan vazifalarga qanchalik javob berishi va tizimni islohot qilish imkoniyatlarini hisobga olishilari kerak. Soliqqa tortish tizimining asosiy vazifasi daromadlarni to'plash bo'lishiga

qaramasdan, u ko‘pincha boshqa maqsadlarda, masalan, bozor xo‘jaligining kamchiliklarini tuzatish va daromadlarni qayta taqsimlashga ko‘maklashish maqsadlarida ham foydalaniladi. Yuqoridagi maqsadlarni hisobga olgan holda soliq tizimining samaradorligiga baho berish uchun bir nechta me‘yorlar ishlab chiqilgan. Mamlakatning soliq tizimini tahlil qilishda *Tanzi diagnostik testidan* foydalanish mumkin.

Daromadlar tushumining samaradorligiga baho berish uchun Vito Tanzi 8 ta miqdoriy diagnostik testdan foydalanishni taklif qilgan:

1. *Konsentratsiya indeksi*. Yalpi daromadlarning katta qismi nisbatan kam soliqlar soni va soliq stavkalari hisobiga tushadimi?

2. *Dispersiya indeksi*. Faqat noqulaylik tug‘diradigan kam miqdorda tushumli soliqlar soni ozmi (yoki umuman yo‘qmi)?

3. *Eroziya indeksi*. Haqiqiy soliqqa tortish bazasi potensial baza bilan maksimal tarzda mos keladimi?

4. *Yig‘imlarni kechikish indeksi*. Soliq to‘lovchilar soliqlarni aytarlik kechikmasdan va qanchalik o‘z vaqtida to‘laydilar?

5. *Muayyanlik indeksi*. Soliq tizimi muayyan stavkali kam sonli soliq turlariga asoslanganmi?

6. *Obyektivlik indeksi*. Ko‘pchilik soliqlar obyektiv o‘lchash mumkin bo‘lgan soliqqa tortish bazasidan olinadimi?

7. *Soliqlar yig‘ishni ta‘minlash indeksi*. Soliqlar samarali yig‘imi to‘laligicha ta‘minlanadimi?

8. *Soliqlar yig‘ishdagi xarajatlar indeksi*. Soliqlar yig‘ishda budjet xarajatlari minimumga keltirilganmi?

Yuqoridagi savollarning barchasiga ”ha” javobi berilsa, Tanzi testiga ko‘ra, soliq tizimi tushumlarning samaradorligi nuqtai nazaridan eng yuqori bahoga sazovor bo‘ladi.

Xarajatlar tahlili. Davlat xarajatlari davlat idoralarining faoliyatini moliyalashtirishga ketgan xarajatlari bo‘lib, unga davlat idoralari tomonidan tovar bilan ta‘minlash va xizmatlar ko‘rsatish, ishlab chiqarish va transfertlar kiradi. Davlat tovar va xizmatlarni ikki ko‘rinishda taqdim qiladi: bevosita aholi individual yoki kollektiv tarzda iste‘mol qiladigan (masalan, jamoat transporti va milliy parklar) tovar va xizmatlar; ishlab

chiqarish omillaridan yanada samarali foydalanishga xizmat qiladigan tovar va xizmatlar (masalan, sanoat va port inshootlari).

Ko'pchilik xarajat turlari, masalan, infratuzlmaga xarajatlar va yo'llar ikkala kategoriyani qamrab oladi. Pensiya va ishsizlik nafaqasi kabi ba'zi xarajatlar bevosita uy xo'jaligi va tijorat korxonalariga transfertlar ko'rinishida taqdim qilinadi.

Davlat xarajatlarining darajasi va tarkibiga baho berishda tahliliy yondashish talab qilinadi. Bunday tizimli yondashish beshta elementdan iboratdir:

makroiqtisodiy yondashishiga mos keladigan yalpi xarajatlar darajasi va budjet balansi;

ba'zi tovar va xizmatlarni taqdim qilishda xususiy sektordan oqilona foydalanish (davlat tomonidan moliyalashtirish zarur bo'lgan hollarda ham u birinchi navbatda ijtimoiy tovarlarni taqdim qilish, tashqi samarani ta'minlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidan foydalanuvchilarga nafaqa berish, ya'ni xususiy bozor bajarmaydigan yoki yetarli darajada bajarmaydigan vazifalarni hal qilishga yo'naltirishi kerak);

xarajatlarni taqsimlash ham bitta dastur doirasida, ham boshqa dasturlar bilan o'zaro bog'langan holda olinadigan qaytimga asoslanishi lozim;

ushbu dasturga yoki sektorga joriy xarajatlar va kapital qo'yilmalarning puxta tahlili boshqa dasturlar va sektorlarga xarajatlarni oqilona taqsimlanishi bilan bog'langan bo'lishi;

xuddi shunday puxta tahlil budjet institutlariga nisbatan ham talab qilinish lozim. Bunda yalpi xarajatlarni cheklash, samaradorligini oshirish va adolatlikni ta'minlash uchun rag'batlantirish va qo'llanmalardan foydalanish talab qilinadi.

Davlat xarajatlarining turlari. Davlat xarajatlarining asosiy kategoriyalari bo'lib ish haqi, tovar va xizmatlar, subsidiyalar, transfertlar, foiz to'lovlari va kapital qo'yimlarga xarajatlar hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

Soliq-budjet sohasi va soliq-budjet siyosatidagi o'zgarishlar xo'jalik rivoji va iqtisodiy siyosatida muhim rol o'ynaydi. Soliq-budjet siyosati yalpi iqtisodiy resurslardan foydalanish va yalpi taklif darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Pul-kredit va valuta siyosatlari kabi, u to'lov balansining holati, qarzdorlik darajasi, inflatsiya sur'atlari va iqtisodiy o'sishni belgilaydi.

Soliq sohasi, davlat xarajatlari va qarz olish siyosati ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar hulqi, mamlakat daromadlari va boyliklarini taqsimlashga ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha makroiqtisodiyotning ichki va tashqi sektorlaridagi jiddiy disbalans, turli choralarni qo'llashga qaramasdan, bartaraf qilinmagan budjet kamomadi sababli kelib chiqadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasining soliq-budjet sohasida so'nggi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarining asosiy mazmuni nimalardan iborat?
2. Diskret fiskal siyosatining kamchiliklari nimalardan iborat?
3. Budjet taqchilligi va ortiqchaligi qanday paydo bo'ladi, ular qay yo'sinda tugatiladi?
4. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosatning qisqa va uzoq muddatdagi natijalarini tushuntirib bering.

9-BOB.	ISHSIZLIK VA INFLATSIYA DARAJASINING IQTISODIY TAHLILI
---------------	---

9.1. Aholining asosiy kategoriyalari

Makroiqtisodiy beqarorlik vaziyati yuzaga kelib, iqtisodiy rivojlanish pasayish tomon o'zgarib, iqtisodiy resurslardan to'liq foydalanmaslik oqibatida ishsizlik muammosi yuzaga kelishi mumkin. Ishsizlarni aniqlash uchun eng avvalo aholining asosiy toifalarini ko'rib chiqish lozim bo'ladi.


Mamlakat aholisi (population – POP) makroiqtisodiy nuqtai nazardan ikki toifaga ajratiladi:

ishchi kuchi tarkibiga kiritiladigan aholi (labour force - **L**);

ishchi kuchi tarkibiga kiritilmaydigan aholi (non-labour force - **NL**)

$$\mathbf{POP = L + NL}$$

Aholining «band bo'lganlar», «ishsizlar» va «ish kuchi tarkibiga kiritilmaydiganlar» toifalari o'rtasida doimiy ravishda aloqa mavjud bo'lib, ularga o'zaro bir-biri bilan o'rin almashish jarayonlari xosdir (8. 1. 1-rasm).



9.1.1-rasm. Aholining turli toifalari o'rtasida o'zaro aloqadorlik³³

Ishsizlikni belgilab beradigan asosiy ko'rsatkich bu – ishsizlik darajasi hisoblanadi. Ishsizlik darajasi (rate of unemployment - **u**) ishsizlar sonini umumiy ishchi kuchi soni (band bo'lganlar va ishsizlar soni yig'indisi)ga nisbati bilan aniqlanib, foizlarda ifodalanadi:

³³ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

$$u = \frac{U}{L} \cdot 100\% \quad \text{yoki} \quad u = \frac{U}{E + U} \cdot 100\%$$

bunda,

u – ishsizlik darajasi;

U - ishsizlar soni;

L - umumiy ishchi kuchi soni;

E – band bo‘lganlar soni.

Umuman olganda, ishsizlik barcha mamakatlar uchun salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keluvchi jiddiy makroiqtisodiy muammo hisoblanadi. Shuning uchun turli mamlakatlar ishsizlik darajasini uning tabiiy darajadan yuqori darajada bo‘lmasligining yo‘llarini izlash maqsadida turli davrlarda chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqadilar.

9.2. Ishsizlikning kelib chiqish sabablari va uning asosiy turlari. **Tabiiy ishsizlik darajasi**

Odatda ishsizlik kelib chiqishining asosiy uchta sababi keltiriladi:

ish yo‘qotish (ishdan bo‘shatilishi tufayli);

ish joyidan ixtiyoriy ravishda ketish;

mehnat bozoriga birinchi marotaba murojaat etish.

Ishsizlikning asosan uch turi mavjud bo‘lib ularga: friksion, strukturaviy va davriy ishsizlik kiritiladi.

Friksion ishsizlik («friksiya» so‘zidan olingan bo‘lib, ishqalanish ma’nosini anglatadi) deganda ish qidirish bilan bog‘liq ishsizlikni tushunmoq darkor. Ish qidirish juda ko‘p vaqt va harakatni talab etgani sababli, kishilar ma’lum vaqt ishsiz bo‘lib yuradilar.

Tarkibiy ishsizlik iqtisodiyotda ro‘y berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Bunday o‘zgarishlar esa o‘z navbatida: a) turli tarmoqlar mahsulotlariga bo‘lgan talabdagi tarkibiy o‘zgarishlarga va b) ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bog‘liq iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy o‘zgarishlariga bog‘liqdir.

Ishsizlikning tabiiy darajasi (natural rate of unemployment – u^*) – bu ishchi kuchlarining to‘liq bandligi (full-employment) ta’minlangandagi darajasi bo‘lib, ulardan samarali va ratsional foydalanilayotganlikni bildiradi. Bu degani, barcha ishlashni xohlovchilar ish topish imkoniyatiga ega bo‘ladilar va ish bilan ta’minlanadilar. Shuning uchun ishsizlikning tabiiy darajasini *to‘liq bandlik (full-employment rate of unemployment) sharoitidagi ishsizlik darajasi* deyadilar va tabiiy ishsizlik darajasiga mos keluvchi ishlab chiqarish

hajmini esa *tabiiy ishlab chiqarish* hajmi (natural output) deb ataydilar. Iqtisodiyotda to‘liq bandlik sharoitida faqatgina friksion va strukturaviy ishsizlik mavjud ekan, u holda tabiiy ishsizlik ularning yig‘indisidan iborat bo‘ladi:

$$u^* = u_{\text{фрикц}} + u_{\text{структ}} = \frac{(U_{\text{фрикц}} + U_{\text{структ}})}{L} \cdot 100\%$$

bunda,

u^* – ishsizlik darajasi;


$U_{\text{фрикц}}$ – friksion ishsizlik turidagi ishsizlar soni;

$U_{\text{структ}}$ - tarkibiy (strukturaviy) ishsizlik turidagi ishsizlar soni;

L - umumiy ishchi kuchi soni.

Ishsizlikning tabiiy darajasi ko‘rsatkichi zamonaviy ba’zi tushuntirishlarda *inflatsiya darajasini tezlashtirmaydigan ishsizlik darajasi* deb ham yuritiladi (NAIRU, ya’ni non – accelerating inflation rate of unemployment). Buni tushuntirish uchun iqtisodiy o‘sish va davriylik grafigidan foydalanamiz.

9.2.1-rasmda keltirilgan chizmada trendning har bir nuqtasi potensial YaIM darajasini yoki resurslarning to‘liq bandligini anglatadi (B va C nuqtalar). Sinusoidadagi, ya’ni iqtisodiy siklni tasvirlovchi har bir nuqta (A va D nuqtalar) esa haqiqiy YaIM hajmini bildiradi. Agar haqiqiy YaIM hajmi potensialdan yuqori bo‘lsa (A nuqta), ishsizlikning haqiqiy darajasi tabiiy darajadan past bo‘ladi, yalpi talab yalpi ishlab chiqarish hajmidan yuqori bo‘ladi va bu holat yuqori darajadagi bandlikka olib keladi. B nuqtadan A nuqtaga o‘tilganda narxlar darajasi ortib boradi, ya’ni inflatsiya jarayoni tezlashadi. Iqtisodiyot potensial ishlab chiqarish darajada (to‘liq bandlik sharoitida), ya’ni tabiiy ishsizlik sharoitida bo‘lganda inflatsiya jarayoni tezlashmaydi.




9.2.1-rasm. Davriy tebranishda ishsizlik va inflatsiya³⁴

³⁴ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

Haqiqiy ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ortib ketish jarayoni kuzatilsa, u holda iqtisodiyotda pasayish, ya'ni *retsessiya* holati yuz beradi. Retsessiya sababli yuzaga kelgan ishsizlik ***davriy ishsizlik*** deyiladi.

Ixtiyoriy va majburiy ishsizlik. Ishsizlikni turli xil iqtisodiy yo'nalish vakillari o'z makromodellarida turlicha talqin qiladilar. Masalan klassik model vakillarining fikricha, ishsizlik ishchilarning ma'lum bir ish haqi darajasida ishlashni xohlamasliklari tufayli yuzaga keladi. Shuning uchun, ya'ni ishchilar o'z xohishlari bo'yicha ishlashdan voz kechar ekanlar, demak klassik modelda ishsizlik ixtiyoriy xarakterga ega bo'ladi.

Ammo klassiklardan farqli ravishda neoklassik yo'nalish vakillari ishsizlikning bir qismi majburiy xarakterga ega ekanligini tan oladilar va bunday ishsizlikni *kutish bilan bog'liq bo'lgan ishsizlik* (wait unemployment) deb ataydilar. Kutish bilan bog'liq bo'lgan ishsizlikning kelib chiqish sababi mehnat bozorida muvozanatning buzilishi, ya'ni real ish haqi stavkasining muvozanat darajadan yuqori belgilanishida deb tushuntiriladi.



9.2.2-rasm. Kutish bilan bog'liq ishsizlik (neoklassik nazariya)³⁵

bunda,

W – ish haqi stavkasi;

L_f - to'liq bandlik darajasidagi ishchi kuchi soni;

L_1 - taklif mehnatga bo'lgan talabdan ortiq bo'lgandagi ishchi kuchi soni;

L^D – mehnatga bo'lgan talab;

³⁵ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

L^S – mehnat taklifi.

(W_0) ga teng bo‘lgan ish haqi stavkasida (9.2.2- rasm) mehnat bozori ishchi kuchining to‘liq bandligi darajasida (L_f) muvozanat holatida bo‘ladi. Ammo ish haqi darajasi (W_1)da o‘rnatilsa, u holda taklif (L_f) mehnatga bo‘lgan talabdan ortiq bo‘ladi va faqatgina L_1 ga teng bo‘lgan ishchi kuchi ishga yollanadi. L_1 va L_f orasidagi farq kutish bilan bog‘liq ishsizlikni tashkil etadi va bunday ishsizlik ish haqi darajasi yana muvozanatga kelganda, ya’ni (W_0) ga teng bo‘lganda bartaraf etiladi.

9.3. Ishsizlik oqibatlari. O‘zbekistonda ishsizlikni bartaraf etishning davlat siyosati.

Ishsizlik oqibatlari. Davriy ishsizlikning mavjud bo‘lishi jiddiy makroiqtisodiy muammo bo‘lib, makroiqtisodiy beqarorlikni va mavjud resurslar to‘liq bandlik sharoitida ishlatilmayotganligining yorqin ifodasi hisoblanadi.

Ishsizlikning iqtisodiy va noiqtisodiy oqibatlari mavjud bo‘lib, ular individual va umumjamiyat darajalarda namoyon bo‘ladi. Ishsizlikning noiqtisodiy oqibatlari – bu ish yo‘qotishning psixologik, ijtimoiy va siyosiy oqibatlaridir.

Individual darajada ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari kishining o‘z daromadidan mahrum bo‘lishida, o‘z kasbiy malakasini yo‘qotishida (ayniqsa zamonaviy kasblarni egallagan shaxslar uchun) namoyon bo‘ladi.

Ishsizlikning umumjamiyat darajadagi iqtisodiy oqibatlariga YaIMning potensial darajada ishlab chiqarilmasligida namoyon bo‘ladi. Davriy ishsizlikning mavjudligi (haqiqiy ishsizlik darajasi tabiiy ishsizlikdan yuqori bo‘lgan vaziyat) resurslar to‘liq ishlatilmayotganligini bildiradi. Shuning uchun bunday sharoitda haqiqiy YaIM potensial YaIMdan kam bo‘ladi. Haqiqiy YaIMning potensial YaIMdan ortda qolishi (uzilishi) quyidagicha hisoblanadi:

$$GDP = \frac{Y - Y^*}{Y^*} \cdot 100\%$$

bunda,

Y– haqiqiy YaIM;

Y^* - potensial YaIM.

60-yillardagi AQSh prezidenti Kennedining maslahatchisi, iqtisodchi olim Artur Ouken (A. Okun) bir necha o‘n yillik statistik ma’lumotlar asosida ishlab chiqarish hajmining ortda qolishi va davriy ishsizlik

o‘rtasidagi empirik bog‘liqlikni o‘rgandi va iqtisodiy adabiyotlarda «Ouken qonuni» deb nom olgan qonuniyatni yaratdi.

$$\frac{Y - Y^*}{Y^*} = -\beta(u - u^*)$$

Tenglamaning chap qismida YaIMning uzilish formulasi yozilgan.

Tenglamaning o‘ng qismida:

u – ishsizlikning haqiqiy darajasi;

u^* - ishsizlikning tabiiy darajasi;

$(u - u^*)$ – davriy ishsizlik darajasi;

β - *Ouken koeffitsienti* ($\beta > 0$).

Ushbu koeffitsient agarda ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan 1%ga ortgan sharoitda, haqiqiy YaIM potensial YaIMga nisbatan necha foizga kamayganini ko‘rsatadi. AQSh iqtisodiyoti uchun ushbu koeffitsient o‘sha yillarda A. Ouken hisobi bo‘yicha 2. 5-3%ni tashkil etgan.

O‘zbekistonda ishsizlikni bartaraf etishning davlat siyosati. Ishsizlik jiddiy makroiqtisodiy muammolardan biri bo‘lganligi va makroiqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqarganligi sababli davlat ishsizlikni bartaraf etish uchun muhim chora-tadbirlar ishlab chiqadi. Ishsizlikning kelib chiqish sabablari turlicha bo‘lganligi uchun, har qaysi davlat uning har bir turi uchun alohida chora-tadbirlar ishlab chiqishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ishsizlikning barcha turlari uchun umumiy bo‘lgan chora-tadbirlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

ishsizlik bo‘yicha nafaqalar to‘lash;

bandikni ta‘minlovchi xizmatni tashkil etish (ishga joylashtirish bo‘yicha tashkilot).

9.4. Inflatsiya va uning ko‘rsatkichlari.

Inflatsiya turlari

Inflatsiya va uning ko‘rsatkichlari. *Inflatsiya* («inflation») italyancha «inflatio» so‘zidan olingan bo‘lib, «bo‘rtish, ko‘tarilish» ma‘nosini anglatib, umumiy narxlar darajasining barqaror o‘sish tendensiyasini bildiradi.

Inflatsiyaning asosiy ko‘rsatkichi - inflatsiya sur‘ati yoki darajasi (rate of inflation - π) hisoblanib, u joriy va oldingi yil narxlar darajasi foizdagi farqining oldingi yil narxlar darajasining foiziga nisbati va 100%ga ko‘paytirish orqali aniqlanadi:

$$\pi = \frac{P_t - P_{t-1}}{P_{t-1}} \cdot 100\%$$

yoki $\pi = \frac{\Delta P}{P_{t-1}} \cdot 100\%$ yoki $\pi = \left(\frac{P_t}{P_{t-1}} - 1 \right) \cdot 100\%$

bunda,


π - inflatsiya sur'ati yoki darajasi;

P_t - joriy yildagi umumiy narxlar darajasi (YaIM deflyatori);

P_{t-1} – oldingi yil narxlarining umumiy darajasi (YaIM deflyatori).

Inflatsiya turlari. O'lchov mezoniga ko'ra, inflatsiya bir necha turlarga bo'linadi. Agarda o'lchov mezonini inflatsiya sur'atlari (darajasi) bo'lsa, u holda inflatsiya quyidagi turlarga ajratiladi: mo'tadil inflatsiya, sakrab chopuvchi inflatsiya, yuqori darajadagi inflatsiya va giperinflatsiya.

Tanqislik (defitsit) inflatsiya ko'rinishining bir shakli bo'lib xizmat qiladi, chunki inflatsiyani xarakterlovchi xususiyatlardan biri pullar to'lov qobiliyatining pasayishi hisoblanadi. Defitsit pullarning to'lov qobiliyati yo'qligini, ya'ni kishilar ularga hech narsa xarid qila olmasliklarini anglatadi.



9.4.1-rasm. Bostirilgan (yashirin) inflatsiya³⁶

bunda,

AD – yalpi talab;

AS – yalpi taklif;

P_M – muvozanatli bozor narxi, bunda yalpi talab yalpi taklifga teng;

³⁶ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

P_G – davlat tomonidan o‘rnatilgan narxlar darajasi;
 Y^S – yalpi taklif;
 Y^D – yalpi talab;
 Y^D va Y^S o‘rtasidagi farq – bu tovarlar tanqisligini ifodalovchi kattalik.

9.5. Inflatsiyaning kelib chiqish sabablari va oqibatlari. **Inflatsiya xarajatlari.**


Odatda inflatsiyaning ikki asosiy sababi keltirib o‘tiladi:

- 1) yalpi talabning ortishi;
- 2) yalpi taklifning kamayishi.

Umumiy narxlar darajasining oshishiga olib kelgan sababga ko‘ra inflatsiyani ikki turga ajratadilar:

- a) talab inflatsiyasi
- b) xarajatlar inflatsiyasi.

Narxlar darajasini real ishlab chiqarish hajmiga ko‘paytmasi ($P \times Y$) nominal ishlab chiqarish hajmi (real YaIM)ni beradi. Muomaladagi pullar tezligi odatda o‘zgarmas kattalik hisoblanadi, shuning uchun pullar taklifining ortishi, ya’ni tenglama chap qismining ortishi uning o‘ng qismining oshishiga olib keladi. Pul hajmining ortishi qisqa muddatda ham (chunki zamonaviy qarashlarga ko‘ra yalpi taklif egri chizig‘i yuqoriga, ya’ni musbat yo‘nalishga ega), uzoq muddatda (yalpi taklif egri chizig‘i vertikal yo‘nalishga ega) ham narxlar darajasining oshishiga olib keladi. Bunda qisqa muddatda inflatsiya real ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan kuzatilsa, uzoq muddatda real ishlab chiqarish hajmi o‘zgarmaydi va o‘zining tabiiy (potensial) hajmiga teng bo‘ladi.



9.5.1-rasm. Talab inflatsiyasi³⁷

³⁷ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

bunda,

AD – yalpi talab;


SRAS – qisqa muddatdagi yalpi taklif chizig‘i;

P – umumiy narxlar darajasi;

Y – milliy ishlab chiqarishning real hajmi;

LRAS – uzoq muddatdagi yalpi taklif chizig‘i.

Agar inflatsiya yalpi taklifning qisqarishi oqibatida yuzaga kelgan bo‘lsa (ya’ni xarajatlarning ortishi oqibatida yuz bersa), u holda bunday inflatsiya xarajatlar inflatsiyasi deb ataladi (cost-push inflation). Xarajatlar inflatsiyasi *stagflatsiya* holatiga olib keladi, ya’ni bu – bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarishning pasayib ketishi va narxlar darajasining oshishidir (9.5.2-rasm).



9.5.2-rasm. Taklif (xarajatlar) inflatsiyasi³⁸

bunda,

R – narxlar darajasi;

Y – milliy ishlab chiqarishning real hajmi;


AD – yalpi talab;

SRAS – qisqa muddatda yalpi taklif.

Talab inflatsiyasi va xarajatlar inflatsiyasining birlashuvi natijasida *inflation spiral* hosil bo‘ladi (9.5.3 - rasm). Faraz qilaylik, markaziy bank pul taklifini ko‘paytirdi, bu esa yalpi talabning ortishiga olib keladi. Yalpi talab egrisi AD_1 o‘ngga, ya’ni AD_2 ga siljiydi. Natijada narxlar darajasi R_1 dan R_2 ga ko‘tariladi, qisqa muddatda ish haqi stavkasi o‘zgarmas bo‘lganligi sababli (masalan, W_1), bunday holatda real daromadlar

³⁸ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

pasayadi (real daromad = nominal daromad/narxlar darajasi, ya'ni narxlar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, real daromadlar shunchalik past bo'ladi).



9.5.3-rasm. Inflatsiyali spiral³⁹

bunda,

R – narxlar darajasi; AD – yalpi talab;

Y – milliy ishlab chiqarishning real hajmi;

SRAS – qisqa muddatda yalpi taklif.

Ishchilar ish haqi stavkasi darajasini narxlar darajasiga proporsional ravishda oshirilishini talab qiladilar (masalan, W_2 gacha). Bu o'z navbatida firmalar xarajatlarining ortishiga olib keladi va yalpi taklif egrisi - SRAS₁ ning chapga va yuqoriga - SRAS₂ gacha siljishiga olib keladi. Bunda narxlar darajasi R_3 gacha ko'tariladi. Real daromadlar yana pasayadi ($W_2/P_3 < W_2/P_2$).

Inflatsiyaning oqibatlari. Inflatsiya tufayli yuzaga keladigan asosiy muammolarga quyidagilarni keltirish mumkin: 1) *real daromadlarning pasayishi* va 2) pullar xarid qobiliyatining tushib ketishi.

Daromadlar real va nominal daromadlarga ajratiladi. *Nominal daromad* – bu iqtisodiy resurs egalarining o'z resurslarini sotishlari evaziga oladigan pul daromadlaridir. *Real daromad* – bu kishilarning o'z nominal daromadlariga (olgan pullari hajmiga) hozirda real sotib olishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlari miqdoridir.

³⁹ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

Real daromad= Nominal daromad / Narxlar darajasi

yoki

Real daromad= Nominal daromad / $1+\pi$

bunda, π – inflatsiya darajasi.

Tovar va xizmatlarning narxlar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, kishilar o'z nominal daromadlariga endilikda shunchalik kam miqdorda ularni xarid qila oladilar, shuning uchun ularning real daromadlari pasayib ketadi. Ayniqsa, giperinflatsiyaning salbiy oqibatlari nafaqat kishilarning real daromadlari pasayishiga, balki kishilar turmush darajasining keskin tushib ketishiga olib kelishini tarixiy dalillar misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Inflatsiya xarajatlari. Inflatsiya jarayoni jiddiy xarajatlar bilan bog'liq bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

«eskirgan oyoq-kiyimlar» xarajatlari (*shoe leather costs*).

«menyu» xarajatlari (*menu costs*).

Kutilayotgan va kutilmagan inflatsiya. Inflatsiyaning oqibatlari kutilayotgan (*expected*) yoki kutilmagan (*unexpected*)ligiga ko'ra turlicha bo'ladi. Kutilayotgan inflatsiya sharoitida iqtisodiy agentlar o'z hatti-harakatlari orqali o'zlarining real daromadlari va pullarining qadrsizlanishini kamaytirishga, ya'ni minimallashtirishga erishishlari mumkin. Masalan, kutilayotgan inflatsiya sur'atlariga proporsional ravishda ishchilar o'z ish haqlari darajasini ko'tarilishini, firmalar o'z mahsulotlariga narxlarni ko'tarishni talab qilishlari mumkin. Kreditorlar kreditlarni real foiz stavkasi (kredit bo'yicha real daromad) - r va kutilayotgan inflatsiya darajasi π^e yig'indisiga teng bo'lgan nominal foiz stavkasi (Rn)da berishga tayyor bo'ladilar:

$$Rn = r + \pi^e$$

bunda,

r – real foiz stavkasi;

π^e - kutilayotgan inflatsiya darajasi.

9.6. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida inflatsiya jarayonlari va aksinflatsiya siyosati xususiyatlari.

Inflatsiyaning salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari turli mamlakatlarda qat'iy aksinflatsiya siyosat olib borishlikni taqazo etadi. Bunda iqtisodchilar birinchi navbatda inflatsiyani keskin chora-tadbirlar ko'rib «bartaraf etish» yoki unga «moslashish kerak» degan savolga javob topishga harakat qiladilar. Inflatsiyani bartaraf etishda davlat fiskal va


pul-kredit siyosatining mavjud dastaklaridan oqilona foydalanishga harakat qilsa, inflatsiyaga moslashishda masalan, indeksatsiyadan keng foydalanadi va shu tariqa aholi qo‘lidagi naqd pullarning keskin darajada qadrsizlanishining oldi olinadi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti inflatsiyali xarakterga ega, chunki unda inflatsiyaning barcha omillarini bartaraf etishning imkoni cheklangan bo‘ladi (budget taqchilligi, monopoliyalar, xalq xo‘jaligidagi nomutanosibliklar, aholi va tadbirkorlarning inflatsiyali kutishlari va boshqalar). Real hayotda inflatsiyani to‘liq va batamom yo‘q qilib bo‘lmaydi, ammo uning sur‘atlarini barcha mamlakatlar mo‘tadil darajada ushlab turish, uni nazorat qilishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yadilar va shuning uchun aksinflatsiya siyosatini olib boradilar.

9.7. Ishsizlik darajasi va inflatsiya sur‘ati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Fillips egri chizig‘i.

Inflatsiya va ishsizlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni Fillips egri chizig‘i yordamida tasvirlash mumkin.

Inflatsiya sur‘atlarining o‘zgarishi, aniqrog‘i, ish haqining o‘sish sur‘atlari va ishsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni O. Fillips tadqiq qilgan (9.7.1–rasm).



9.7.1-rasm. Qisqa muddatda Fillips egri chizig‘i⁴⁰

bunda,


u - ishsizlik darajasi;

W - ish haqining o‘sish sur‘atlari.

⁴⁰ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

Gorizontaal o‘q bo‘ylab Fillips ishsizlik darajasi (unemployed - u) ni, vertikal o‘q bo‘yicha esa ish haqining o‘shish sur‘atlari (W)ni belgiladi. Yuksalish davrida ish haqining yuqori o‘shish sur‘atlari va ishsizlikning past sur‘atlari ($W_1; u_1$), davriy tebranishning pasayish fazasida esa aksincha, - ish haqining past va ishsizlikning yuqori sur‘atlari ($W_2, ; u_2$) kuzatildi. O‘rtacha holat ($W_0; u_0$) ish haqi va ishsizlik sur‘atlarining eng maqbul (optimal) barqaror iqtisodiy rivojlanish vaziyatini aks ettiradi. Ya‘ni, bunday vaziyatda ikkala ko‘rsatkichning minimal darajasiga erishiladi.

Keyinchalik Fillips egri chizig‘i modifikatsiya qilingan: taniqli iqtisodchi olimlar P. Samuelson va R. Solou ish haqi sur‘atlarini narxlarning o‘shish darajasiga yoki inflatsiyaga o‘zgartirdilar (8. 7. 2-rasm).




9.7.2-rasm. Modifikatsiyalangan qisqa muddatdagi Fillips egri chizig‘i⁴¹

Bunday yangi ko‘rinishdagi modifikatsiyalangan Fillips egri chizig‘ining gorizontaal o‘qi bo‘ylab ular ishsizlik darajasini (u), vertikal o‘qi bo‘ylab tovar va xizmatlar narxlarining o‘shish sur‘ati (R)ni belgiladilar. Endilikda bu chizma davriylikning turli fazalarida inflatsiya va ishsizlik darajalari tebranishlarini aniqroq aks ettirdi. Yuksalish fazasida ($R_1; u_1$) inflatsiya sur‘atlari ko‘tariladi, ishsizlik esa kamayadi. Pasayish fazasida ($R_2; u_2$) ishsizlik ko‘payib, inflatsiya sur‘atlari pasayadi.

⁴¹ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

«Stagflatsiya» atamasi ikki soʻzning yigʻindisidan tashkil topgan: stagnatsiya (turgʻunlik) va inflatsiya. Grafikda u qisqa muddatdagi Fillips egri chizigʻini (shot-term Phillips curve) koordinatalar oʻqiga nisbatan oʻngga siljiganligi bilan tushuntiriladi (9.7.3-rasm).



9.7.3-rasm. Stagflatsiyaning grafik izohi⁴²

bunda,

SPhC - qisqa muddatdagi Fillips egri chizigʻi;


u - ishsizlik darajasi;

R – narxlar darajasi.

Bunday holatda qisqa muddat Fillips egrisining yangi punktir chizigʻi (SPhC₂) dagi har bir nuqta uning uzluksiz chizigʻi (SPhC₁) dagi har bir nuqtasidan yanada yuqoriroq boʻlgan inflatsiya va ishsizlik darajalari bilan farq qiladi.

Tabiiy ishsizlik darajasi nazariyasi uzoq muddatda moʻtadil inflatsiya darajasiga ishsizlikning tabiiy darajasida erishish mumkinligini, u esa oʻz navbatida mehnat bozori holatiga bogʻliq ekanligini tasdiqlaydi. Bu nazariyaga asosan, Fillips egri chizigʻi uzoq muddatda vertikal koʻrinishga ega. Bunda ishsizlikning tabiiy va haqiqiy darajalari mos kelganda mehnat bozori kuchlari muvozanatga keladi, narxlarning haqiqiy darajasi yoki inflatsiya bashorat (prognoz) koʻrsatkichiga teng boʻladi (9.7.4-rasm).

⁴² N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. Oʻquv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018



9.7.4-rasm. Uzoq muddatda Fillips egri chizig‘i⁴³

bunda,

SPhC – qisqa muddat oralig‘ida Fillips egri chizig‘i;

LPhC - uzoq muddat oralig‘ida Fillips egri chizig‘i;

u^* - to‘liq bandlik holati.

Uzoq muddatda Fillips egri chizig‘i (LPhC)ni grafikda tushuntirishda uning qisqa muddatdagi egrisi (SPhC) punktir yordamida tasvirlansa, tahlilimizni anglash osonlashadi. Uzoq muddat oralig‘ida Fillips egri chizig‘i (LPhC – long-term Phillips curve) uzluksiz vertikal chiziq ko‘rinishiga ega bo‘ladi, bunda u to‘liq bandlik holatini aks ettiradi (u^*).

9.8. Inflatsiyaga qarshi siyosat va inflatsion targetlashning ahamiyati

9.8.1. Inflatsiya xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar

P. Graud va M. Polan inflatsiyaning miqdoriylik nazariyasi qoidalaridan biri bo‘lgan - pullarning o‘shish sur‘ati va inflatsiya darajasi o‘rtasida to‘g‘ri mutanosiblik mavjud, degan qoida to‘g‘ri va statistik ma‘lumotlarda tasdiqlanadi, degan xulosaga keldilar.

Ayni vaqtda, tadqiqot mualliflari inflatsiya darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda pullar taklifining o‘shish sur‘ati va inflatsiya o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikning mavjud emasligini aniqlashdi, ya‘ni korrelyatsiya koeffitsientining nolga yaqinligi ma‘lum bo‘ldi. Buning sababi sifatida e‘tirof etildiki, rivojlangan moliya bozorlariga ega bo‘lgan va hukumatga ishonch darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda past inflatsiya sharoitida pulning aylanish tezligining o‘zgarishi ekzogen

⁴³ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

omillar ta'sirida yuz beradi. Demak, pullar taklifi ekzogen omillar tufayli yuzaga kelgan pullarga bo'lgan talabning o'zgarishiga moslashadi.

Tadqiqot mualliflarining fikriga ko'ra, Markaziy bank mustaqillik darajasining yuqori ekanligi va pul agregatlarini monitoring qilish tizimining rivojlanganligi pullar taklifi hajmini nazorat qilish imkonini beradi. Shuning uchun pullar taklifining o'sishi pullarga bo'lgan talabning o'sishiga nisbatan o'ziga xos reaksiya hisoblanadi va baholarning o'sishiga olib kelmaydi.

Iqtisodiy adabiyotda inflatsiya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi aloqadorlik masalasida keskin munozarali fikrlar, xulosalar mavjud. Bir guruh iqtisodchi olimlar, shu jumladan, G. Xess va Ch. Morrislarning fikriga ko'ra, baholarning sezilarsiz darajadagi o'sishi ham iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi⁴⁴. Ularning fikriga ko'ra, baholarning unchalik sezilarli darajada bo'lmagan o'sishi ham inflatsiya dinamikasidagi noaniqlikni kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklari kreditlari foiz stavkasining o'sishiga olib keladi. Chunki kreditlarning foiz stavkasi o'zida nafaqat kutilayotgan inflatsiyani, balki risk uchun qo'shimcha ustamani ham aks ettiradi. Natijada, mamlakatdagi iqtisodiy faollikka va aholining turmush darajasiga nisbatan kuchli salbiy ta'sir yuzaga keladi.

Ikkinchi guruh iqtisodchi olimlar esa (prof. M. A. Pivovarova, A. Kudrin va boshq.) inflatsiyaning ma'lum darajasi sharoitida iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lishi mumkin, deb hisoblaydilar. Masalan, prof. M. Pivovarovaning fikriga ko'ra, inflatsiyaning uncha yuqori bo'lmagan darajasi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, bunday sharoitda antiinflatsion siyosatni amalga oshirish ishsizlikning o'sishiga, iqtisodiyotning pasayishiga olib keladi⁴⁵. Bunday sharoitda, odatda, pullar taklifi ustidan qattiq nazorat o'rnatiladi.

XVF ekspertlarining xulosasiga ko'ra, rivojlangan davlatlarda inflatsiya yillik darajasining 3 foizdan oshishi iqtisodiy o'sish sur'atlarining sezilarli darajada sekinlashishiga olib keladi⁴⁶.

⁴⁴ Hess G., Morris C. The Long-Run Costs of Moderate Inflation // Federal Reserve Bank of Kansas City Economic Review. 1996. Second Quarter. – P. 71-88.

⁴⁵ Пивоварова М.А. Международная научно-практическая конференция: “Инфляция и экономический рост: теория и практика” // Деньги и кредит. – Москва, 2006. - №7. – С. 60.

⁴⁶ Khan M. Senhadji. Thershild Effects in the Relatioinshop between Inflation and Growth // IMF Staff Papers. 2001. Vol. 48. - P.1-21.

9.8.2. Inflatsiyaga qarshi kurash siyosati

Inflatsiyaga qarshi kurash siyosatining asosiy maqsadi bo'lib, inflatsiya ustidan nazorat o'rnatish va inflatsion jarayonlarning chuqurlashishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

Inflatsiyaga qarshi kurash siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Inflatsiyani yuzaga keltiruvchi monetar va nomonetar omillarning haqiqatdagi darajasiga baho berish.

2. Tabiiy monopoliyalar mahsulotlari va xizmatlari baholarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish.

3. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholining inflatsion kutish psixologiyasiga barham berish.

4. Moliya bozorlarini rivojlantirish va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish.

5. Pul massasining o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlash.

Inflatsiyani yuzaga keltiruvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasida budget tashkilotlari xodimlari ish haqining o'sishi bilan iste'mol tovarlari baholarining o'sishi o'rtasidagi bevosita bog'liqlik mavjud.

2. Respublikamizda talab inflatsiyasining kuchayishi natijasida YaIM deflyatorining yuqori darajasi saqlanib qolmoqda.

3. Fuqarolarimizning xorijiy davlatlardan jo'natayotgan pul o'tkazmalari inflatsiyani yuzaga keltirayotgan omillar ichida asosiy o'rinni egallamoqda.

4. Tabiiy monopoliyalar mahsulotlari va xizmatlari baholarining o'sish sur'atlariga ega ekanligi inflatsion jarayonlarning yuzaga kelishida muhim o'rin tutmoqda.

5. Naqd pullarga bo'lgan talabning nisbatan yuqori ekanligi.

6. Pul-kredit siyosatini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarning mavjudligi.

9.8.3. Inflatsion targetlashning mohiyati

Inflatsion targetlash deganda inflatsiyaning maqsadli ko'rsatkichini belgilab olib, unga erishish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning yig'indisi tushuniladi.

Inflatsion targetlashda Markaziy bank dastlab inflatsiyaning maqsadli ko'rsatkichini belgilab oladi va unga erishish davrini rasman e'lon qiladi.

Inflatsion targetlash muvaffaqiyatli qo'llanilgan davlatlar sifatida Yangi Zelandiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Finlandiya, Shvetsiya, Avstraliya va Ispaniyani ko'rsatish mumkin.

Shunisi xarakterliki, mazkur mamlakatlarda inflatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi turlicha ifodalandi. Avstraliya, Finlandiya va Shvetsiyada Markaziy bank inflatsiyaning maqsadli ko'rsatkichini hukumatning qo'llab-quvvatlash xususidagi roziligini olmasdan turib e'lon qildi. Kanada va Yangi Zelandiyada inflatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi Markaziy bank va Moliya vazirligining o'zaro kelishuvi asosida ishlab chiqildi. Ammo shuni e'tirof etish joizki, inflatsiyaning maqsadli ko'rsatkichidan pul-kredit siyosatining indikator sifatida foydalanishning mumkinligi biror-bir Markaziy bankning Nizomida o'z aksini topmagan. Shu sababli, bu masalani huquqiy jihatdan maqsadga muvofiqligi markaziy banklar faoliyatining bosh maqsadi orqali izohlanadi, ya'ni inflatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi orqali uni jilovlash Markaziy bankning bosh maqsadiga – milliy valutaning barqarorligini ta'minlash va jamiyatda baholar barqarorligiga erishishga xizmat qiladi.

Qisqacha xulosalar

Inflatsiya va ishsizlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni Fillips egri chizig'i yordamida tasvirlash mumkin.

Inflatsiya sur'atlarining o'zgarishi, aniqrog'i, ish xaqining o'sish sur'atlari va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni O. Fillips tadqiq qilgan.

Keyinchalik Fillips egri chizig'i modifikatsiya qilingan: taniqli iqtisodchi olimlar P. Samuelson va R. Solou ish haqi sur'atlarini narxlarning o'sish darajasiga yoki inflatsiyaga o'zgartirdilar

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 2019 yil 5 fevraldagi Farmonining asosiy mazmuni nimalardan iborat?
2. Fillips egri chizig'i qaysi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi? Bu bog'liqlik qanday tavsiflanadi?
3. Antiinflatsiya siyosatining mohiyati nimalardan iborat?
4. Fillips egri chizig'ining uzoq davrdagi modifikatsiyasi qanday tavsiflanadi?

10.1. Tovar va pul bozorlarining o‘zaro bog‘liqligi. IS-LM modeli va uning mohiyati

IS-LM modeli o‘zida tovar va pul bozorlarining o‘zaro birgalikdagi muvozanatini aks ettiradi. U keynscha turdagi model bo‘lib (demand-side), iqtisodiyotni qisqa muddatda o‘rganadi va zamonaviy yalpi talab nazariyasining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

IS-LM modeli: 1) tovar va pullar bozorlarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rish; 2) birgalikdagi muvozanat holatida va har bir alohida bozorda ularning muvozanatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash; 3) ushbu bozorlarda muvozanat o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’sirini ko‘rish; 4) fiskal va pul-kredit siyosatlari samaradorligi tahlilini amalga oshirish; 5) yalpi talabga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash; 6) davriy tebranishning har bir fazasida barqarorlashtirish siyosatining turli xil yo‘llarini tahlil etish imkonini beradi.

IS-LM modeli oddiy keynscha modelning barcha shartlarini saqlab qoladi:

1) narxlar darajasi o‘zgarmas, ya’ni ($R = \text{const}$) va u ekzogen kattalik hisoblanadi, shuning uchun barcha o‘zgaruvchilarning nominal va real qiymatlari o‘zaro mos keladi;

2) yalpi taklif absolyut elastik (ishlab chiqarish hajmi) va har qanday hajmdagi yalpi talabni qanoatlantira oladi;

3) daromad (Y), iste’mol (C), investitsiyalar (I), sof eksport (X_n) endogen o‘zgaruvchilar hisoblanadi va model ichkarisida aniqlanadi;

4) davlat xarajatlari (G), pul taklifi (M), soliq stavkasi (t) ekzogen o‘zgaruvchilar hisoblanadi va modeldan tashqarida shakllanadi (tashqaridan kiritiladi).

5) $YaIM = SIM = MD$, chunki soliqlarni faqat uy xo‘jaliklari to‘laydilar va biznesga egri soliqlar mavjud emas.

Ammo bunda aytish kerakki, faqat foiz stavkasining o‘zgarmasligi (doimiyligi) sharti bundan istisno, agar «keyns-xochi»da foiz stavkasi $R = \text{const}$ va ekzogen ko‘rsatkich bo‘lgan bo‘lsa, IS-LM modelida u endi endogen ko‘rsatkich hisoblanadi va model ichida shakllanadi; uning darajasi pul bozoridagi vaziyat (muvozanat)ga qarab o‘zgaradi va

aniqlanadi, rejalashtirilgan avtonom xarajatlar foiz stavkasiga bog'liq bo'ladi.

10.2. IS egri chizig'i va uning yasalihi

IS egri chizig'ini hosil qilishda: 1) yalpi xarajatlar modeli («keyns-xochi» modeli; 2) avtonom rejalashtirilgan xarajatlarning foiz stavkasiga funksional bog'langanligi asos bo'lib xizmat qiladi.

Investitsiyalarga xarajatlar miqdori va foiz stavkasi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'lib, foiz stavkasi qanchalik yuqori bo'lsa, firmalarning investitsiyalarni amalga oshirishlariga xohishlari shunchalik kam bo'ladi. Investitsiyalar funksiyasini quyidagicha yozish mumkin:

$$I = I(R)$$


yoki, agarda bog'liqlik chiziqli bo'lsa:

$$I = \underline{I} - dR$$

bunda, \underline{I} – avtonom investitsiyalar, R – foiz stavkasi, d – investitsiya xarajatlarini foiz stavkasiga nisbatan sezuvchanligini va foiz stavkasi bir birlikka o'zgariganida investitsiyalarga xarajatlar miqdori qanchalik o'zgarishini aks ettiruvchi koeffitsientdir. Koeffitsient $d > 0$, formulada uning oldida "manfiy" ishora turganligi sababli, egri chiziq pastga qiya bo'lib qaragan.

Investitsiyalarga yalpi talab egri chizig'i investitsiyalarga bo'lgan talab miqdorining foiz stavkasiga teskari proporsional bog'liqlikda ekanligini aks ettiradi (10.2.1-a rasm).

Investitsiyalarga yalpi xarajatlar egri chizig'ining *siljishi* avtonom investitsiya (I) lar miqdorining o'zgarishi oqibatida sodir bo'ladi: ularning oshishi egri chiziqni o'ngga, kamayishi esa chap tomonga qarab siljitadi. Bu o'zgarishlarni odatda keynscha yo'nalish vakillari investorlar investitsiya xarajatlarining kutilayotgan sof foyda me'yorini baholashlaridagi pessimistik yoki optimistik kayfiyatlari bilan bog'laydilar. Avtonom investitsiyalar darajasi oshishining oqibatlari 10.2.1-b rasmda I ning o'nga, ya'ni I' gacha siljishiga sabab bo'ladi.



10.2.1-rasm. Investitsiyalar funksiyasi⁴⁷

Investitsiyalarga yalpi xarajatlar egri chizig‘ining *qiyaligi* d koeffitsientining kattaligi bilan bog‘liq; u qanchalik katta bo‘lsa, ya’ni investitsiyalarning foiz stavkasiga nisbatan sezuvchanligi yuqori bo‘lsa, I egri chizig‘i qiyaroq bo‘ladi: foiz stavkasining oz darajada o‘zgarishi investitsiyalarga bo‘lgan talab miqdorini sezilarli darajada o‘zgartiradi.


IS egri chizig‘ining yasalishi. Avtonom rejalashtirilgan xarajatlar miqdori foiz stavkasiga, real ishlab chiqarish va daromadning umumiy darajasi rejalashtirilgan avtonom xarajatlar miqdoriga bog‘liq ekan, u holda bu bog‘liqliklarni birlashtirib, real daromad foiz stavkasiga bog‘liq bo‘lishi kerak, degan xulosaga kelish mumkin bo‘ladi. Bunday nisbatni grafikda tasvirlasak, IS egri chizig‘ini hosil qilamiz. IS egri chizig‘i grafigini ikki usulda hosil qilamiz:

10.2.2-a rasmda IS egri chizig‘i keyns-xochi va investitsiyalar funksiyasi orqali keltirib chiqarilgan. R_1 foiz stavkasida investitsiyaga xarajatlarning miqdori I_1 ga teng, bu rejalashtirilgan xarajatlar miqdori E_{r1} ga mos keladi, bunda yalpi daromad (ishlab chiqarish hajmi) miqdori Y_1 ga teng. Foiz stavkasi R_2 gacha tushganda, investitsiyaga xarajatlar miqdori I_2 ga ortadi, shuning uchun keyns-xochi grafigida rejalashtirilgan xarajatlar egri chizig‘i yuqoriga - E_{r2} gacha siljiydi, bunga yalpi daromad (ishlab chiqarish) miqdori Y_2 mos keladi. Shunday qilib, yuqoriroq foiz stavkasi R_1 ga yalpi ishlab chiqarishning Y_1 pastroq darajasi mos keladi,

⁴⁷ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

pastroq foiz stavka R_2 ga ishlab chiqarishning yuqoriroq darajasi Y_2 mos keladi. Har ikki vaziyatda ham tovar bozori muvozanat holatida bo'ladi, ya'ni xarajalar daromadga teng bo'ladi ($E_{r1}=Y_1$ va $E_{r2}=Y_2$).

IS egri chizig'i aynan mana shunday holatni aks ettiradi, ya'ni uning har bir nuqtasi foiz stavkasi va daromad darajasining juftligini ko'rsatadi, bunda tovar bozori muvozanat holatida bo'ladi.



10.2.2-a rasm. IS egri chizig'ining yasalishi⁴⁸


10.2.2-b rasmda IS egri chizig'i in'eksiyalar (investitsiyalar) va oqimlar (jamg'armalar)ning tengligi tamoyilidan (bu esa tovarlar bozori muvozanatining sharti hisoblanadi), asosiy makroiqtisodiy tenglikdan kelib chiqadi:

$$C + I + G + Ex = C + S + T + Im$$

⁴⁸ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

Tenglikning har ikki tomonidan iste'mol xarajatlari C ni ayiramiz va quyidagini hosil qilamiz:

$$I + G + Ex = S + T + Im$$



10.2.2-b rasm. IS egri chizig'ining yasalishi⁴⁹

Tenglikning o'ng qismida – *in'eksiyalar* (injections) – daromad oqimini oshiruvchi xarajatlar, chap tomonida – daromadlarni qisqarishiga olib keluvchi *oqimlar* (leakages) keltirilgan. Muvozanat holatidagi iqtisodiyotda xarajatlar daromadlarga, in'eksiyalar oqimlarga tengdir.

In'eksiyalar foiz stavkasiga teskari, oqimlar daromad darajasi bilan to'g'ri bog'liqlikda bo'ladi. Bu bog'liqliklarni quyidagicha yozish mumkin:

⁴⁹ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

$$I(R) + G + Ex(R) = S(Y) + T(Y) + Im(Y)$$

10.2.2-b rasmda to'rtta grafik tasvirlangan. I – grafikda tovar bozoridagi muvozanat – in'eksiyalar (investitsiyalar) va oqimlar (jamg'armalar) tengligi sharti ko'rsatilgan, buni 45° burchak ostidagi bissektrisa aks ettirgan. II – grafikda jamg'arma va daromadning o'zaro to'g'ri proporsional bog'liqligining grafigi keltirilgan. III - grafikda in'eksiyalarning foiz stavkasiga teskari bog'liqligi aks ettirilgan. Natijada IV - grafikda IS egri chizig'ini hosil qildik. Foiz stavkasi R_1 da in'eksiyalar hajmi I_1 ni tashkil etdi, bu jamg'armalarning S_1 miqdoriga to'g'ri keladi, bunday miqdor esa daromadning Y_1 darajasida mavjud bo'ladi. Shunga o'xshash, R_2 foiz stavkada in'eksiyalar miqdori I_2 ga teng bo'ladi, bunda jamg'armalar hajmi S_2 tashkil etadi, bu daromad darajasi Y_2 ga mos keladi. Natijada, IV – grafikda hosil bo'lgan nuqtalarni to'g'ri chiziq ko'rinishida birlashtirib, IS egri chizig'ini hosil qilamiz.

IS egri chizig'i foiz stavkasi (R) va real daromad (Y) darajalarining barcha mumkin bo'lgan kombinatsiyalarini ko'rsatadi, bunda tovar bozori muvozanat holatida bo'ladi, ya'ni tovar va xizmatlarga bo'lgan talab taklifga teng bo'ladi, bu esa faqatgina daromad rejalashtirilgan xarajatlarga, in'eksiyalar oqimlarga teng bo'lgandagina sodir bo'ladi.

IS egri chizig'ining algebraik tahlili. Muvozanatli daromad darajasi ishlab chiqarishning hajmi (Y) yalpi rejalashtirilayotgan xarajatlar ($E = C + I + G + X_n$)ga teng bo'lganda o'rnatilishini eslaylik. Iste'mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari chiziqli va ular foiz stavkasiga bog'liq deb faraz qilaylik:

$$C = \underline{C} + mpc(Y - T - tY) - aR$$

$$I = I - dR$$

$$X_n = Ex - (Im + mpmY) - eR = X_n - mpmY - eR$$

Muvozanatli daromad darajasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$Y = (C - mpcT + I + G + X_n - bR) / (1 - mpc(1 - t) + mpm)$$

bunda, $b = (a+d+e)$ va u avtonom xarajatlarning foiz stavkasiga nisbatan sezuvchanlik koeffitsienti hisoblanib, foiz stavkasi bir foizga o'zgarganda avtonom xarajatlar qay darajada o'zgarishini ko'rsatadi.

$C - mpcT + I + G + X_n = A$ (avtonom xarajatlar yig'indisi) va $[1/(1 - mpc(1 - t) + mpm)] = k_A$ (xarajatlarning to'liq multiplikatori) bo'lganligi uchun, u holda *IS egri chizig'i tenglamasi* quyidagicha bo'ladi:

$$Y = k_A (A - bR)$$

yoki foiz stavkasi uchun:

$$R = A/b - (1/k_{Ab})Y$$

Koeffitsient $b > 0$ va uning oldida «manfiy» ishora bo‘lganligi sababli IS egri chizig‘i quyiga qarab yo‘nalgan.

10.3. LM egri chizig‘i va uning yasalishi


Pul bozoridagi muvozanatni LM egri chizig‘i (liquidity preference - money supply) belgilab beradi va u pulga bo‘lgan talab taklifga teng bo‘lgandagi Y va R ning barcha mumkin bo‘lgan nisbatlarini ko‘rsatib beradi. Pul deganda odatda M1 pul agregati tushuniladi, u o‘z ichiga naqd pullar va joriy hisoblardagi mablag‘lar (demand deposits – hisobdagi cheklar)ni oladi, ularni esa istagan vaqtda naqd pullarga aylantirish mumkinligi bizga ma‘lum.

LM egri chizig‘ini hosil qilinishi asosida keynscha likvidlilikni afzal ko‘rish nazariyasi yotadi, u qanday qilib real pul mablag‘lari zahiralari (real money balances)ning talab va taklifi nisbati foiz stavkasini belgilab berishini tushuntirib beradi. Real pul mablag‘lari zahiralari narxlar darajasi o‘zgarishini hisobga olib to‘g‘rilangan (korrektirovka qilingan) nominal zahira bo‘lib, u M/R ga teng bo‘ladi.

Likvidlilikni afzal ko‘rish nazariyasiga muvofiq real pul mablag‘larining taklifi $(M/R)^S$ o‘zgarimas bo‘lib, u naqd pullar - C miqdori va zahiralari R , ya‘ni pul bazasi (N - high powered money; $N = C + R$)ni nazorat qiluvchi organ – MB tomonidan belgilanadi. Pul taklifi ekzogen kattalik bo‘lib va u foiz stavkasiga bog‘liq bo‘lmaganligi uchun grafikda vertikal chiziq ko‘rinishida tasvirlangan.

LM egri chizig‘ining yasalishi.


LM egri chizig‘i daromad darajasi Y va foiz stavkasi R ning pul bozori muvozanatda bo‘lgan holatdagi barcha kombinatsiyalarini ko‘rsatadi, ya‘ni bunda pullarga bo‘lgan real talab uning taklifiga teng bo‘ladi: $(M/R)^D = (M/P)^S$. LM egri chizig‘ini ikki usulda yasaymiz: 7. 3-a rasmdagi LM egri chizig‘i keynscha likvidlilikni afzal ko‘rish nazariyasidan kelib chiqqan muvozanatli pul bozorining grafigi asosida yasaladi. Daromad darajasining oshishi (Y_1 dan Y_2 gacha) pullarga bo‘lgan talabni oshirib, M^D egri chizig‘ini o‘ngga siljitadi, foiz stavkasi esa R_1 dan R_2 ga ko‘tariladi. Bu LM egri chizig‘ini tasvirlashda muvozanatli pul bozorini ta‘minlash uchun yuqori daromadga yuqori foiz stavkasi mos kelishini ko‘rsatadi. Shuning uchun LM egri chizig‘ining yo‘nalishi ijobiy bo‘ladi.



10.3 -a rasm. LM egri chizig'ining yasalihi (1-usul)⁵⁰

10.3-b rasmda LM egri chizig'i (IV grafik) pullarga bo'lgan umumiy talab (u o'z ichiga: a) daromadga bog'liq va II grafikda $(M/R)^{D_T}$ egri chiziq ko'rinishida keltirilgan pullarga bo'lgan transaksiyalik talab va b) foiz stavkasiga bog'liq va III grafikda $(M/R)^{D_A}$ egri chiziq ko'rinishida tasvirlangan pullarga bo'lgan spekulyativ talabni oladi) taklifga $(M/R)^S$ tengligi tamoyilidan keltirib chiqarilgan (I grafikning III kvadrantida keltirilgan). Daromad darajasi Y_1 ga teng bo'lganda pullarga bo'lgan transaksiya talabi $[(M/R)^{D_T}]_1$ ga teng va iqtisodiyotda mavjud pul taklifi sharoitida pullarga bo'lgan spekulyativ talab $[(M/P)^{D_A}]_1$ ga teng bo'lib, R_1 foiz stavkasiga mos keladi. Agar daromad darajasi Y_2 ga oshsa, pullarga bo'lgan transaksiya talabi $[(M/P)^{D_T}]_2$ ni tashkil etadi, bunda pullarga bo'lgan spekulyativ talab $[(M/P)^{D_A}]_2$ ga teng bo'ladi, bu R_2 foiz stavkasiga mos keladi. Shunday qilib, yuqori darajadagi daromadga yuqoriroq foiz stavkasi to'g'ri keladi.

⁵⁰ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018



10.3-b rasm. LM egri chizig'ining yasalishi (2-usul)⁵¹

LM dan yuqorida yotgan barcha nuqtalarda, pullar taklifi pullarga bo'lgan umumiy talabdan ortiq bo'ladi, bu pullarning ortiqchaligini anglatadi (excess supply of money – ESM). LM egri chizig'idan quyida joylashgan barcha nuqtalarda pullarga bo'lgan ortiqcha talab mavjud bo'ladi (excess demand for money – ESM).

⁵¹ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018


10.4. Tovar va pul bozori muvozanati

IS va LM egri chiziqlarining alohida har biri muvozanatli daromad Y_e va muvozanatli foiz stavkasi R_e ni belgilab bera olmaydi. Iqtisodiyotda muvozanat IS va LM egri chiziqlarining faqatgina birgalikda kesishgan nuqtasida aniqlanadi (10.4 – a rasm).

Tovar va pullar bozorida bir vaqtning o'zida muvozanat faqat daromad (Y_e) va foiz stavkasi (R_e) darajalarining yagona miqdorida o'rnatiladi (10.4 – a rasm).

Bir vaqtda tovar va pul bozorida muvozanatga mos keluvchi daromad miqdorini (Y_e) (10.4 – a rasm) Keyns «*samarali talab miqdori*» deb atadi.

Bu tizim qanday qilib beqarorlikdan umumiy muvozanatga kelishi mumkin? Agar tovar va xizmatlar bozori beqaror vaziyatda bo'lsa, u holda zahiralarning kutilmagan o'zgarishi yuz beradi, iqtisodiyotni E nuqtaga keltirish uchun firmalar ishlab chiqarish hajmini yoki qisqartiradilar yoki oshiradilar.



10.4-rasm. Tovar va pul bozorining birgalikdagi muvozanati⁵²

Agar pul bozori beqaror bo'lsa, pullarga bo'lgan talab ortganda foiz stavkasi oshadi, kishilar pullarga bo'lgan talablarini boshqa yo'l bilan qondira olmasalar, ular obligatsiyalarini sotishni boshlaydilar yoki pul taklifi ularga bo'lgan talabdan ortsa, obligatsiyalarni sotib oladilar va iqtisodiyot bunday holatda E nuqta tomon siljiy boshlaydi.

⁵² N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

IS va LM egri chiziqlarining kesishuvi tekislikni to'rtta sohaga ajratadi (10.4-b rasm), ularning har birida esa beqarorlik mavjud. I va II sohalarda pullarning ortiqcha taklifi kuzatiladi, chunki ular LM egri chizig'idan yuqorida joylashgan, LM egri chizig'idan pastda joylashgan III va IV sohalarda esa pullarga bo'lgan ortiqcha talab mavjud. I va IV sohalar tovar va xizmatlarning ortiqcha taklifiga mos keladi, chunki ular IS egri chizig'idan yuqorida joylashgan, bunda II va III sohalarda tovar va xizmatlarga ortiqcha talab mavjud bo'ladi. Iqtisodiyotning muvozanatga moslashuvi va harakati rasmda strelka yo'nalishida ko'rsatilgan.

Qisqacha xulosalar

IS-LM modeli: 1) tovar va pullar bozorlarining o'zaro bog'liqligini ko'rish; 2) birgalikdagi muvozanat holatida va har bir alohida bozorda ularning muvozanatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash; 3) ushbu bozorlarda muvozanat o'zgarishining iqtisodiyotga ta'sirini ko'rish; 4) fiskal va pul-kredit siyosatilari samaradorligi tahlilini amalga oshirish; 5) yalpi talabga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash; 6) davriy tebranishning har bir fazasida barqarorlashtirish siyosatining turli xil yo'llarini tahlil etish imkonini beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Modelda makroiqtisodiy siyosat yuzaga kelishining shartlari qanday?
2. Likvidlilik tuzog'i qanday vaziyatda yuzaga keladi va makroiqtisodiy siyosatga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. "Investitsion tuzoq" atamasi qo'llaniladigan makroiqtisodiy vaziyatni tavsiflab bering.

11.1. To'lov balansining mohiyati.

Mamlakatning ma'lum bir vaqt davomidagi barcha xalqaro iqtisodiy faoliyati, shu jumladan tashqi savdo, kapital va ishchi kuchi migratsiyasi uning to'lov balansida o'z aksini topadi.

To'lov balansida mamlakatning turli mamlakatlar bilan xalqaro savdo va moliyaviy sohada amalga oshirilgan operatsiyalari aks ettirilgan bo'lib, unda mazkur mamlakatning yil davomida boshqa mamlakatlar bilan barcha iqtisodiy bitimlar (transaksiyalar)i bitilgan bo'ladi.

Har qanday tashqi iqtisodiy bitim valutilarni ayirboshlash bilan kuzatiladigan oldi-sotdi jarayoni hisoblanar ekan, yakuniy hisobda mamlakatning jahon bozoridagi faoliyatining natijalari xorijiy valutaning tushumlari va xarajatlarida ifodalanadi. Bir tomondan xorijdan tushadigan barcha tushumlarni, boshqa tomondan – mamlakatning xorijga barcha to'lovlarini ko'rsatuvchi hujjatga **to'lov balansi** deb ataladi.

To'lov balansi – muayyan muddat davomida mamlakatning chet ellarga sarflagan va xuddi shu davr mobaynida mamlakatga chet eldan tushgan to'lovlar summalari nisbatini tavsiflaydi. To'lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan tovarlar va xizmatlar haqi, xorijiy investitsiyalar, xorijda diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish xarajatlari, fuqarolar va qo'shma korxonalarining chet elga pul o'tkazmalari va boshqalar kiradi.

To'lov balansida ikki tomonlama yozuv tamoyilidan foydalaniladi, chunki har qanday bitimning ikki tomoni, ya'ni debet va krediti mavduddir. Debet mamlakatga xorijiy valutada to'lanadigan real va moliyaviy aktivlarning oqib kelishini aks ettiradi va shuning uchun debet operatsiyalari «-» ishora bilan yoziladi, chunki ular milliy valuta taklifi ortiqchaligini, xorijiy valutaga esa talab oshishini keltirib chiqaradi. Kredit real va moliyaviy aktivlarning mamlakatdan oqib chiqib ketishi va ularga xorijliklar tomonidan to'lanadigan operatsiyalar bo'lib, u to'lov balansida «+» ishora orqali aks ettiriladi. Ular milliy valutaga talab va xorijiy valuta taklifini oshiradi.

To'lov balansi mamlakatning monetar, fiskal, valuta, tashqi iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va davlat tashqi qarzini boshqarishning asosi hisoblanadi.

To'lov balansiga ta'sir etuvchi omillar: a) sof eksport (ya'ni joriy hisob operatsiyalari balansi) va b) kapital oqimlari (kapital harakati hisobi balansi) hisoblanadi.

11.2. To'lov balansini tuzish metodologiyasi

To'lov balansi – bu mamlakatga xorijdan kelib tushgan va xorijga to'lab berilgan valutilarning haqiqatdagi summasi aks ettiriladigan hujjatdir.

XVF to'lov balansini statistik hisobot shakli deb hisoblaydi.

To'lov balansi xalqaro hisob-kitoblar balansining muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

11.1-jadval

To'lov balansida operatsiyalarni aks ettirish tartibi⁵³

Operatsiya	Kredit-plyus (+)	Debet – minus (-)
A. Tovarlar va xizmatlar	Tovarlar va xizmatlar eksporti (nerezidentlarga xizmat ko'rsatish)	Tovarlar va xizmatlar importi (nerezidentlarga xizmat ko'rsatish)
B. Investitsiyalardan bo'yicha daromadlar va mehnatga haq to'lash	Rezidentlar tomonidan nerezidentlardan olingan	Rezidentlar tomonidan nerezidentlarga to'langan
V. Transfertlar (joriy va kapital)	Mablag'larni olish	Mablag'larni uzatish
G. Moliyaviy aktivlar va majburiyatlar bo'yicha operatsiyalar	Nerezidentlar oldidagi majburiyatlarning ko'payishi (masalan, nerezidentlar tomonidan naqd milliy valutani sotib olinishi) yoki nerezidentlarga nisbatan talablarni kamayishi (masalan, nerezident banklardagi hisobraqamlarning qoldig'ini kamayishi)	Nerezidentlarga nisbatan talablarning ko'payishi (masalan, nerezidentlarga kredit berish) yoki nerezidentlar oldidagi majburiyatlarni kamayishi (masalan, rezidentlar tomonidan nerezidentlardan sotib olingan qimmatli qog'ozlarni qoplanishi)

To'lov balansida ikki yo'nalishdagi valuta oqimi o'z ifodasini topadi:

1. Xorijiy valutilardagi tushumlar.
2. Xorijiy valutilardagi to'lovlar.

To'lov balansi mamlakatning tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish darajasini, jahon savdosidagi, xalqaro kapitallar va kreditlar harakatidagi o'rnini ko'rsatadi.

⁵³ Моисеев С.Р. Международные валютно-кредитные отношения. – М.: Дело и Сервис, 2007. - С. 340-341.

To'lov balansini tuzish ikki yoqlama yozuvga asoslanadi. Ya'ni, bunda har bir operatsiya ikki marta aks ettiriladi: bir hisobraqamning debetida, ikkinchi hisobraqamning esa kreditida aks ettiriladi. Bunda kreditli o'tkazmalarning jami summasi debetli o'tkazmalarning jami summasiga teng bo'lishi va yakuniy saldo nolga teng bo'lishi shart.

Kreditli va debetli o'tkazmalar o'rtasidagi farq summasi sof xatoliklar deb ataladi.

To'lov balansini tuzish uchun quyidagi ma'lumotlar manbaidan foydalaniladi:

1. Bojxona statistikasi.
2. Markaziy bank tomonidan shakllantiriladigan iqtisodiyotning pul sektorini statistikasi.
3. Tashqi qarz statistikasi.
4. Xorijiy valutar bilan amalga oshirilgan operatsiyalari statistikasi.

11.3. To'lov balansining tarkibi

To'lov balansi to'rt bo'limdan tashkil topadi:

1. Joriy operatsiyalar balansi.
2. Transfertlar balansi.
3. Kapitallar va kreditlarning harakati balansi.
4. Oltin-valuta zaxiralarining harakati balansi.

Joriy operatsiyalar balansining o'zi ikki qismdan tashkil topadi:

1. Savdo balansi.
2. Xizmatlar va notijorat mazmunidagi to'lovlar balansi.

Savdo balansida eksport bo'yicha tushumlar va import bo'yicha to'lovlarning haqiqatdagi summasi aks etadi.

Savdo balansining passiv bo'lishi, ya'ni import bo'yicha to'lovlarning eksportdan olingan tushumlar summasidan katta bo'lishi mamlakatning jahon savdosidagi mavqeining zaiflashganligidan yoki zaifligidan dalolat beradi.

Xizmatlar va notijorat mazmunidagi to'lovlar balansida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha xorijiy valutadagi tushumlar va to'lovlar summasi aks etadi:

- transportda yuk tashish;
- sug'urta;
- telefon, telegraf, pochta va boshqa turdagi aloqalar;
- xalqaro turizm;
- chet elda diplomatik va boshqa vakolatxonalarini ochish hamda ularni saqlash;

- xorijiy davlatlar hududida harbiy qismlar saqlash;
- ilmiy-texnik va ishlab chiqarish borasidagi tajribalarni o‘zaro almashinish;
- madaniy aloqalar
- xalqaro kreditlarga foiz to‘lash;
- xorijiy investitsiyalarga dividendlar to‘lash;
- boshqalar.

Transfertlar balansida bir tomonlama to‘lovlar, ya’ni transfert to‘lovlari aks ettiriladi.

Transfertlar balansida ikki turdagi to‘lovlar o‘z aksini topadi:

1. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar – boshqa mamlakatlarga iqtisodiy yordam ko‘rsatish va xalqaro tashkilotlarga badallar to‘lash.

2. Xususiy pul o‘tkazmalari.

Kapitallar va kreditlarning harakat balansida tadbirkorlik va ssuda kapitalining harakati bilan bog‘liq bo‘lgan tushumlar va to‘lovlar summasi aks etadi.

Tadbirkorlik kapitali ikki shaklda mavjud bo‘ladi:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar.

2. Xorijiy portfelli investitsiyalar.

Ssuda kapitalining harakati xalqaro kreditlarning muddatiga ko‘ra tasniflanadi va to‘lov balansining ushbu bo‘limida ikki shaklda mavjud bo‘ladi:

1. Qisqa muddatli xalqaro kreditlar (1 yilgacha muddatga ega bo‘lgan xalqaro kreditlar).

2. Bir yildan ortiq muddatga ega bo‘lgan xalqaro kreditlar.

Oltin-valuta zaxiralarining harakat balansi rasmiy oltin-valuta zaxiralarining o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Rasmiy oltin-valuta zaxiralariga quyidagilar kiradi:

- oltin;
- xorijiy valutadagi zaxiralar;
- xalqaro hisob birliklari.

11.4. To‘lov balansining defitsiti va uni qoplash usullari

To‘lov balansining defitsiti deganda uning joriy operatsiyalar balansi hamda kapitallar va kreditlarning harakati balansi bo‘yicha to‘lovlarning tushumlardan katta bo‘lishiga aytiladi. Shu sababli, to‘lov balansining

defitsiti summasi mamlakat Markaziy banki tomonidan xorijiy valutilarni sof sotish summasiga teng.

To'lov balansi defitsitini qoplashning ikki usuli mavjud:

1. Vaqtinchalik usul.

Vaqtinchalik usulga quyidagilar kiradi:

- xalqaro kreditlar jalb etish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- oltinni garovga qo'yish yo'li bilan xalqaro kreditlar olish.

2. So'nggi usul.

So'nggi usulga quyidagilar kiradi:

- oltinni sotish;
- rasmiy valuta zaxiralarini ishlatish.

To'lov balansining defitsitini kamaytirishda davlat budjet-soliq va pul-kredit siyosatidan foydalanadi.

Budjet – soliq siyosati doirasida, odatda, quyidagi tadbirlar to'lov balansining defitsitini kamaytirish maqsadida qo'llaniladi:


- eksportyorlarga budjet subsidiyalari berish;
- import qilinadigan tovarlarga nisbatan belgilangan boj solig'i stavkalarini oshirish.
- investorlarning qimmatli qog'ozlardan olinadigan foizli daromadlarini soliqqa tortmaslik.

Pul-kredit siyosati doirasida Markaziy bankning hisob stavkasini oshirish yo'li bilan xorijiy valutadagi mablag'larni mamlakatga kirib kelish hajmini oshirish usulidan keng foydalaniladi.

11.5. Valuta kursi va unga ta'sir etuvchi omillar

11.5.1. Valuta kursi

Valuta kursi valuta bozori (foreign exchange market)da milliy valutaga bo'lgan talab va uning taklifi o'rtasidagi nisbat orqali o'rnatiladi. 11.5a- rasmda u tasvirlangan bo'lib, bunda e – dollarning valuta kursi, ya'ni yuanlarda ifodalangan 1 dollar narxi, D – dollarga bo'lgan talab egri chizig'i, S - dollarning taklif egri chizig'i. Valuta (dollar)ga bo'lgan talab egri chizig'i pastga qarab yo'nalgan, chunki dollarning valuta kursi qanchalik yuqori bo'lsa, ya'ni yuanlarda dollarning narxi qanchalik yuqori bo'lsa, xitoyliklar 1 dollarga shunchalik ko'p yuanlarini sarflashlari kerak bo'ladi va ular tomonidan dollarga bo'lgan talab miqdori kamayadi.



11.5-rasm. Valuta kursi va uni tartibga solish⁵⁴

Valuta (dollar) taklifi egri chizig‘i yuqoriga qarab tik yo‘nalgan, chunki dollarning valuta kursi qanchalik yuqori bo‘lsa, amerikaliklar 1 dollarga shunchalik ko‘p yuanlarni sotib oladilar, shu sababli dollarning taklif miqdori katta bo‘ladi. Muvozanatli valuta kursi e_0 dollarga bo‘lgan talab va taklif egri chiziqlari kesishgan nuqtada o‘rnatiladi.

Milliy valuta (funt)ga talab quyidagilar bilan belgilanadi:

- ushbu mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarga boshqa mamlakatlar tomonidan bildirilgan talab;
- ushbu mamlakat moliyaviy aktivlar (aksiya va obligatsiyalar)iga boshqa mamlakatlarning talabi.

Valuta kursi o‘rnatilishining qattiq va suzuvchi tartibi mavjud.

11.5.2. Milliy valuta tushunchasining mazmuni

Valuta so‘zi italyancha **valuta** so‘zidan olingan bo‘lib, qiymat degan ma‘noni anglatadi.

Har qanday mamlakatning milliy pul birligi uning milliy valutasini hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda valutalarning quyidagi turlari mavjud:

* **Erkin ishlatiladigan valuta** (freely usable currency) – to‘lov balansining joriy operatsiyalar bo‘limida valutaviy cheklashlar bo‘lmagan mamlakatlarning milliy valutilari.

* **Qattiq valuta** (hard currency) – iqtisodiy va siyosiy jihatdan barqaror hisoblangan mamlakatlarning almashuv kursi barqaror bo‘lgan valutilari.

* **Yumshoq valuta** (soft currency) – xalqaro miqyosda to‘lov vositasi vazifasini bajara olmaydigan, ya‘ni tashqi konvertirlikka ega bo‘lmagan valutilar.

⁵⁴ N.Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv-uslubiy majmua. T.TDIU, 2018

* **Xalqaro rezerv valutalar** (reserve currency) – dunyoning barcha mamlakatlarida xalqaro to‘lov vositasi sifatida qabul qilinadigan etakchi valutalar.

Etakchi valutalarga “xalqaro rezerv valuta” degan maqomni Xalqaro valuta fondi (XVF) ekspertlari beradi.

XVF mezonlari bo‘yicha, xalqaro rezerv valuta deganda davlatlarning xalqaro zaxiralari nominali aks ettiriladigan valuta tushuniladi.

Xalqaro rezerv valutalar kurslarining nobarqarorligi O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga ham o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Buning sababi shundaki, milliy valutamiz-so‘mning nominal almashuv kursi asosiy rezerv valuta bo‘lgan AQSh dollariga nisbatan aniqlanadi⁵⁵. Demak, AQSh dollari kursining barqaror emasligi bevosita so‘mning nominal almashuv kursining barqarorligiga ta‘sir ko‘rsatadi.

11.5.3. “Valuta kursi” nazariyalari

Valuta kursi (exchange rate, foreign exchange rate) – bir mamlakat valutasining boshqa mamlakat valutasida ifodalangan bahosidir.

Valuta kursiga oid ilk nazariyalardan biri valutalarning xarid qobiliyati nazariyasi hisoblanadi va ushbu nazariya angliyalik iqtisodchilar D. Yum va D. Rikardolarning nazariy qarashlariga asoslanadi. D. Rikardoning fikriga ko‘ra, savdo balansining defitsiti funt sterling qiymatining pasayishiga olib keldi, valutalarning xarid qobiliyati ularning muomaladagi miqdorining nisbati bilan belgilanadi⁵⁶.

Valutalarning xarid qobiliyati nazariyasining asosiy qoidasi shundan iboratki, valuta kursi ikki mamlakat valutasining nisbiy qiymati bilan belgilanadi, o‘z navbatida, valutalarning o‘zaro nisbiy qiymati esa, baholar darajasiga bog‘liqdir.

Suzib yuruvchi valuta kurslari nazariyasi valuta kursi xususidagi nazariyalar orasida o‘ziga xos o‘rin egallaydigan nazariya hisoblanadi. Ushbu nazariyaning asoschilari bo‘lib, neoklassik yo‘nalishga mansub bo‘lgan iqtisodchilar hisoblanadi. Ular jumlasiga M. Fridmen, F. Maxlup, A. Lindbek, G. Jonson, L. Erxard, G. Girsh, E. Dyurrlarni kiritish mumkin⁵⁷.

⁵⁵ So‘mning nominal almashuv kursi Respublika valuta birjasida AQSH dollariga nisbatan talab va taklif asosida aniqlanadi. Respublikamizda milliy valutani xorijiy valutalarga konvertatsiya qilish buyurtmali savdo tizimiga asoslanganligi sababli, so‘mning AQSH dollariga nisbatan nominal almashuv kursi so‘mda va AQSH dollarida berilgan buyurtmalar miqdorini o‘zaro taqqoslash orqali aniqlanadi.

⁵⁶ Рикардо Д. Сочинение. Том 2. Пер. с англ. – М.: Политическая литература, 1955. – С. 55.

⁵⁷ Machlup F. International payments, debts, and gold. – London: George Allen & Unwin, 1966. – P. 7-50; Friedman M. How Well are Fluctuating Exchange Rates Working.-American Enterprise Institute,

Suzib yuruvchi valuta kurslari nazariyasi namoyondalari suzib yuruvchi kurslar rejimini qattiq turib himoya qiladilar. Ularning fikriga ko'ra, suzib yuruvchi kurslarning muhim afzalliklari quyidagilardan iborat:

- to'lov balansini avtomatik tarzda muvozanatlashtirish imkonini beradi;
- milliy iqtisodiy siyosat usullari tashqi tazyiqsiz tanlanadi;
- valutaviy spekulyativ amaliyotlarni jilovlash imkonini beradi;
- xalqaro savdoni rag'batlantiradi;
- valuta kursini valuta bozorida erkin shakllantirish imkonini beradi.

M. Fridmenning fikriga ko'ra, valuta kursi talab va taklif asosida erkin shakllanishi va davlat uni tartibga solmasligi lozim⁵⁸.

Ayni vaqtda, suzib yuruvchi valuta kurslarining yuqorida qayd etilgan ijobiy jihatlari har doim ham amaliy ahamiyat kasb etmasligi, milliy valutaning erkin suzish rejimida ham valuta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning saqlanib qolishi ayrim iqtisodchilar tomonidan e'tirof etildi. Masalan, J. Vaynerning fikriga ko'ra, erkin bozor baholari dunyosida ham xorijiy valutalar bozorini davlatning bevosita yoki bilvosita aralashuvisiz tasavvur qilish mumkin emas⁵⁹.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida milliy valuta almashuv kursining keskin tebranishiga yo'l qo'yimaslik maqsadida uning kursiga ta'sir etish, shu jumladan, valuta intervensiyasini o'tkazishning maqsadga muvofiqligi o'z isbotini topdi. Spekulyativ kapitalarning xalqaro miqyosdagi oqimining kattaligi Markaziy banklarni shunga majbur qilmoqda.

Valuta kursi xususidagi nazariyalardan yana biri belgilangan paritetlar va kurslar nazariyasi hisoblanadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, valuta kursining o'zgarishi to'lov balansini tartibga solishning samarasiz usuli hisoblanadi. Chunki, xalqaro bozorlarda baholarning valuta kurslarining o'zgarishiga bog'liq ravishda tebranishiga tashqi savdo yetarli darajada reaksiya bermaydi.

1973. –№8. - P. 5; Johnson G. Formulation of Exchange Rate Policies in Adjustment Programs, IMF Occasional Paper - № 36. – Washigton: IMF, 1985. – P. 17 – 19.

⁵⁸ Friedman M. How Well are Fluctuating Exchange Rates Working.-American Enterprise Institute, 1973. –№8. - P.5.

⁵⁹ Viner J. Problems of Monetary Control. – Princeton, 1964. –P. 245.

Valuta kursi xususidagi zamonaviy nazariyalardan biri sifatida F.Maxlupning “Valuta kursi nazariyasi” deb nomlangan ilmiy ishini keltirish mumkin⁶⁰.

Taniqli iqtisodchi olim F. Maxlupning fikriga ko‘ra, eksport va importning hajmi o‘rtasidagi muvozanat ta‘minlangan sharoitda xorijiy valutalar taklifining o‘zgarishi milliy valutaning almashuv kursiga ma‘lum davriy oraliqdan so‘ng ta‘sir qiladi. Agar bunday sharoitda importga bo‘lgan talab keskin oshsa, u holda, xorijiy valutalar taklifi bilan milliy valutaning almashuv kursi o‘rtasidagi bog‘liqlik borasida vaqtinchalik davriy oraliq yuzaga kelmaydi.

R. Mandellning fikricha, “inflatsion gap va to‘lov balansining defitsiti foiz stavkalari va baholarning o‘shishiga olib keladi. Ayni vaqtda, defitsit valuta zaxiralari miqdorining kamayishiga olib keladi”⁶¹. Valuta zaxiralarining kamayishi esa, Markaziy bankning kurs siyosatiga nisbatan salbiy ta‘sirni yuzaga keltiradi.

Valuta kursi xususidagi asosiy nazariyalardan yana biri “yetakchi valutalar” nazariyasidir. Ushbu nazariyaning asoschilari bo‘lib, AQShlik iqtisodchilar – J. Vilyams, A. Xansen, angliyalik iqtisodchilar –R. Xoutri, F. Grexemlar hisoblanishadi⁶².

Mazkur nazariyaga ko‘ra, valutalar uch guruhga bo‘linadi:

1. Yetakchi valutalar (AQSh dollari va Buyuk Britaniya funt sterlingi).
2. Qattiq valutalar (rivojlangan 10 ta davlatning valutalari).
3. Yumshoq valutalar (konvertirlanmaydigan valutalar).

J. M. Keynes nazariyasining boshlang‘ich tizimi, kichik ochiq iqtisodiyot asoslarini o‘zida mujassam etgan, kengaytirilgan IS-LM modeli hisoblanadi. Bu holatda muvozanat tovar va pul bozorida hamda valuta bozorida ham hisobga olinadi. Ushbu modelning birlamchi variantlari asoschilari Mandell⁶³ (1963) va Fleming⁶⁴ (1962) hisoblanishadi. Mandell-Fleming (F-M) modeli asosida, valuta kursini aniqlashning eng keng tarqalgan yondoshuvlaridan biri, odatiy to‘lov

⁶⁰ Махлуп Ф. Теория валютного курса. Этот изменчивый обменный курс. Сборник статей. Пер. с англ. – М.: Дело, 2001. – С. 22-82.

⁶¹ Манделл Р.А. Выбор экономической политики для достижения внутреннего и внешнего равновесия. Этот изменчивый обменный курс. Сборник статей. Пер. с англ. – М.: Дело, 2001. – С. 155.

⁶² Эйдельмант А. Буржуазные теории денег, кредита и финансов в период общего кризиса капитализма. – М.: Госфиниздат, 1958. – 263 с.

⁶³ Mundell R.A. The monetary dynamics of international adjustment under fixed and flexible exchange rates // Quarterly Journal of Economics 74 (2). May, 1960. - P. 227-257.

⁶⁴ Fleming M. Domestic financial policies under fixed and underfloating exchange rates. – IMF Staff Paper, 9 (3). November, 1962. - P. 369-379.

balansi modeli hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, sof tebranishlarda valuta kursi chet el valutasiga bo'lgan talab va taklif oqimini muvozanatlashtiradi, ya'ni to'lov balansi saldosi nolga teng bo'ladi. Sof suzib yuruvchi valuta kurslari holatida joriy operatsiyalar balansining har qanday ijobiy saldosi (chet el valutasini taklifi oqimi) kapital balansi defitsitini aniq qoplashi kerak. Shunday qilib, valuta kursini J. Keyns nazariyasiga ko'ra modellashtirish joriy va kapital balanslari o'zgarishlari darajasiga qarab aniqlanadi. Valuta kursini keynscha uslubda aniqlash to'lov balansiga ta'sir etuvchi boshlang'ich va o'zgaruvchi asoslar miqdorining ortishi natijasiga asoslanadi. J. Keynsning ochiq iqtisodiyot modeli doirasida valuta kursini aniqlash to'lov balansini muvozanatlashtirishga asoslangan valuta bozoridagi muvozanatni ta'minlash taklifi muhim ahamiyat kasb etadi.

11.5.4. Valutalarning erkin konvertirlanishi

Shunisi xarakterliki, iqtisodiy adabiyotlarda hozirga qadar «valutaning erkin konvertirlanishi» tushunchasining mohiyati xususida yagona, tugal ta'rif mavjud emas.

Biz dastlab valutalarning konvertirlanishi masalasining Xalqaro Valuta Fondi (XVF) ning Nizomida va boshqa me'yoriy-uslubiy hujjatlarida o'z ifodasini topgan talqinlarini tahlil qilamiz va baholaymiz. Buning sababi shundaki, XVF davlatlararo valuta munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro moliya-kredit tashkiloti hisoblanadi. XVF Kelishuv Moddalarining VIII-moddasi bo'yicha majburiyatlarni qabul qilgan davlatlarning milliy valutilari to'lov balansining joriy operatsiyalari bo'yicha erkin konvertirlanadigan (ishlatiladigan) valutilar deb ataladi va bu mamlakat Fondning ruxsatisiz joriy valuta bitimlari bo'yicha to'lovlarga cheklovlar joriy qilishga haqli emas⁶⁵.

XVF ekspertlarining talqini bo'yicha, valuta tashqi konvertirlikka ega bo'lishi uchun quyidagi ikki xususiyatga ega bo'lishi shart:

norezidentlarga tegishli bo'lgan mazkur valutadagi mablag'lar istalgan xorijiy valutaga erkin almashinadi;

rezidentlarning hukumatning ruxsati bilan norezidentlar foydasiga amalga oshiriladigan barcha to'lovlari rezidentlar valuta bozorlaridan

⁶⁵ Articles of Agreement of the International Monetary Fund, Articles VIII, Section.

sotib olish imkoniga ega bo'lgan istalgan tashqi konvertirlikka ega bo'lgan valutada amalga oshirilishi mumkin⁶⁶.

XVF ekspertlari valutilarni, konvertirlanish ko'lami va darajasiga ko'ra, ikkiga ajratadi: joriy valuta operatsiyalari bo'yicha erkin konvertirlanadigan valutar va tashqi konvertirlikka ega bo'lgan valutar. Lekin XVF ekspertlarining valutilarning tashqi konvertirlanishi xususidagi talqinlarida o'zaro nomuvofiqlik yuzaga kelmoqda. Ushbu nomuvofiqlikning mohiyati shundaki, XVF ayrim valutilarga nisbatan «zaxira valutar» tushunchasini qo'llaydi va ushbu valutilarni xalqaro miqyosda to'lov vositasi vazifasini bajaradigan, boshqa mamlakatlar uchun valuta pariteti va valuta kursini aniqlashda baza vazifasini o'taydigan valutar sifatida e'tirof etadi. XVF rasman zaxira valutar sifatida AQSh dollari, Yaponiya ieni, Buyuk Britaniya funt sterlingi va yevroni tan oladi. XVF tomonidan "zaxira valutar" tushunchasi dastlab 1944 yilda, Bretton-Vuds jahon valuta tizimini yuzaga keltirish jarayonida, qo'llanilgan. O'shanda faqat ikkita valutaga – AQSh dollari va Buyuk Britaniya funt sterlingiga zaxira valuta maqomi berilgan edi. Ayni vaqtda, zaxira valutar bilan boshqa tashqi konvertirlikka ega bo'lgan valutilarning tashqi konvertirlanish darajasi o'rtasida qanday farqning mavjudligi XVFning me'yoriy-uslubiy hujjatlarida o'z ifodasini topmagan.

Milliy valutani konvertirlanish darajalari quyidagi mezonlarga asoslanishi lozim:

I. Milliy valutaning qisman ichki konvertirlanishini belgilovchi mezonlar.

II. Milliy valutaning to'liq ichki konvertirlanishini belgilovchi mezonlar.

III. Milliy valutaning qisman tashqi konvertirlanishini belgilovchi mezonlar.

IV. Milliy valutaning to'liq tashqi konvertirlanishini belgilovchi mezonlar.

11.5.5. Valuta kursiga ta'sir etuvchi omillar

Valuta kursiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday asosiy omillardan biri – bu to'lov balansining defitsitli ekanligidir. To'lov balansining defitsitli bo'lishi xorijiy valutadagi to'lovlar miqdorining

⁶⁶ Twenty Years of International Cooperation. The International Monetary Fund, 1945-1965. Vol. II.– P. 226-227.

ortishiga, mamlakatning oltin-valuta zaxiralari miqdorining kamayishiga olib keladi. Buning natijasida ichki valuta bozorida xorijiy valutalar taklifining kamayishi yuz beradiki, ushbu holat milliy valutaning nominal almashuv kursiga nisbatan kuchli tazyiqni yuzaga keltiradi.

Milliy valuta kursiga ta'sir etuvchi muhim omillardan yana biri bo'lib, Davlat budjetining defitsiti hisoblanadi. Ushbu omil rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida yaqqol kuzatiladi. Chunki, mazkur mamlakatlarning aksariyat qismida Markaziy banklarning iqtisodiy va siyosiy mustaqillik darajasi past bo'lib, Davlat budjeti defitsitini qoplash maqsadida Markaziy bankning emissiya mexanizmidan foydalaniladi. Buning natijasida muomalaga tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlanmagan pullar paydo bo'ladi va shuning asosida milliy valutaning qadrsizlanish jarayoni chuqurlashadi. Shu sababli, Davlat budjeti defitsitining me'yoriy darajada bo'lishini ta'minlash milliy valutaning barqarorligiga erishish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyotda Davlat bdyujeti defitsiti summasining nominal YaIM miqdorining 3 foizdan oshmasligi me'yoriy daraja sifatida qabul qilingan.

Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati milliy valutaning almashuv kurslariga, shu jumladan, nominal almashuv kursiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sanaladi.

Milliy valuta kursining barqarorligiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri, shubhasiz, inflatsiya hisoblanadi. Inflatsiya ta'sirida milliy valutaning qadri pasayadi.

Davlat tashqi qarzining o'zgarishi milliy valutaning nominal almashuv kursiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri sanaladi.

11.6. Valuta siyosati

11.6.1. Valuta siyosati tushunchasining mazmuni

Valuta siyosati – bu valuta munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarning yig'indisidir.

Valuta siyosatining ikki shakli mavjud:

1. Diskont siyosati
2. Deviz siyosati

Diskont siyosati – bu Markaziy bankning diskont stavkasini o'zgartirish orqali milliy valutaning nominal almashuv kursiga va to'lov balansiga ta'sir etish siyosatidir.

Markaziy bankning diskont stavkasi – bu Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga va hukumatga beriladigan kreditlarning foiz stavkasidir.

Deviz siyosatining shakllari:

1. Valuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish
2. Devalvatsiya
3. Revalvatsiya
4. Valutaviy cheklashlar

Valuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish –bir vaqtning o‘zida bir nechta xorijiy valutilarda zaxiralar tashkil qilish tushuniladi.

Devalvatsiya – bu milliy valutaning xorijiy valutilarga nisbatan qadrsizlanishidir.

Revalvatsiya - bu milliy valutaning xorijiy valutilarga nisbatan qadrining oshishidir.

Valutaviy cheklashlar – bu joriy valuta operatsiyalari va kapitallarning harakati bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarga nisbatan cheklovlarning joriy qilinishidir.

11.6.2. Hukumatning valuta siyosati

Hukumat o‘zining valuta siyosati doirasida milliy valuta bozorini rivojlantirish, mamlakatning eksport salohiyatini yuksaltirish, valuta nazorati tizimini takomillashtirish maqsadlarini ko‘zda tutadi.

O‘zbekistonda 2003 yilning 15 oktyabridan boshlab joriy valuta operatsiyalari bo‘yicha cheklovlar bekor qilindi. Chunki, 2003 yil 8 oktyabrda O‘zbekiston hukumati Xalqaro valuta fondi nizomining VIII-moddasi bo‘yicha majburiyatlarni qabul qildi.

Xalqaro valuta tizimi evolyusiyasi jarayonida, vaqt o‘tishi bilan «konvertatsiya qilinishi» tushunchasi ham o‘zgarib bordi. Hozirgi vaqtda, valutaga egalik qilayotgan har qanday shaxs uni bozordagi - qat’iy belgilangan, yoki suzib yuruvchi kurs bo‘yicha uni xalqaro zahira valutilaridan biri (AQSh dollari, Yevro va sh. k.)ga konvertatsiya qilish xuquqiga ega bo‘lishiga - valutaning «to‘liq konvertirlanishi» deyiladi.

11.6.3. Markaziy bankning valuta siyosati

Markaziy bankning valuta siyosati doirasida amalga oshiriladigan valuta operatsiyalarining uch asosiy turi xalqaro bank amaliyotida keng qo‘llanilmoqda. Ular quyidagi operatsiyalardan iboratdir:

1. Valuta intervensiyasini amalga oshirish maqsadida o‘tkaziladigan operatsiyalar.

2. Hukumatning tashqi qarzini to‘lash bo‘yicha Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan valuta operatsiyalari.

3. Markaziy bankning balansidagi oltin-valuta zaxiralarini boshqarish operatsiyalari.

Qisqacha xulosalar

To‘lov balansi – muayyan muddat davomida mamlakatning chet ellarga sarflagan va xuddi shu davr mobaynida mamlakatga chet eldan tushgan to‘lovlar summalari nisbatini tavsiflaydi. To‘lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan tovarlar va xizmatlar haqi, xorijiy investitsiyalar, xorijda diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish xarajatlari, fuqarolar va qo‘shma korxonalarining chet elga pul o‘tkazmalari va boshqalar kiradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. To‘lov balansi tarkibiy qislari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirib bering.
2. To‘lov balansi taqchilligi va inqirozi bir xil tushunchalarmi?
3. Erkin tebranuvchi valuta kursi tizimida to‘lov balansi qay yo‘sinda barqarorlashadi?
4. To‘lov balansi tarkibiy qislari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirib bering.
5. To‘lov balansi taqchilligi va inqirozi bir xil tushunchalarmi?
6. Erkin tebranuvchi valuta kursi tizimida to‘lov balansi qay yo‘sinda barqarorlashadi?
7. “Suzuvchi valuta kurslari” nazariyasining mazmuni nimalarda namoyon bo‘ladi.
8. “Belgilangan paritetlar va valuta kurslari” nazariyasining asosiy qoidalari nimalardan iborat?
9. Milliy valutaning barqarorligini ta‘minlashda qo‘llaniladigan qanday usullarni bilasiz?
10. Devalvatsiya nima maqsadda amalga oshiriladi?
11. Revalvatsiya nima maqsadda amalga oshiriladi?

12.1. Ichki va tashqi muvozanat: iqtisodiy siyosat muammolari

Ochiq iqtisodiyotda ichki va tashqi muvozanatga erishish makroiqtisodiy tartiblashning jiddiy muammolaridan sanaladi. Uni hal qilish ham ichki va ham tashqi o'zgaruvchilarning o'zaro ta'sir etishlarini hisobga olishni talab qiladi (garchi bu taqsimlash shartli bo'lsa ham). O'zgaruvchilarning bir -birlariga teskari ta'sir etishlarining mavjudligi, shuningdek, birlamchi ta'sirning odatda bevosita, hamda uzoq muddatli davrda ro'y beradigan butun bir oqibatlar bilan davom etishi natijasida murakkablashadi.

Ichki muvozanat inflatsiya mavjud bo'lmagan (yoki u barqaror past darajadali) to'la bandlik darajasida talab va taklif orasidagi balansni taqozo etadi. Qisqa muddatli davrda ichki balans muammosi, avvalo fiskal va pul siyosati yordamida jami talabni tartiblash usullari bilan hal qilinadi.

Tashqi muvozanat to'lov balansining saldosi valuta kursining muayyan rejimida nolga tengligiga bog'liqdir. Ba'zan bu muammoni ikkita alohida muammoga ajratishadi: Joriy operatsiyalar hisobining ma'lum holatiga erishishi va valuta zaxiralarining belgilangan darajada ushlab turish.

**12.2. Pul -kredit va budjet-soliq siyosatining
to'lov balansiga ta'siri.**

Pul-kredit va budjet – soliq siyosati qisqa muddatli davrda ichki muvozanatga qanday ta'sir qilishi ma'lum. Shu choralarning tashqi balansga qanchalik ta'sir qilish oqibatlarini ko'zdan kechiraylik.

To'lov balansi holatiga **fiskal siyosat ikki yo'nalish bo'yicha** ta'sir qiladi: **daromad** darajasiga va **foiz stavkasiga** ta'sir qilish orqali. Multiplikator samarasi orqali bo'ladigan davlat xarajatlari daromadning oshishiga olib keladi, bu o'z navbatida nafaqat milliy tovarlarga, balki import tovarlariga bo'lgan talabni ham ko'paytiradi. Importning oshishi savdo balansini yomonlashtiradi. Bunday holat ko'pincha moliya bozorlarida qo'shimcha davlat xarajatlari davlat tomonidan o'zlashtirilishining kengayishiga olib keladi, bu esa foiz stavkasini oshiradi. Nisbatan yuqori stavka esa chet el kapitalini jalb qiladi, kapital

harakati balansini yaxshilaydi, ma'lum bir darajada savdo balansining bir butun to'lov balansiga salbiy ta'sirini neytrallashtiradi.

Pul-kredit siyosatining to'lov balansiga ta'siri fiskal siyosatga nisbatan ancha aniqroq bo'ladi. Pul taklifining o'sishi foiz stavkasini pasaytiradi va iqtisodiyotga ta'sir qilishning ikki kanaliga ega. Arzon pullar xarajatlarni, shu jumladan import xarajatlarini oshiradi (ayniqsa talab inflatsiyasi tufayli narx oshishi mumkinligi), bu esa savdo balansini yomonlashtiradi.

Ikkala holatda ham yani kengaytiruvchi fiskal va kengaytiruvchi pul siyosatida daromad orqali ta'sir kursatish to'lov balansining yomonlashuviga olib kelsa, foiz stavkasi orqali ta'sir esa turlicha bo'lishi mumkin va ko'pincha kapitalning mobillik darajasiga bog'liq bo'ladi.

12.3. Qayd etilgan almashuv kursi sharoitida ichki va tashqi muvozanat modeli. Rollarni taqsimlash qoidasi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faqat ichki muvozanatga erishishga yo'naltirilgan (odatda jami talabni tartibga solish orqali) iqtisodiy siyosat ayrim hollardagina bir vaqtda tashqi muvozanatga ham olib keladi. Shu kabi holat tashqi muvozanatni maxsus tartiblashda ham sodir bo'ladi. Shu sababli tashqi va ichki balansga bir vaqtda erishish masalasi alohida qo'yiladi va bunga kattagina qiyinchiliklar bilan erishilishi mumkin. Ichki va tashqi muvozanat muammolarini taxlil qilish jarayonida **iqtisodiy siyosatni tayyorlash va o'tkazishning asosiy tamoyili** ishlab chiqildi: ikki mustaqil maqsadlarga erishish- ichki balans uchun (ishsizlikning tabiiy darajasi va inflatsiya past yoki mavjud bo'lmagan holatda ishlab chiqarishning kutilgan hajmiga erishish) va tashqi balans uchun (to'lov balansi yoki savdo balansi saldosi nolgacha tengligi) iqtisodiy siyosatning kamida ikkita mustaqil instrumenti kerak bo'ladi⁶⁷. Bunga muvofiq tarzda, iqtisodiy siyosatning uch maqsadiga erishish uchun uch instrument ishlatilishi lozim va shu kabilar.

R. Mandellning ishlarida pul-kredit va budjet - soliq siyosatining instrumentlarini qo'llash bir vaqtda ikki maqsadga- tashqi va ichki muvozanatga erishish sharoitida, kapitalning xalqaro miqyosda harakat qilishiga imkon beruvchi model ko'rsatib beriladi.

Ichki va tashqi muvozanat muammosining nazariy jixatdan ko'pincha bir qancha turlarga ajratilgan IS-LM modellariga to'lov balansi muvozanatini ko'rsatuvchi uchinchi *BP* egri chiziqni kiritish yo'li bilan


⁶⁷ Bu prinsip g'oyasi Y.Tinbergenga tegishli

qaraladi. Bunday model valuta kurslarining turli tizimlari – qayd etilgan va suzuvchi tizimlari, shuningdek kapital mobilligi turli darajalari uchun yasaladi. Mukammal kapital mobilligiga ega kichik ochiq iqtisodiyot Mandell - Fleming modeli yordami bilan tahlil qilinishi mumkin⁶⁸.

Iqtisodiy siyosat uchun aniq amaliy tavsiyalar nuqtai nazaridan bu mammoğa yondoshish boshqacha tarzda ham bo‘lishi mumkin (yani ko‘rsatilgan modellarga nisbatan ancha sodda ko‘rinishda).

Bunday yondoshuvlar variantlaridan birini qaraylik, u ko‘pincha hukumat qayd etilgan valuta kursini qo‘llagan holatda ichki va tashqi muvozanatga bir vaqtda erishish uchun ishlatiladi.

Bu yondoshuvning grafik tasviri shundayki, koordinatalar o‘qlarida siyosatning ikki asosiy vositasi beriladi, ular ikki qo‘yilayotgan (ichki va tashqi muvozanatdan iborat) masalani yechish uchun ishlatiladi: davlat xarajatlari darajasi (G) va foiz stavkasi (R).



12.1 - rasm. Tashqi muvozanatga erishish mexanizmi⁶⁹

12.1-rasmda BB egri chizigi davlat xarajatlari (G) hajmlari majmuasi va foiz stavkalari (R) qiymatlari to‘plamini bildiradi, ular tashqi muvozanatni qo‘llab-quvvatlashni akslantiradi, ya’ni to‘lov balansi saldosini nolga teng ($BP=0$) holatga muvofiqdir.

Egri chiziqning musbat og‘ishi quyidagicha tushuntiriladi. Boshlang‘ich E nuqtada ichki va tashqi muvozanatga erishilgan bo‘lsin. Davlat xarajatlari (G) ning o‘sishi E nuqtadan o‘ng tomonga siljishi bilan akslantiriladi, masalan A nuqtagacha. Buning natijasi daromadning


⁶⁸ Мэнкью Н.Г. Макроэкономика. Гл. 13.

⁴ G o‘rniga davlat budjeti saldosini ishlatilishi mumkin.

⁶⁹ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 7 th edition. Harvard University. NY.: Worth Publishers, 2015

o‘sishi bo‘ladi, bu importning o‘shishiga olib keladi, savdo balansi defitsini vujudga keltiradi (bu joyda fiskal siyosatning kiska muddatli oqibatlarigina karalmoqda va valuta zaxiralarining keyingi o‘zgarishlari pul taklifiga ta’siri qilmaydi).

Ichki muvozanatning grafik tasvirini (12.2-rasm), ya’ni to‘la bandlik, ishlab chiqarish potensial hajmi va inflatsiyaning yukligini qaraymiz. E nuqtada ham ichki va ham tashqi muvozanatga (turg‘unlikka) erishilsin. Agar hukumat G xarajatlarini oshirsa, u holda daromad, keynsian nazariyasiga ko‘ra multiplikator samarasi bilan ortadi. E nuqtadan A nuqtaga siljish, ya’ni bu o‘shishni akslantiruvchi siljish, muvozanat nuqtasidan ortiqcha talab hududiga ko‘chishni anglatadi, unda ortiqcha daromad (to‘la bandlik darajasidan yuqori holat) inflatsion bosimni vujudga keltiradi. Endi ichki turg‘unlikni tiklash uchun talabni qisqartirish maqsadida pul massasi miqdorini kamaytirish, R ni oshirish zarur. Grafikda bu holat A dan D nuqtaga harakat orqali tasvirlangan, unda daromad resurslar to‘la bandlikka qaytadi va ichki muvozanat tiklanadi.



12.2 –rasm. Ichki muvozanatning grafik tasviri⁷⁰

Shunday qilib, ichki muvozanatni ushlab turuvchi G va R birikmalar to‘plami bizga musbat og‘ishga ega YY egri chiziqni beradi. Bu egri chiziqdan o‘ngda va pastda turgan barcha nuqtalar ortiqcha talab hududida bo‘ladi (davlat xarajatlarining ortishi va pulning arzonlashuvi tufayli). YY egri chiziqdan chapda va yuqorida turgan nuqtalar ortiqcha taklif (ishsizlik) hududida joylashadi, bu holat G ning qisqarishi va R ning ortishi bilan tushuntiriladi.


⁷⁰ N. Gregory Mankiw. *Macroeconomics*. 7 th edition. Harvard University. NY.: Worth Publishers, 2015

Budjet - soliq siyosatining qayd etilgan almashuv kursi sharoitida samaraliligi bevosita kapitalning mobilligiga bog‘liq. Davlat xarajatlarining o‘shishi foiz stavkasining o‘shishiga olib keladi (davlat fond bozorida mablag‘ qarz olib, xususiy sektorga xizmat qiladigan pul massasini qisqartiradi), bu esa xorijdan kapital oqimi kelishini rag‘batlantiradi. Kapitalning yuqori mobilligida G ning o‘shishiga bog‘liq bo‘lgan savdo balansi kapitali amalda kapital harakati hisobi musbat saldosi tomonidan ko‘planadi va MB, almashuv kursida paydo bo‘ladigan tendensiyani qoplash uchun xorijiy valutani sotib olishga va uni milliy almashuvga tashlashga majbur bo‘ladi va shu tariqa pul taklifini oshiradi. Bu holat, davlat xarajatlarini oshirishi bilan bir qatorda, daromadni oshirishga ko‘shimcha sabab paydo qiladi⁷¹. Shunday qilib, qayd etilgan valuta kursida fiskal siyosat pul siyosatidan farqli ravishda daromad darajasiga, shunga muvofiq tarzda ichki muvozanatga, muvaffakiyat bilan ta’sir etishi mumkin, bunda kapital mobilligi ortgan sari ta’sir darajasi ham kengayadi.

Qanday qilib ichki va tashqi muvozanatning yuqorida keltirilgan grafik interpretatsiyasiga muvofiq ravishda, iqtisodiy siyosatning turli instrumentlarini ishlatgan holda iqtisodiyatda to‘la (ya’ni ichki va tashqi) muvozanatga erishish mumkin?

12.3-rasmda ichki va tashqi muvozanatlar holatlarining muayyan birlashmasi bilan tavsiflanadigan to‘rtta sektorni ajratish mumkin. I - zona to‘lov balansining defitsiti ($BP < 0$) va ortiqcha talabga mos, bu esa inflatsiya (π) bilan birgalikda ro‘y beradi. II zona to‘lov balansining defitsiti ($BP < 0$) va ortiqcha taklifga mos, bu esa ishsizlik (u) bilan birgalikda ro‘y beradi. III zona to‘lov balansining musbat saldosi ($BP > 0$) va ortiqcha taklifga (u) ga mos. Nihoyat, IV zona to‘lov balansining musbat saldosi va ortiqcha talab (π) ni ko‘rsatadi. Shu grafik asosida to‘la muvozanatga (E nuqta) yaqinlashish maqsadida iqtisodiy siyosatning yunalishlari va instrumentlarini to‘g‘ri tanlash yuzasidan tasavvur hosil qilish mumkin.

⁷¹ Ichki xususiy investitsiyalarni siqib chiqarishning haqiqiy effekti xorijiy kapitalning oqib kirishi va pulga taklifning ortishi bilan qoplanadi, bu esa fiskal siyosatning daromadga musbat ta’sirini ancha oshiradi va uning yordami bilan ichki muvozanatni tez tiklashga imkon yaratadi (12.2-rasmda E nuqtadan A nuqtaga harakat)



12.3 – rasm ⁷²

Ikki organ bor deb faraz qilaylik: Markaziy Bank (MB) va Moliya vazirligi (MV), ular o‘zlarining ish yuritish, ya’ni, mos ravishda, pul (R , M^s) va budjet - soliq (G , T) instrumentlariga egadirlar. Bu taxlil E nuqtada umumiy muvozanat agar organlar nisbatan mustaqil, bevosita koordinatsiyasiz harakat qilganlaridagina erishilishi mumkinligini ko‘rsatishi kerak⁷³. Bunda faqat har qaysi organning vazifasini aniq ko‘rsatilishigina muhim bo‘lib qoladi.

Vakolatlar taqsimoti (R . Mandell va M . Fleming xulosalariga muvofiq ravishda) shunday qilingan bo‘lsinki, bunda Markaziy Bankga tashqi muvozanatni ta’minlash ($BP=0$) yuklatilgan bo‘lsin va ushbu qoida ishlatiladigan bo‘lsin: to‘lov balansi musbat ($BP>0$) bo‘lganida foiz stavkasi pasayadi va uning defitsitida ($BP<0$) esa ortadi. Budjet - soliq siyosati uchun javob beruvchi Moliya vazirligiga esa quyidagi instruksiyalarga muvofiq ravishda ichki muvozanatni ta’minlash yuklatilsin: ishsizlik sharoitida davlat xarajatlarini (G) oshirish va inflatsiya bosimi sharoitida esa uni kamaytirish.


A nuqtadagi (12.4-rasm) iqtisodiyotning boshlang‘ich holati BP defitsit va inflatsiya bilan tavsiflanadi. MB C nuqtada tashqi muvozanatga erishish maqsadida R ni oshirish yo‘lida harakat qila boshlaydi. Bu harakatlar iqtisodiyotdagi inflatsion bosimni yumshatadi, lekin uni

⁷² N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 7 th edition. Harvard University. NY.: Worth Publishers, 2015

⁷³ Bu holdagi mustaqillik boshqaruv organlari boshqa organning ta’sir etishiga emas, balki iqtisodiyotning ahvolinigina e’tiborga olib ish yuritishlari nazarda tutiladi.

batamom bartaraf qilolmaydi. MV ichki balans muammosini hal qilishga kirishib, davlat xarajatlarini qisqartirish yo'li bilan, iqtisodiyotni F nuqta tomon siljitib, inflatsiyaga ta'sir ko'rsatadi. MB esa yana vujudga kelayotgan, endi BP ning musbat saldosini ko'rinishidagi, tashqi disbalansni bilib qolib, oldingi kursdan birmuncha chekinishga qaror qiladi, foiz stavkasini pasaytiradi va iqtisodiyotni I nuqta tomon siljitadi. Bunday harakatlar tufayli inflatsiyaning bir qadar jonlanishi MV ning diqqatini o'ziga tortadi va u davlat xarajatlarini kamaytirishni davom ettirishga qaror qiladi (harakatning I nuqtadan chapga tomon yo'nalganligi). Ikkala organning keyingi mustaqil harakatlari, tushunarliki, iqtisodiyotni E nuqta tomon siljitadi, unda bir vaqtda ichki va tashqi muvozanatga erishiladi.

Shuni tushinish mumkinki, vakolatlarining boshqacha tarzda taqsimlanishi faqat negativ natijagagina olib keladi. MB ga ichki balansni, MV ga esa tashqi balansni nazorat qilish topshirilgan bo'lsin. A nuqtadagi vaziyatdan (12.5-rasm) kelib chiqib, MB inflatsiyani bartaraf qilish va ichki muvozanatni tiklash maqsadida foiz stavkasini B nuqtadagi darajagacha ko'taradi. MV esa BP da musbat saldoni aniqlab, uni G ni oshirish orqali neytrallashtirishga urinadi, bu esa daromad, import va savdo balansi defitsitining ortishiga olib keladi (BB egri chiziqdagi B nuqtadan C nuqta tomon o'ngga siljish). Lekin tashqi muvozanatning yangi nuqtasi (C nuqta) B nuqtadan o'ngda bo'lib qoladi, ya'ni iqtisodiyot umumiy muvozanat holatidan (E nuqta) uzoqlashadi.




12.4 – rasm.⁷⁴

Qaytadan inflatsiya ro'y beradi va MB R ni oshirib (C nuqtadan yuqoriga) pul siyosatini keskinlashtirishga majbur bo'ladi, bu esa

⁷⁴ N. Gregory Mankiw. *Macroeconomics*. 7 th edition. Harvard University. NY.: Worth Publishers, 2015

vaziyatni yanada keskinlashtiradi. Iqtisodiyot muvozanat E nuqtasidan uzoqlashib, IV zona bo'yicha harakat qiladi. Inflatsiya va defitsit BP tebranishlari amplitudasi har gal oshadi.



12.5 – rasm.⁷⁵

Shunday qilib, boshqaruv organlari o'rtasida vakolatlarni noto'g'ri taqsimlash iqtisodiyotni izlanayotgan muvozanat holatidan uzoqlashtiradi, xalos. Rollarning to'g'ri taqsimlanishi yuqorida bayon qilingan nisbatan ustunlik qoidasiga asoslanishi kerak: xar qaysi masala shunday organ oldiga qo'yilishi kerakki, uning instrumentlari bu masalani yechishda nisbatan katta ta'sirga ega bo'lsin. Yuqorida qaralgan model qayd etilgan valuta kursida tashqi balansni qo'llab – quvvatlanishida pul siyosatining nisbatan ustunligi, fiskal siyosat ustunligi esa ichki muvozanatni quvvatlab turilishiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu qoida Mandell samarali bozorini tasniflash tamoili deb ataladi (Mundell's principle of effective market classification).

12.4. Suzuvchi almashuv kursi sharoitida iqtisodiy siyosat.

Suzuvchi almashtirish kursi sharoitida pul va budjet-soliq siyosati qayd etilgan kursdagi vaziyatga nisbatan butunlay boshqa natijalarga ega. Endi rollar taqsimoti muammosini to'g'ri yechish teskari ifodaga ega bo'ladi: budjet - soliq siyosati pul siyosatiga nisbatan savdo balansi uchun, demak pul balansi uchun ham katta qiymatga ega bo'ladi va aynan undan tashqi balansga erishish uchun foydalanish kerak bo'ladi, ichki balans esa pul siyosati uchun tartiblash predmetiga aylanadi.

⁷⁵ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 7 th edition. Harvard University. NY.: Worth Publishers, 2015

Agar qayd etilgan kursda ichki pul siyosati almashtirish kursini qo'llab-quvvatlash zarurligigi bilan bog'langan bo'lsa, endi u bunday vazifasidan xalos bo'ladi va ichki muammolarni yechishda samarali foydalanilishi mumkin bo'lib qoladi.

Shunday qilib, pul taklifining kengayishi foiz stavkasini pasaytiradi va xarajatlarning o'sishiga olib keladi. Ma'lumki, xarajatlarning ko'payishi importning o'sishini rag'batlantiradi va savdo balansini yomonlashtiradi. To'lov balansi defitsitiga foiz stavkasining pasayishi tufayli ro'y beradigan kapitalning oqib chiqishi ham ko'maklashadi. Lekin egiluvchan kursda defitsit saqlanib qolmaydi.

Importning o'sishi va kapitalning oqib chiqishi xorijiy valutaga bo'lgan talabni oshiradi, milliy valuta esa qadrsizlanadi. Bunday qadrsizlanish o'z navbatida bizning eksportyorlarimizning raqobatga layoqatliligini kuchaytiradi, bu esa savdo balansini yaxshilashga olib boradi. Eksportning o'sishi milliy mahsulotga bo'lgan talab oshganligini ko'rsatadi, bu esa pul massasining dastlabki o'sishi tufayli vujudga kelgan iqtisodiy ko'tarinkilikni yanada kuchaytiradi.

Shunday qilib, pul siyosati, pul taklifining bevosita o'sishi, shuningdek almashtiruv kursini pasaytirish va eksportni oshirish yo'li bilan, ichki daromadga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Kapitalning harakatchanligi kapitalning oqib chiqishiga ta'sir ko'rsata oladigan darajada ahamiyatga ega, demak, milliy valutaning qadrsizlanishiga ham. Lekin, pul siyosati mexanizmining murakkabligini esga tushirib, shuni taxmin qilish mumkinki, uning ishlab chiqarishga ijobiy ta'siri kattaroq darajada, ishlab chiqarishning ichki rag'batlantiruvchi omillariga nisbatan tashqi dunyoga bevosita bog'liq bo'ladi (foiz stavkasini pasaytirish orqali), ya'ni milliy mahsulotga bo'lgan talabning o'sishi, mamlakatdan kapitalning oqib chiqishi va valutaning qadrsizlanishi sharoitida, bizning eksportimizga talabning o'sishi hisobiga ro'y beradi. Shunga ko'ra pul siyosatining ichki balansga ijobiy ta'siri nixoyatda o'ziga xos bo'ladi.

12.5. Ichki va tashqi muvozanat modelining amaliy qo'llanilishi.

Mazkur bobda «rollarni taqsimlash» tamoiliga asoslangan bayon qilingan ichki va tashqi muvozanat standart modeli unchalik katta bo'lmagan modifikatsiya bilan XVF zayomlari yordami bilan barqaror siyosat va tarkibiy o'zgarishlarini o'tkazayotgan ko'pgina mamlakatlarda foydalanildi.

Qo'yilgan maqsadlar ixtiyoriy kompleksini ta'minlash uchun iqtisodiy siyosatning barcha vositalarining qanchalik ahamiyatga ega ekanligini aniqlashga imkon beruvchi iqtisodiyot oxiriga etkazilgan miqdoriy modeli mavjud bo'lmagan holatda iqtisodiy siyosatni odatda alohida vositalarni aniq maqsadlar bilan bog'lagan holda bosqichma - bosqich o'tkazadilar. Ichki va tashqi balans standart modeli, masalan, 3 maqsad va 3 vositaga ega bo'lishi mumkin (XVF dasturlarida shunday qilingan edi). Bunday modelga ko'ra, budget-soliq siyosati ichki balans bilan bog'lanadi, real valuta kursi esa joriy operatsiyalar hisobi bilan, pul siyosati esa - xorijiy valutalar zaxirasi hajmi bilan bog'lanadi. Yuqorida keltirilgan modeldan farqli ravishda bu holda «tashqi balans» maqsadi ikkiga bo'linadi: joriy operatsiyalar hisobi va valuta zaxiralari darajasi. Bunda uch qoidadan foydalaniladi:

agar inflatsiya juda yuqori bo'lsa, budget defitsitini kamaytirish lozim (birinchi defitsit);

agar joriy operatsiyalar defitsiti katta bo'lsa, real almashtiruv kursini pasaytirish kerak;

agar xorijiy valutalar zaxirasi juda kam bo'lsa yoki juda tez qisqarayotgan bo'lsa, pul siyosatini keskinlashtirish kerak.

Ichki noqarama-qarshilik- foydalaniladigan makroiqtisodiy modeli odatda ichki va tashqi balansning YaIM dagi qarz ulushi dinamikasi ko'rsatkichini hisoblash orqali tekshiriladi (yoki, qarzdorlikning turg'unligini taxlil qilish orqali). Ichki qarzdorlik dinamikasining ushbu tenglamasidan foydalaniladi:

$$\Delta\lambda = \lambda(r-n) + r - s,$$

bunda λ - qarzning YaIM ga nisbati,

r - real foiz stavkasi,

n - real YaIM usish tempi,

r - birinchi defitsit YaIM ulushi sifatida,

s - emission daromadning YaIM ga nisbati.

Emission daromad inflatsion soliqni ham va mamlakatda iqtisodiy o'sish ko'tarilgan sari pulga bo'ladigan real talabning o'sishini ham o'z ichiga oladi. Emission daromad (pul massasining o'sishi) iqtisodiy o'sishning rejalashtiriladigan suratlaridan, inflatsiyaning maqsadli ko'rsatkichlaridan va pul muomalasi tezligining baholanadigan qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi (ma'lumki $MY = PY$ formula yordami bilan).

12.6. Samarali iqtisodiy siyosatni yuritishni qiyinlashtiruvchi omillar

Ichki va tashqi muvozanatni tahlil qilib iqtisodiy siyosatning samarali ishlab chiqilishi va o'tkazilishiga halaqit beruvchi bir qancha jarayonlarda umumiylikni kuzatdik.

Birinchi, iqtisodiy siyosatning u yoki bu tadbirlarini o'tkazishdagi ahamiyatli vaqt laglari (to'siqlari) mavjud (siyosat vositalari va iqtisodiy reaksiya o'zgarishlari orasidagi vaqt uzilishi), masalan foiz stavkasi o'zgarishi, shuningdek firmalarning o'z rejalarini istemol va investitsion xarajatlarga nisbatan muvoqlashtirishi. Lekin bu siyosatning eng qiyin muammosi emas: natijalarni kerakli paytda olish maqsadida ma'lum bir tadbirlarni o'tkazilish vaqtini o'zgartirgan holda laglarni o'zgartirish mumkin.

Ikkinchi muammo noaniqlik omili bilan bog'liq va u ham o'z navbatida uch xil bo'ladi:

- 1) Joriy iqtisodiy holatning-
 - a) to'la bandlikga mos keluvchi ishlab chiqarish darajasi
 - b) savdo balansining maqbul holati-ga nisbatan noaniqligi;
- 2) Bo'lg'usi shoklar (larzalar)ga nisbatan noaniqlik, chunonchi, pulga bo'lgan talab, xususiy sektor xarajatlari darajasi va boshqalarning o'zgarishi;
- 3) Modelning o'z to'g'riligi masalasidagi noaniqlik (jamg'arish, importga bo'lgan moyillik darajasi, egri chiziqlar egilishi va boshqalar kabi parametrlarning to'g'riligi).

Qisqacha xulosalar

Ichki muvozanat inflatsiya mavjud bo'lmagan (yoki u barqaror past darajadali) to'la bandlik darajasida talab va taklif orasidagi balansni taqozo etadi. Qisqa muddatli davrda ichki balans muammosi, avvalo fiskal va pul siyosati yordamida jami talabni tartiblash usullari bilan hal qilinadi.

Tashqi muvozanat to'lov balansining saldosi valuta kursining muayyan rejimida nolga tengligiga bog'liqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ochiq iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
2. Mandell-Flemingning ochiq iqtisodiyot modelini tavsiflab bering.
3. Suzib yuruvchi valuta kursi sharoitida pul-kredit siyosati qanday maqsadlar uchun qo‘llanilganda yuqori samara beradi va nima sababdan?
4. Suzib yuruvchi valuta kursi sharoitida budjet-soliq siyosatining tashqi muvozanatni ta‘minlashga ta‘siri mexanizmini tushuntirib bering.
5. Kapital mobilligining qayd qilingan valuta kursi sharoitida iqtisodiy siyosat samaradorligiga ta‘sirini izohlab bering.

GLOSSARIY

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
<i>Avtokorrelyatsiya</i>	<i>Автокорреляция</i>	<i>Autocorrelation</i>	vaqtli qatorlarning keyingi va oldingi hadlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish hisoblanadi
<i>Amortizatsiya</i>	<i>Амортизация</i>	<i>Amortizing</i>	bu investitsiyalarning sof va yalpi hajmini farqlash uchun qo'llaniladi, ba'zan esa amortizatsiya deb asosiy kapital iste'moliga aytiladi
<i>Bandlik siyosati</i>	<i>Политика занятости</i>	<i>Employment policy</i>	bu jamiyat va uning har bir a'zosining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi chora tadbirlar yig'indisidir.
<i>Gipoteza</i>	<i>Гипотеза</i>	<i>Hypothesis</i>	umumiy nazariya dairasidagi ilmiy bashoratni tavsiflaydi
<i>Daromadlar usuli</i>	<i>Метод доходов</i>	<i>Income method</i>	bu YaIMni rezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan barcha daromadlar summasiga teng deb ham hisoblash mumkin
<i>Zaxira</i>	<i>Занас</i>	<i>Reserve</i>	bu faqat muayyan vaqtda o'lchanadigan va muayyan sana (masalan, yilning boshi yoki oxiri) holatiga ko'ra ob'ektning holatini tavsiflovchi o'zgaruvchan.
<i>Import inflyatsiyasi</i>	<i>Импорт инфляция</i>	<i>Import inflation</i>	bunda tashqi omillar ta'sir qilib, mamlakatga chet el valyutasining haddan tashqari oqib kelishi va import tovarlarining bahosi oshishi tufayli yuzaga keladi

<i>Investitsiyalar sof hajmi</i>	<i>Чистые инвестиции</i>	<i>Net investment</i>	bu investitsiyalar yalpi hajmidan amortizatsiya hajmining ayirmasiga teng.
<i>Inflyatsiya</i>	<i>Инфляция</i>	<i>Inflation</i>	iqtisodiyotdagi narxlar umumiy darajasining barqaror va doimiy ravishda oshishiga aytiladi
<i>Iste`mol narxlari indeksi</i>	<i>Индекс потребитель ских цен</i>	<i>Consumer price index</i>	o`rta darajali iste`molchi tomonidan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar representativ savati narxlarining o`lchaydi.
<i>Kredit inflyatsiyasi</i>	<i>Инфляция кредитов</i>	<i>Credit inflation</i>	ortiqcha kredit ekspansiyasi tufayli yuzaga keladi
<i>Qo`shilgan qiymat</i>	<i>Добавленный стоимость</i>	<i>Value added</i>	bu oraliq iste`mol qiymati chegirma qilingan ishlab chiqarish yalpi hajmining qiymati.
<i>Makroiqtisodiy prognozlash</i>	<i>Макроэконом ическое прогнозировани е</i>	<i>Macroecono mic forecasting</i>	iqtisodiy hodisalarni bilishning ilmiy usullariga va iqtisodiy prognostikaning usullari, vositalari va uslublari yig`indisidan foydalanishga asoslangan makroiqtisodiy prognozlarni ishlab chiqish jarayoni hisoblanadi
<i>Mehnat resurslari balansi</i>	<i>Баланс трудо вых ресурсов</i>	<i>The balance of labor resources</i>	mehnat resurslari mavjudligini hamda ularning iqtisodiyot tarmoqlari va iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha taqsimlanishini tavsiflovchi ko`rsatkichlar tizimi
<i>Milliy hisoblar tizimi</i>	<i>Система националь ных счётов</i>	<i>The system of accounts national</i>	muayyan davrda real ishlab chiqarish hajmini va barcha asosiy sektorlar va ishlab chiqarish omillarining mamlakatning umumiy ishlab chiqarishiga qo`shgan hissasini ko`rsatuvchi turli faoliyat turlarini hisobga oluvchi statistika tizimi

<i>Model</i>	<i>Модель</i>	<i>Model</i>	so`zi lotincha “modulus” so`zidan kelib chiqib, o`lcham, namuna deb anglatadi
<i>Moliyaviy operatsiyalar</i>	<i>Финансовые операции</i>	<i>Financial operations</i>	bu moliyaviy aktivlar va majburiyatlar darajalaridagi o`zgarishlar (misol uchun, qaytaril-magan ssudaning asosiy summasini to`lash majburiyatlarning qisqarishini o`zida namoyon etadi)
<i>Nominal ko`rsatkichlar</i>	<i>Номинальные показатели</i>	<i>Nominal indices</i>	joriy davr narxlarida o`lchanadigan ko`rsatkichlardir
<i>Prognoz</i>	<i>Прогноз</i>	<i>Forecast</i>	kelajakda ob`ektning ehtimol holatlari, muqobil yo`llari va ularni amalga oshirish muddatlari to`g`risida ilmiy asoslangan fikr- mulohazalarning miqdori tushuniladi
<i>Pul sektori</i>	<i>Денежный сектор</i>	<i>monetary sector</i>	iqtisodiyotni moliyaviy xizmatlar bilan ta`minovchi sektordir
<i>Real ko`rsatkichlar</i>	<i>Реальные показатели</i>	<i>Actual results</i>	bu bazaviy davr narxlarida o`lchanadigan ko`rsatkichlardir
<i>Real oqimlar</i>	<i>Реальные потоки</i>	<i>Live streams</i>	bu tovarlar va xizmatlar bilan amalga oshiriladigan (import, eksport, etkazib berish) operatsiyalar mahsuli
<i>Real sektor</i>	<i>Реальный сектор</i>	<i>Real sector</i>	bu tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va ularni iste`mol qilish amalga oshiriladigan sektor. Real sektorning asosiy sub`ektlari bo`lib uy xo`jaliklari va korxonalar hisoblanadi
<i>Reja</i>	<i>План</i>	<i>Plan</i>	bu bajarilishi shart bo`lgan, bir ma`noli direktiv hujjat
<i>Sof eksport</i>	<i>Чистый экспорт</i>	<i>Net exports</i>	import bilan eksport o`rtasidagi farq

<i>Sof tashqi aktivlar</i>	<i>Чистые внешние активы</i>	<i>Net external assets</i>	tashqi passivlar chegirma qilingan holda tashqi aktivlarga teng
<i>Sof faktoriy daromad</i>	<i>Чистый факторный доход</i>	<i>Net factor income</i>	bu rezidentlarning mulki bo`lib, chet elda turgan ishlab chiqarish omillaridan foydalanishdan olingan daromadlar bilan norezidentlarga ushbu mamlakatda o`zla-riga qarashli chiqarish omillaridan foydalanganlik uchun to`lovlar o`rtasidagi farq
<i>Taklif inflyatsiyasi</i>	<i>Инфляция приложения</i>	<i>Offer Inflation</i>	bunda baholarning o`shishiga sabab sifatida garchi resurslardan to`laligicha foydalanilmagan bo`lsada ishlab chiqarish xarajatlarini oshishini keltirish
<i>Talab inflyatsiyasi</i>	<i>Инфляция спроса</i>	<i>Demand inflation</i>	bu ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to`la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketishi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi №PF-4947 sonli Farmoni. //Xalq so‘zi. 2017 yil 8 fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlanishining beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi 2017 yil 15 avgustdagi №3-5024 sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi №PF- 5635 sonli Farmoni. //Xalq so‘zi. 2019 yil 17 yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatiga Murojaatnomasi, 28.12.2018, www.uza.uz
5. Edward Shapiro. Macroeconomic analysis. Fifth edition. Oxford. Copyright 2015
6. Maxmudov N.M., Asqarova M.T., Umarov I.Yu. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash. Darslik. T.: “Fan va texnologiyalar”, 2014 – 338 b.
7. Л.М. Ташпулатова. Макроэкономический анализ. Учебное пособие. Т.: УМЭД, 2006, 280 б.
8. T.Z.Teshabayev, Z.M.Otaqo‘ziyeva, Makroiqtisodiyot. Ma‘ruzalar matni. T.: TATU, 2015, 480 b.
9. Xodiyev B.Yu., Shodiyev T.Sh., Berkinov B.B. Ekonometrika. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot, 2018, 178 b.
10. T.U.Bobokulov, N.G.Karimov, U.A.Abdullayev. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari. Ma‘ruzalar matni. T.: TMI, 2015, 244 b.
11. R.T.Shomurodov. Monetar siyosat. Ma‘ruzalar matni. T.: TMI, 2015, 151 b.
12. N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 7 th edition. Harvard University. NY.: Worth Publishers, 2015
13. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
14. www.scopus.com
15. <http://www.stat.uz>

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-bob. “Makroiqtisodiy tahlil” fanining maqsadi va vazifalari.....	4
2-bob. Makroiqtisodiy tahlilning uslubi va uslubiyati.....	10
3-bob. Makroiqtisodiy tahlilda ekonometrik modellardan foydalanish.....	18
4-bob. Makroiqtisodiy tahlilda milliy hisoblar tizimi axborot bazasi sifatida.....	24
5-bob. Makroiqtisodiy tahlil natijalaridan boshqaruv va tashkiliy tuzilmada foydalanish yo‘llari.....	34
6-bob. Makroiqtisodiy muvozanatning klassik va keynscha modellari tahlili.....	42
7-bob. Pul-kredit sektorining iqtisodiy tahlili.....	56
8-bob. Budjet-soliq sektorining iqtisodiy tahlili.....	71
9-bob. Ishsizlik va inflatsiya darajasining iqtisodiy tahlili.....	83
10-bob. Tovar va pul bozorlarining o‘zaro bog‘liqligi tahlili.....	101
11-bob. To‘lov balansining iqtisodiy tahlili.....	112
12-bob. Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy muvozanat tahlili.....	126
Glossariy.....	138
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	141